

74
M-47

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIIY TADQIQOT
INSTITUTI

O.A.Qo'ysinov, O'.O.Tohirov, D.N.Mamatov, D.F.Aripova

MEHNAT TA'LIMI



7

Toshkent-2016

74.
M-74.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**


**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI**

O.A.Qo'ysinov, O'.O.Tohirov, D.N.Mamatov, D.F.Aripova


MEHNAT TA'LIMI

7-SINF

**O'QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO'LLANMA**



Toshkent -- 2016



O.A.Qo'ysinov, O.O.Tohirov, D.N.Mamatov, D.F.Aripova. Mehnat ta'limi. 7-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: «POYTEXT-PRINT» MCHJ, 2016.-166 b.

Metodik qo'llanma PZ-2014-0912150534 – raqamli “Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish texnologiyalari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida tayyorlangan.

Metodik qo'llanma innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tayyorlangan bo'lib, metodik qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf mehnat ta'limi o'quv fanining “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” va “Qishloq xo'jaligi asoslari” yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishga oid tavsiyalar berilgan va dars ishlanmalari keltirilgan hamda maktab o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlar o'tkazishni rejalashtirish va tashkil etish, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilash, jihozlarni mashg'ulotga tayyorlash bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada mehnat ta'limini amalga oshirishga oid umummetodik yondoshuvlar va uni amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Mazkur metodik qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, shuningdek, undan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrantlari, ilmiy tadqiqotchilar va boshqa soha vakillari ham foydalanishlari mumkin.

Metodik qo'llanma yuzasidan fikr-mulohazalaringizni basmala@inbox.ru elektron pochta manzilimizga yuborishingiz mumkin.

Taqrizchilar:

R.X.Djurayev

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti professori, p.f.d.


S.Boltaboyev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Kasb ta'limi metodikasi” kafedrası dotsenti, p.f.d.

Z.Shamsiyeva

Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i

Ushbu metodik qo'llanma T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITning 2016 yil 31 maydagi 5-sonli Ilmiy kengashi va Respublika ta'lim markazi qoshidagi “Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish” Ilmiy metodik kengashining 2016 yil 27 avgustdagi 3-sonli qarorlari asosida nashrga tavsiya etilgan.



KIRISH

Barkamo avlodni kelajak hayotga tayyorlashda o'qitish va tarbiyalash, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini amalga oshirish – muhim ijtimoiy-siyosiy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan umummilliy masaladir. Shu sababli bu masala hamma davrda ham jamiyatdagi ilg'or, ziyoli, vatanparvar kishilarining diqqatini o'ziga tortib kelgan. Binobarin, hech qaysi davlatning va hech qaysi jamiyatning taraqqiyotini, kelajagini bilimli va tarbiyali yoshlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bu boraca mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g'oyasi – barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi. Barkamol shaxsning muhim sifatlari bo'lgan mehnatsevarlik, kasbiy qiziquvchanlik, ijtimoiy faollik, tirishqoqlik, intizomlilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik qobiliyatlarini tarbiya ash o'rta umumiy ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining markazida shaxs sifatlari turar ekan ta'lim metodlarini shu asosida tanlash va qo'llash ishlarini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada o'quvchilarning faolligini oshirish, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslari yoshlarni hayotga, kasb-hunarga tayyorlashda muhim o'ringa ega.

O'qituvchilar uchun tayyorlangan metodik qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf Mehnat ta'limi o'quv fanining “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” va “Qishloq xo'jaligi asoslari” yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishga oid tavsiyalar berilgan va dars ishlanmalari keltirilgan hamda maktab o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlar o'tkazishni rejalashtirish va tashkil etish, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilash, jihozlarni mashg'ulotga tayyorlash bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada mehnat ta'limini amalga oshirishga oid umummetodik yondoshuvlar va uni amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Metodik qo'llanma birinchi navbatda yosh o'qituvchilarga foydali bo'lib, tajribali o'qituvchilar ham keltirilgan tavsiyalarni tanqidiy tahlil qilgan holda o'z faolliklarida foydalanishlari mumkin.

TAQVIMIIY-MAVZUIY REJALASHTIRISH

7-sinf

I. TEXNOLOGIYA VA DIZAYN YO'NALISHI

| | | |
|-------------|--|----------------|
| 1. | METALLGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI | 18 |
| 1.1. | UMUMIY TUSHUNCHALAR | 2 soat |
| 1-2 | Rangli metallar va ularning qotishmalarining mexanik xossalari. Yupqa tunukalar, simlar turlari, ulardan yasaladigan detallar. Amaliy mustaqil ishlar: metallarga chilangarlik va tokarlik ishlov berish turlari va usullari. | 2 |
| 1.2. | ASBOB-USKUNALAR, MOSLAMALAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 4 soat |
| 3-4 | Sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to'g'rilash asboblariidan foydalanish. Shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometning tuzilishi va u bilan o'lchash usullari. Nonius bilan hisoblash. O'lchash asboblari yordamida aniqlik sinflarini tekshirish. | 2 |
| 5-6 | Amaliy mustaqil ishlar: Sterjen, tunuka, simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash va ular bilan ishlash. Metalga ishlov berish asboblari turlari haqidagi ma'lumotlarni aniqlash. NI-1 | 2 |
| 1.3. | MASHINA, MEXANIZM, STANOKLAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 2 soat |
| 7-8 | Frezerlash, tokarlik, parmalash, charxlash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ishlov berish texnologiyasi. Charxlash usullari. | 2 |
| 1.4. | MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI | 10 soat |
| 9-10 | Metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlari. | 2 |
| 11-12 | Rangli metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari. NI-2 | 2 |
| 13-14 | Texnologik xaritalar tayyorlash, chizish. | 2 |
| 15-16 | Texnologik xaritalar asosida buyumlar tayyorlash. | 2 |
| 17-18 | Amaliy mustaqil ishlar: Uy-ro'zg'or, turmush va maktab uchun metall buyumlar materiallardan buyumlar tayyorlash. | 2 |
| 2. | YOG'OCHGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI | 38 |
| 2.1. | UMUMIY TUSHUNCHALAR | 6 soat |
| 19-20 | Yog'ochning kimyoviy va texnologik xossalari. Yog'ochning haroratga, namlikka, mikroorganizmlarga va boshqa ta'sirlarga chidamliligini ta'minlashga xizmat qiluvchi materiallar. | 2 |
| 21-22 | Yog'ochni quritish va saqlash qoidalari. Yog'ochdan | 2 |

| | | |
|-------------|--|----------------|
| | tayyorlangan buyumlarga pardozi berishda ishlatiladigan materiallar. | |
| 23-24 | Amaliy mustaqil ishlar: Yog'ochlar va ularga ishlov berish materillarini turlarga ajratish va xususiyatlarini aniqlash. NI-3 | 2 |
| 2.2. | ASBOB-USKUNALAR, MOSLAMALAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 10 soat |
| 25-26 | Yog'ochga ishlov berishda qo'l asboblaridan foydalanish texnologiyasi. | 2 |
| 27-28 | Amaliy mustaqil ishlar: Yog'ochga qo'lda ishlov berish asboblarini ishga tayyorlash hamda ish joyini tashkil qilish. | 2 |
| 29-30 | Yog'ochdan uy-ro'zg'or buyumlar yasash. NI-4 | 2 |
| 31-32 | Yog'ochdan uy-ro'zg'or buyumlar yasash. | 2 |
| 33-34 | Yog'ochdan uy-ro'zg'or buyumlar yasash. | 2 |
| 2.3. | MASHINA, MEXANIZM, STANOKLAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 10 soat |
| 35-36 | Tokarlik, parmalash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ular bilan ishlash qoidalari, tokarlik, stanogida detallarga ishlov berish texnologiyasi. | 2 |
| 37-40 | Amaliy mustaqil ishlar: Yog'ochga ishlov berishda tokarlik stanogida operatsiyalarni bajarish. NI-5 | 4 |
| 40-44 | Amaliy mustaqil ishlar: Yog'ochga ishlov berishda parmalash stanogida operatsiyalarni bajarish. | 4 |
| 2.4. | MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI | 12 soat |
| 45-46 | Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi. Uy-ro'zg'or, turmushda va maktabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari. Eskizlar asosida buyumlar tayyorlash. | 2 |
| 47-48 | Shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar. Chizmalarda texnik talablarni ifodalash qoidalari. NI-6 | 2 |
| 49-50 | Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari. | 2 |
| 51-54 | Amaliy mustaqil ishlar: Konusimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash. Tayyorlanadigan buyumlarga texnologik xaritalar chizish | 4 |
| 55-56 | Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash. | 2 |
| 3. | ELEKTROTEXNIKA ISHLARI | 8 soat |
| 57-60 | Kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o' mi. Kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari. | 4 |
| 61-64 | Elektrotexnika bilan bog'liq kasb-hunar turlari. | 4 |

| | | |
|-----------|---|---------------|
| 4. | UY-RO'ZG'OR BUYUMLARINI TA'MIRLASH | 4 soat |
| 65-68 | Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari. | 4 |

Nazorat ishlarini o'tkazish jadvali

| I-II Chorak | | | | |
|--|----------------|----------------|----------------|----------------|
| Nazorat ishi tartib raqami | Nazorat ishi-1 | Nazorat ishi-2 | Nazorat ishi-3 | Nazorat ishi-4 |
| Nazorat ishi o'tkazish muddati | 5-6 dars | 11-12 dars | 23-24 dars | 29-30 dars |
| Nazorat ishi o'tkazish shakli | Amaliy ish | | | |
| Ishning o'quvchilar tomonidan bajarilishiga belgilangan vaqt | 80 | 80 | 80 | 80 |
| Ishda tekshirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka elementlar soni | 5 | 5 | 5 | 5 |
| Nazorat ishining bali (NIB) | 5 | 5 | 5 | 5 |

| III-IV Chorak | | | | |
|--|----------------|----------------|----------------|----------------|
| Nazorat ishi tartib raqami | Nazorat ishi-5 | Nazorat ishi-6 | Nazorat ishi-7 | Nazorat ishi-8 |
| Nazorat ishi o'tkazish muddati | 41-42 dars | 47-48 dars | 59-60 dars | 65-66 dars |
| Nazorat ishi o'tkazish shakli | Amaliy ish | | | |
| Ishning o'quvchilar tomonidan bajarilishiga belgilangan vaqt | 80 | 80 | 80 | 80 |
| Ishda tekshirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka elementlar soni | 5 | 5 | 5 | 5 |
| Nazorat ishining bali (NIB) | 5 | 5 | 5 | 5 |

II. SERVIS XIZMATI YO'NALISHI

| | | |
|-------------|---|---------------|
| 1. | PAZANDACHILIK ASOSLARI | 18 |
| 1.1. | UMUMIY TUSHUNCHALAR | 2 soat |
| 1-2 | Go'sht va go'shtli mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati. Baliq va baliq mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, ahamiyati va mohiyati. Go'sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo'lgan talablar, saqlanish muddatlari. Amaliy mashg'ulot: "Mimoza" salatini tayyorlash. | 2 |

| | | |
|-------------|---|----------------|
| 1.2. | ASBOB-USKUNALAR, MOSLAMALAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 4 soat |
| 3-4 | Go'shtdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rmini tashkil etish. Go'shtga birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari. | 2 |
| 5-6 | Amaliy mashg'ulot. Baliq yoki go'shtdan taom tayyorlash. NI-1 | 2 |
| 1.3. | PAZANDACHILIKDA ISHLATILADIGAN JIHOZLAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 4 soat |
| 7-8 | Asbob va moslama turlari va ularda ishlash qoidalari. Sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o'rmini tashkil etish. Elektrgo'sht maydalagichning tuzilishi, vazifalari, ishlash prinsipi. Xavfsizlik texnika talablari. | 2 |
| 9-10 | Amaliy mashg'ulot: Sabzavot va mevalarni konservalash uchun ish o'rmini tashkil etish. | 2 |
| 1.4. | TAOMLAR TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI | 8 soat |
| 11-12 | Qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rmini tashkil etish. Qandolatchilik jihozlaridan foydalanib, "Kartoshka" shirinligini tayyorlash. NI-2 | 2 |
| 13-14 | Amaliy mashg'ulot: mayda to'g'ralgan go'shtdan "Gulyash" yoki "Bistrogan" tayyorlab, dasturxonga tortish. | 2 |
| 15-16 | Amaliy mashg'ulot. Karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash va dasturxonga tortish. | 2 |
| 17-18 | O'zbek milliy taomlaridan palov tayyorlash texnologiyasi. Amaliy mashg'ulot: Palov tayyorlash va dasturxonga tortish | 2 |
| 2. | GAZLAMAGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI | 46 soat |
| 2.1. | UMUMIY TUSHUNCHALAR | 4 soat |
| 19-20 | Xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari haqida umumiy ma'lumot. Kimyoviy tolalardan tayyorlangan gazlamalar Sun'iy va sintetik gazlamalarning xossalari va ularga qo'yiladigan talablar. | 2 |
| 21-22 | Amaliy mashg'ulot: Kimyoviy tolalarning xususiyatlarini o'rganish. Tashqi ko'rinishga qarab cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazish, issiqdan saqlash xossalari, yonishi. | 2 |
| 2.2. | ASBOB-USKUNALAR, MOSLAMALAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 4 soat |
| 23-24 | Kiyim haqida umumiy ma'lumot. Kiyimlar assortimenti va o'lchami. Kiyim tikishning asosiy bosqichlari. Qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari. NI-3 | 2 |
| 25-26 | Amaliy mashg'ulot: Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar. Merejka usulida tikish. | 2 |
| 2.3. | MASHINA, MEXANIZM, STANOKLAR VA ULARDAN FOYDALANISH | 4 soat |
| 27-28 | Elektr yuritmalik tikuv mashinasining tuzilishi, ishlatilishi. | 2 |

| | | |
|-------------|--|----------------|
| | Maxsus ish bajaradigan tikuv mashinalari. | |
| 29-30 | Amaliy mashg'ulot: Tikuv mashinalarini tozalash va moylash. Mashinadagi nuqsonlar, Parallel zig-zak qator, mayda va yirik baxya qator tikish. Ichki kiyim choklaridan namunalar tikish. NI-4 | 2 |
| 2.4. | MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI | 34 soat |
| 31-32 | Milliy liboslardan ko'ylak va uning turlari haqida ma'lumot. Gavdadan o'lchov olish va yozish. Hisoblash formulasi. | 2 |
| 33-34 | Ko'ylak asos chizmasini chizish. | 2 |
| 35-36 | Ko'ylakni va bo'yin o'mizini modellashtirish hamda andoza tayyorlash. | 2 |
| 37-38 | Andozani gazlamaga joylashtirish va bichish. | 2 |
| 39-40 | Bichiq bo'laklariga ishlov berish. Birinchi kiydirib ko'rish. | 2 |
| 41-42 | Bo'yin o'miziga ishlov berish. NI-5 | 2 |
| 43-44 | Yeng o'miziga ishlov berish. | 2 |
| 45-46 | Ko'ylak etagini tikish. Ko'ylakka oxirgi ishlov berish. | 2 |
| 47-48 | Xalq hunarmandchiligi "Quroqchilik" haqida umumiy ma'lumot. Uning tarixi, usullari, kerakli ish qurollari. Tikiladigan "Quroq" buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash. NI-6 | 2 |
| 49-50 | Gazlamalarni ajratish, sifatini aniqlash va shablonlarni qirqib tayyorlash. | 2 |
| 51-52 | Tanlangan shakllarni shablon asosida tikish. Quroqning "Yo'l-yo'l" usulidan foydalanib, ushlagich tikish. | 2 |
| 53-54 | Quroqning "Paxta" yoki "Parket" usulidan foydalanib, yelpig'ich tikish. | 2 |
| 55-56 | "Uycha" (olma yoki qovoq guli) shaklida choynak yopg'ich tikish. Tayyorlangan mahsulotga astar tikish. Qaviq ishlari. Tayyorlangan mahsulotga oxirgi ishlov berish. | 2 |
| 57-58 | Dizayner-modeler kasbi to'g'risida tushuncha berish. Bolalar sport, bayram kiyimlari uchun yangi modellar eskizini yaratish. Kiyim turlari asosida yangi modellar yaratish. | 2 |
| 59-60 | To'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini yaratish. NI-7 | 2 |
| 61-62 | Xonani bezashda pardalarning roli. Parda tikish uchun gazlama va kerakli xomashyo, jihoz va moslamalar tanlash. Parda modeliga qarab gazlamani hisoblash. | 2 |
| 63-64 | Oddiy va murakkab usullarda pardalar tikish texnologiyasi. Kichik hajmda parda tikish. | |
| 2.5. | BUYUMLARNI TA'MIRLASH TEKNOLOGIYASI | 4 soat |
| 65-66 | Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish. NI-8 | 2 |

| | | |
|-------|---|---|
| 67-68 | Amaliy mashg'ulot: Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish. | 2 |
|-------|---|---|

Nazorat ishlarini o'tkazish jadvali

| I-II Chorak | | | | |
|--|----------------|----------------|----------------|-----------------|
| Nazorat ishi tartib raqami | Nazorat ishi-1 | Nazorat ishi-2 | Nazorat ishi-3 | Nazorat ishi -4 |
| Nazorat ishi o'tkazish muddati | 5-6 dars | 11-12 dars | 23-24 dars | 29-30 dars |
| Nazorat ishi o'tkazish shakli | Amaliy ish | | | |
| Ishning o'quvchilar tomonidan bajarilishiga belgilangan vaqt | 80 | 80 | 80 | 80 |
| Ishda tekshirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka elementlar soni | 5 | 5 | 5 | 5 |
| Nazorat ishining bali (NIB) | 5 | 5 | 5 | 5 |

| III- IV Chorak | | | | |
|--|------------------|------------------|------------------|------------------|
| Nazorat ishi tartib raqami | Nazorat ishi - 5 | Nazorat ishi - 6 | Nazorat ishi - 7 | Nazorat ishi - 8 |
| Nazorat ishi o'tkazish muddati | 41-42 dars | 47-48 dars | 59-60 dars | 65-66 dars |
| Nazorat ishi o'tkazish shakli | Amaliy ish | | | |
| Ishning o'quvchilar tomonidan bajarilishiga belgilangan vaqt | 80 | 80 | 80 | 80 |
| Ishda tekshirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka elementlar soni | 5 | 5 | 5 | 5 |
| Nazorat ishining bali (NIB) | 5 | 5 | 5 | 5 |

III. QISHLOQ XO'JALIGI YO'NALISHI

| | | |
|------|--|---------------|
| 1. | O'SIMLIKSHUNOSLIK | |
| 1.1. | UMUMIY TUSHUNCHALAR | 6 soat |
| 1-2 | Qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari, uchraydigan zararkunandalarning turlari va ularga qarshi kurashish usullarini. | 2 |

| | | |
|-------------|--|----------------|
| 3-4 | Mahalliy hududda uchraydigan qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari va ularga qarshi kurashish tadbirlari zararkunandalarining ro'yxatini tuzishni, ularga qarshi kurashish tadbirlarini bilish. | 2 |
| 5-6 | Amaliy mashg'ulot: Mahalliy hududda uchraydigan qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari, zararkunandalarining ro'yxatini tuzishni, kasallikni oldini olish tadbirlarini o'rgatish. NI-1 | 2 |
| 1.2. | QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKASI VA UN DAN FOYDALANISH | 20 soat |
| 7-8 | O'g'it solish, urug'larni ekish, hosilni yig'ishtirish, tashish va tozalash mashinalari. | 2 |
| 9-10 | Organik va mineral o'g'itlar solish mashinalarining turlari, o'g'itlash. | 2 |
| 11-12 | Donli va moyli ekinlar, ekinlarni ekishni, sug'orish va parvarish qilish usullarini NI-2 | 2 |
| 13-14 | Ekinlarga ishlov berish, texnika asosida parvarish qilish. | 2 |
| 15-16 | Urug'larni ekish seyalkalarining tuzlishi va ishkash printspi. | 2 |
| 17-18 | Yopiq joylarda hosil yetishtirish texnologiyasi va unda foydalaniladigan mashinalar. | 2 |
| 19-20 | Amaliy mashg'ulot: Urug'larni ekish seyalkalarining tuzlishi va ishkash printspi. | 2 |
| 21-22 | Traktorlar va mashinalar ish agregatlari. | 2 |
| 23-24 | Traktorlar va mashinalarning elektr ta'minoti, boshqaruv qismlari va xavfsizlik qoidalari. NI-3 | 2 |
| 25-26 | Sut sog'ish apparatlari va sutga dastlabki ishlov berish qurilmalari. | 2 |
| 1.3. | TRAKTORLAR VA MASHINALAR | 18 soat |
| 27-28 | Ozuqa tayyorlash va tarqatish mashina hamda jihozlari. | 2 |
| 29-30 | Chorva ferma va majmualarini suv bilan ta'minlash tizimida mashinalarning ahamiyati. NI-4 | 2 |
| 31-32 | Avtomobil sug'orgichlar, mikroiklim hosil qilish qurilmalari haqida ma'lumot. | 2 |
| 33-34 | Qishloq xo'jalik mashinalari saroyi va tuman servis xizmati ko'rsatish korxonalariga sayyohat. Qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash va saqlash. | 2 |
| 35-36 | Chorva mollarini boqish va ularni parvarishlash. | 2 |
| 37-38 | Amaliy mashg'ulot: Quyonlarni parvarish qilish qoidalarini o'rgatish. | 2 |
| 39-40 | Amaliy mashg'ulot: qo'ylarni parvarish qilish qoidalarini o'rgatish. | 2 |
| 41-42 | Amaliy mashg'ulot: qoramollarni parvarish qilish qoidalarini o'rgatish. NI-5 | 2 |

| | | |
|-------------|---|----------------|
| 43-44 | Amaliy mashg'ulot: Parrandalarni parvarish qilish qoidalarini o'rgatish. | 2 |
| 1.4. | CHORVACHILIK ASOSLARI | 12 soat |
| 45-46 | Qishloq xo'jalik hayvonlari mahsuldorligiga ta'sir yetuvchi omillarni o'rgatish. | 2 |
| 47-48 | Chorva ozuqalarini tayyorlashning mexanik, issiqlik, kimyoviy, bakteriologik usullarining iqtisodiy samaradorligi. NI-6 | 2 |
| 49-50 | Chorva ozuqalarining iqtisodiy samaradorligini, ozuqalarni qayta ishlash texnologik jarayonlarini, jonivorlarni boqish rasioni. | 2 |
| 51-54 | Baliqlarni parvarish qilish qoidalarini o'rgatish. | 2 |
| 55-56 | Ipak qurtining turlari, parvarish qilish qoidalarini va ishlab chiqarishdagi ahamiyati | 2 |

Nazorat ishlarini o'tkazish jadvali

| I-II Chorak | | | | |
|--|----------------|----------------|-----------------|-----------------|
| Nazorat ishi tartib raqami | Nazorat ishi-1 | Nazorat Ishi-2 | Nazorat Ishi- 3 | Nazorat ishi -4 |
| Nazorat ishi o'tkazish muddati | 5-6 dars | 11-12 dars | 23-24 dars | 29-30 dars |
| Nazorat ishi o'tkazish shakli | Amaliy ish | | | |
| Ishning o'quvchilar tomonidan bajarilishiga belgilangan vaqt | 80 | 80 | 80 | 80 |
| Ishda tekshirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka elementlar soni | 5 | 5 | 5 | 5 |
| Nazorat ishining bali (NIB) | 5 | 5 | 5 | 5 |

| III- IV Chorak | | | | |
|--|------------------|------------------|------------------|------------------|
| Nazorat ishi tartib raqami | Nazorat ishi - 5 | Nazorat ishi - 6 | Nazorat ishi - 7 | Nazorat ishi - 8 |
| Nazorat ishi o'tkazish muddati | 41-42 dars | 47-48 dars | 59-60 dars | 65-66 dars |
| Nazorat ishi o'tkazish shakli | Amaliy ish | | | |
| Ishning o'quvchilar tomonidan bajarilishiga belgilangan vaqt | 80 | 80 | 80 | 80 |
| Ishda tekshirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka elementlar soni | 5 | 5 | 5 | 5 |
| Nazorat ishining bali (NIB) | 5 | 5 | 5 | 5 |

I QISM

“TEXNOLOGIYA VA DIZAYN” YO‘NALISHI

METALLGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI

1.1. UMUMIY TUSHUNCHALAR

1-2-mashg‘ulot. Rangli metallar va ularning qotishmalarining mexanik xossalari. Yupqa tunukalar, simlar turlari, ulardan yasaladigan detallar. Metallarga chilangarlik va tokarlik ishlov berish turlari va usullari.

Dars maqsadi:

Ta‘limiy: o‘quvchilarga rangli metallar va ularning qotishmalarining mexanik xossalari, yupqa tunukalar, simlar turlari, ulardan yasaladigan detallar, metallarga chilangarlik va tokarlik ishlov berish turlari va usullari haqida umumiy ma‘lumotlar berish;

Tarbiyaviy: texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘mini tashkil qilish qonun-qoidalarini tushuntirish. Rangli metallar va ularning qotishmalari hamda yupqa tunukalar, simlardan yasaladigan detallarning turmushda va xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini, sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o‘rgatish;

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning rangli metallarga ishlov berish haqidagi ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo‘naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar: Maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid plakatlar, namuna materiallar, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, darsliklar, metodik qo‘llanma, ma‘ruza matni, lug‘atlar, ma‘lumotnomalar, savollar banki, topshiriq kartochkalari, tabiiy namunalari, xom-ashyo namunalari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og‘zaki, ko‘rgazmali, “B\B\B”, “Aqliy hujum” kabi interaktiv metodlar.

Yangi mavzuni bayoni

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O‘tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg‘ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O‘qituvchi o‘quvchilarning mehnat ta‘limi haqidagi bilimlarini “B\B\B” savollari orqali aniqlaydi.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O‘tilgan mavzuni takrorlash. 6-sinf mehnat ta‘limi darsida metal va metallga ishlov berish haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo`riqnomasi:

1. Maxsus ishchi kiyim to`g`ri kiyilishi;
 - a) yeng uchidagi tugmani qadab olish, uni bog`ich bilan bog`lamaslik.
 - b) sochlarni bosh kiyim tagiga olish.
2. Himoya moslamalari mavjudligi va ishonchligi, stanok korpusining erga ulanishi to`g`riligini tekshirish.
3. Stanokni erkin holatda ishlatib ko`rish.
4. Asbob va namunalarni tegishli taglik yoki moslamada muayyan tartib asosida joylashtirish;
5. Ishlov beriladigan namuna yaroqliligini tekshirib ko`rish;
6. Keskich va ishlov beriladigan materialni mustahkam o`rnatish;
7. Stanok ishini erkin yuritib sinab ko`rish, ishga tushirish qutisi sozligini tugmachalar bosish va richaglarni harakatlashirish yo`li bilan tekshirish.

Joriy yo`riqnoma.

1. Keskichni ishlov beriladigan namunaga bir tekis yaqinlashtirish, qirindi chiqishini oshirib yubormaslik kerak.

Stanokdagi detalni egov yoki qattiq tutqichga o`rnatilgan qum qog`oz bilan tozalash. Tutqich saqlash gardishiga ega bo`lish, ish vaqtida qo`l bilan tutib turilishi kerak.

2. Stanokni to`xtatishdan oldin keskich namunadan uzoqroqqa olinadi. Gayka va bolt kallaklariga mos keluvchi kalitlardan foydalanish. Ishlov beriladigan sim stanokdan chiqib turmasligi kerak. Tarmoqda elektr toki uzilsa, darhol stanokni ishdan to`xtat, tugmasini bosib qo`y.

3. Jarohatlanishning oldini olish maqsadida quyidagilar ta`qiqlanadi:

- boshni patron yoki ishlov berilayotgan namunaga haddan ziyod yaqin egish; stanokning aylanayotgan qismlari ustidan buyumlarni uzatish va olish; stanokka suyanish yoki o`tirib olish, unga asboblarni qo`yish;

- stanok ishdan to`liq to`xtamagunga qadar ishlov berilayotgan detal o`lchash, moylash, tozalash va qirindilarni olish;

- kesuvchi asbob yoki ishlov beriladigan detalni latta yoki boshqa buyum bilan sovitish;

- stanok ishi patronni qo`l bilan ushlab to`xtatish;

- stanokni o`chirmagan holda qoldirib ketish;

- ishlov berilayotgan detalni ushlab yoki tutib turish;

- boshqa xalaqit beruvchi ish yoki suhbatga berilish.

Yakuniy yo`riqnoma:

1. Stanok ishchi qismlarini dastlabki holatiga qaytarish, motorni o`chirish.

2. Stanokda qolgan qirindilarni tegishli asboblarni bilan tozalash.

3. Stanokni artish, moylash, asbob va himoya vositalarini tartibga keltirish, o`qituvchi yoki navbatchiga topshirish.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Rangli metallarga misollar keltirish.

2. Rangli metallar va ularning qotishmalarining mexanik xossalari deganda nimani tushunasiz?

3. Yupqa tunukalar, simlar turlari, ulardan yasaladigan detallar haqida ma'lumot bering.

4. Metallarga chilangarlik va tokarlik ishlov berish turlari va usullari haqida ma'lumot bering.

6. Uyga vazifa berish:

1. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlash, mavzu bo'yicha 10 ta test tuzib kelish.

2. Ish o'mini yig'ishtirish.

1.2. ASBOB-USKUNALAR, MOSLAMALAR VA ULARDAN FOYDALANISH

3-4-mashg'ulot. Sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to'g'rilash asboblariidan foydalanish. Shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometrning tuzilishi va u bilan o'lchash usullari. Nonius bilan hisoblash.

O'lchash asboblari yordamida aniqlik sinflarini tekshirish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to'g'rilash asboblariidan foydalanish, shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometrning tuzilishi va u bilan o'lchash usullari, nonius bilan hisoblash, o'lchash asboblari yordamida aniqlik sinflarini tekshirish qoidalarini o'rgatish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarga texnika xavfsizligi qoidalari, sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to'g'rilash asboblariidan foydalanish, shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometrning tuzilishi va u bilan o'lchash usullari, nonius bilan hisoblash. Haqida ma'lumotlar berish hamda o'quvchilarning tejamkorlik fazilatlarini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to'g'rilash asboblariidan foydalanish, shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometrning tuzilishi va u bilan o'lchash usullari, nonius bilan hisoblashga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, texnik ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Chilangarlik asboblariining tuzilishi" diapozitivlar, model, maket, stend, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, diagrammalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, audiodastur, videodastur, virtual stend, animatsiyalar, trenajyorlar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "Blits", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Yangi mavzuni bayoni

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50

4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20

5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limi haqidagi bilimlarini "Blits" savollari orqali aniqlaydi.

2. **Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.**

3. **O'tilgan mavzuni takrorlash.** rangli metallar va ularning qotishmalarini mexanik xossalari. Yupqa tunukalar, simlar turlari, ulardan yasaladigan detallar. Metallarga chilangarlik va tokarlik ishlov berish turlari va usullari haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

Kirish yo'riqnomasi: Darsni chilangarlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin metalga ishlov beradigan asboblarning turlari haqida tushunchalarni, ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish lozim. O'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan qo'l asboblarning turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va rejalash va ishlov berish vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalarini haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra rejalashni va ishlov berishni mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Metalga ishlov berishda qo'l asboblardan foydalanish texnologiyasi va shtangenserkul bilan ishlash bo'yicha yo'riqnomali xaritalar asosida buyumlar yasash bo'yicha topshiriqlar beriladi. Nonius bilan xisoblash, o'lchash asboblari yordamidan aniqlik sifatlarini tekshirish mas'ulatlari bajariladi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi baholar qo'yadilar (nazariya mas'alalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yordansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to'g'rilashda qanday asboblardan foydalaniladi?

2. Shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometrning tuzilishi va u bilan o'lchash usullari haqida ma'lumot bering.

3. Nonius bilan hisoblash aniqlikni o'lchashdagi ahamiyati?

4. O'lchash asboblari yordamida aniqlik sinflarini tekshirish qoidalariga doir mas'ulatlari bajariladi.

6. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 2-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.

2. Mavzu yuzasidan krossvord tuzib kelish.
3. Ish o`rnini yig`ishtirish.

5-6-mashg`ulot. Sterjen, tunuka va simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash va ular bilan ishlash. Metalga ishlov berish asboblari turlari haqidagi ma`lumotlarni aniqlash.

Dars maqsadi:

Ta`limiy: o`quvchilarga sterjen, tunuka va simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash va ular bilan ishlash, metalga ishlov berish asboblari turlari haqida umumiy ma`lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o`quvchilarga texnika xavfsizligi qoidalari, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish lozimligini uqtirish. O`quvchilarni tez va ozoda ishlashga o`rgatish hamda tejamkorlik fazilatlarini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi: o`quvchilarning sterjen, tunuka va simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash va ular bilan ishlash, metalga ishlov berish asboblari turlari haqida ma`lumotlarni aniqlashga oid ko`nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, texnik ijodkorlikka yo`naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: "Chilangarlik asboblarning tuzilishi" diapozitivlar; Ko`rgazma, namuna materiallar, model, maket, stend, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, diagrammalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, virtual stend, animatsiyalar, test dasturlari, trenajyorlar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og`zaki, ko`rgazmali, "Debatlar" kabi interaktiv metodlar.

Yangi mavzuni bayoni

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O`tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg`ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o`quvchilarning mashg`ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O`qituvchi o`quvchilarning mehnat ta`limi haqidagi bilimlarini "Debatlar" savollari orqali aniqlaydi.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O`tilgan mavzuni takrorlash. Sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to`g`rilash asboblari foydalanish. Shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometring tuzilishi va u bilan o`lchash usullari. Nonius bilan hisoblash. O`lchash asboblari yordamida aniqlik sinflarini tekshirish haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo`riqnomasi: Darsni chilangarlik o`quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. O`quvchilarga sterjen, tunuka va simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash va ular bilan ishlash, metalga ishlov berish asboblari turlari haqida ma`lumotlarni aniqlash haqida qisqacha tushuncha berib, so`ngra ishlov berish haqida ma`lumotlarni berish lozim.

Joriy yo`riqnomasi: O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi: Sterjen, tunuka va simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash va ular bilan ishlash. Metalga ishlov berish asboblari turlari haqida ma`lumotlarni aniqlash bo`yicha topshiriqlar beriladi. Olingan bilimlarni tekshirish mashhiqlari bajariladi.

Yakuniy yo`riqnoma: Joriy yo`riqnoma berish vaqtida yo`l qo`yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo`riqnoma berish paytida o`qituvchi o`quvchilarni baholaydi (nazariya masalalari va ilgari o`rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo`llay olishi; ish usullarini to`g`ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o`mida belgilangan tartibni qo`llab-quvvatlashi; chizmani o`qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me`yorlansa, belgilangan me`yorda bajarishi). Bunda o`quvchilarning o`quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Sterjen, tunuka va simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash haqida ma`lumot bering.

2. Metalga ishlov berish asboblari turlari haqida ma`lumotlarni aniqlash operatsiyasini bajaring.

6. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 3-mavzuni o`qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.

2. Mavzu yuzasidan debatlar tuzib kelish.

3. Ish o`rnini yig`ishtirish.

1.3. MASHINA, MEXANIZM, STANOKLAR VA ULARDAN FOYDALANISH


7-8 mashg`ulot. Frezerlash, tokarlik, parmalash, charxlash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ishlov berish texnologiyasi. Charxlash usullari

Dars maqsadi:

Ta`limiy: o`quvchilarga frezerlash, tokarlik, parmalash, charxlash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ishlov berish texnologiyasi. Charxlash usullari haqida umumiy ma`lumotlar berish;

Tarbiyaviy: texnika xavfsizligi qoidalari, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish lozimligini uqtirish, tez va ozoda ishlashga o`rgatish, o`quvchilarda tejamkorlik fazilatlarini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi: o`quvchilarning frezerlash, tokarlik, parmalash, charxlash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ishlov berish texnologiyasi, charxlash usullarini



bajarishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, texnik ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Ko'rgazma, namuna materiallar, stend, proeksion materiallar, videomateriallar, kompyuter, diapozitivlar, virtual stend, animatsiyalar, topshiriq kartochkalari, test dasturlari, savollar banki, trenajyorlar, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "Charxpalak", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Yangi mavzuning bayoni

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limi haqidagi bilimlarini "Charxpalak" savollari orqali aniqlaydi.

2. **Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirish.**

3. **O'tilgan mavzuni takrorlash.** Sterjen, tunuka va simlarga ishlov berish asboblari ishga tayyorlash va ular bilan ishlash. Metalga ishlov berish asboblari turlari haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

4. **Yangi mavzuning bayoni.**

Kirish yo'riqnomasi: Darsni chilangarlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin metalga ishlov beradigan stanoklar va ular haqida tushunchalarni, ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish lozim.

O'qituvchi hammaga kartochka topshiriqlar va yo'riqnomalar berib bo'lgach, o'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob beradi, ularni topshiriqlar bilan tanishtirgandan keyin esa materialning qanchalik o'zlashtirilganini tekshiradi va ishga kirishishga ruxsat beradi.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Frezerlash, tokarlik, parmalash, charxlash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ishlov berish texnologiyasi. Charxlash usullaridan metallarga ishlov berish jarayanida foydalaniladi.

Barcha mehnat usullari shu yo'sinda namoyish qilinadi va o'quvchilar tomonidan takrorlanadi. Shunga qaramay, tajribaning ko'rsatishicha, o'quvchilar mustaqil ishga kirishar ekanlar, xatolarga yo'l quyishadi. O'quvchilarning zagotovkani to'g'ri mahkamlaganliklarini ular kesa boshlamaslaridan oldin albatta tekshiriladi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi o'quvchilarni baholaydi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik

texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Metalga frezerlash stanoklarida ishlov berish texnologiyasini tushuntiring.
2. Metalga tokarlik stanoklarida ishlov berish texnologiyasini tushuntiring.
3. Metalga parmalash stanoklarida ishlov berish texnologiyasini tushuntiring.
4. Charxlash usullari haqida ma'lumot bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 4-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu yuzasidan klaster tuzish
3. Metalga ishlov berish stanoklarining kinematik sxemasini tuzib kelish.
4. Savollarga javob berish.

1.4. MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI

9-10-mashg'ulot. Metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlari

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarga texnika xavfsizligi qoidalari, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish lozimligini uqtirish, ularni tez va ozoda ishlashga o'rgatish, hamda tejamkorlik fazilatlarini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlariga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, texnik ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Ko'rgazma, namuna materiallar, model, stend, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, virtual stend, animatsiyalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "B\B\B", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Yangi mavzuning bayoni

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limi haqidagi bilimlarini "B\B\B" savollari orqali aniqlaydi.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. Frezerlash, tokarlik, parmalash, charxlash stankolarining vazifasi, tuzilishi va ishlov berish texnologiyasi. Charxlash usullari haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi mavzuga doir quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Metallardan yasaladigan buyumlarining turi ko'p bo'lib, ularning asosiy turlari oshxona, mehmonxona, yotoqxona buyumlaridan iboratdir. Metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlariga doir ma'lumotlar beriladi.

Joriy yo'riqnama. O'qituvchi metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlari haqida ham ma'lumot berib o'tadi. Konstruksiyalash elementlariga doir vazifalarni bajartiradi.

Yakuniy yo'riqnama: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Yakuniy instruktaj berish paytida o'qituvchi ko'pincha kompleks baho qo'yadi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; Chizma va eskiznini o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yordansa, belgilangan me'yorda bajarishi), bunday baholar ijobiy natijalar beradi. Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlari deganda nimani tushunasiz?

2. Konstruksiyalash elementlari asosida buyumlar tayyorlash usullari haqida ma'lumot bering.

6. Uyga vazifa berish:

1. Metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlarini o'rganib kelish.

11-12-mashg'ulot. Rangli metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga rangli metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarga texnika xavfsizligi qoidalari, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish lozimligini uqtirish, o'quvchilarni tez va ozoda ishlashga o'rgatish, o'quvchilarda tejamkorlik fazilatlarini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga rangli metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini o'zlashtirishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, texnik ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali quollar: Ko'rgazma, namuna materiallar, model, maket, stand, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, videodastur, virtual stand, animatsiyalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "B\B", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Yangi mavzuni bayoni

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uygaz vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limi haqidagi bilimlarini "B\B" savollari orqali aniqlaydi.

2. Uygaz berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. Metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlari haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi mavzuga doir quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: rangli metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini o'zlashtirishga doir ma'lumotlar beriladi.

Joriy yo'riqnomasi. O'qituvchi rangli metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini o'zlashtirish haqida ham ma'lumot berib o'tadi. Konstruksiyalash elementlariga doir vazifalarni bajartiradi.

Yakuniy yo'riqnomasi: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Yakuniy instruktaj berish paytida o'qituvchi ko'pincha kompleks baho qo'yadi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; Chizma va eskizni o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Maktab ustaxonalarida yog'ochga ishlov berishda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi, tayyor buyumlarning namunalari, 5-7 sinflar uchun mehnat talimi jadvallari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, chizmalar, rasmlar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, savollar banki, tabiiy namunalar, buyum eskizlari, xomashyo namunalari, test dasturlari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Muammoli ta'lim".

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. Yog'ochga ishlov berishda parmalash stanogida operatsiyalarni bajarish usullariga oid ma'lumotlar blits savollari berish orqali takrorlanadi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi mavzuga doir quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Yog'ochdan yasaladigan uy-ro'zg'or buyumlarining turi ko'p bo'lib, ularning asosiy turlari oshxona, mehmonxona, yotoqxona buyumlaridan iboratdir. Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi. Uy-ro'zg'or, turmushda va maktabda

qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari. Eskizlar asosida buyumlar tayyorlash.

Mavzu haqida umumiy ma'lumot berish jarayonida o'quvchilarni faolligiga e'tibor berish kerak.

Joriy yo'riqnoma. O'qituvchi yog'ochga ishlov berish texnologiyasi. Uy-ro'zg'or, turmushda va maktabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari. Eskizlar asosida buyumlar tayyorlash, chizma va rasmning bir biridan farqi haqida ham ma'lumot berib o'tadi. O'qituvchi xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinayotganligiga va ishchi hamda o'lchov asboblari to'g'ri ham o'z o'rinida foydalanilayotganligiga e'tibor beradi. O'quvchilar ishini nazorat qiladi va ularga tegishli tavsiyalar beradi.

Yakuniy yo'riqnoma: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Yakuniy instruktaj berish paytida o'qituvchi ko'pincha kompleks baholar qo'yadi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; Chizma va eskizni o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi), bunday baholar ijobiy natijalar beradi. Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Uy-ro'zg'or, turmushda va maktabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari deganda nimani tushunasiz?

2. Chizma va eskizning bir-biridan farqi nimada?

3. Eskizlar asosida buyumlar tayyorlash usullari haqida ma'lumot bering.

6. Uyg'a vazifa berish:

1. Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi. Uy-ro'zg'or, turmushda va maktabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlarini o'rganib kelish.

2. Eskizlar asosida buyumlar tayyorlash operatsiyalarini bajarish, amalda mustaqil ravishda eskizlar chizib kelish.

47-48 mashg'ulot. Shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar. Chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qoidalari

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar, chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qoidalari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarni texnika xavfsizligi qoidalari, shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar,

chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qoidalari ahamiyatini, sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar, chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qoidalari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Maktab ustaxonalarida yog'ochga ishlov berishda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi, tayyor buyumlarning namunalari, 5-7 sinflar uchun mehnat talimi jadvallari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, savollar banki, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalari, xom-ashyo namunalari, test dasturlari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: "Aqliy xujum", "Veer", "Muammoli ta'lim", og'zaki, ko'rgazmali

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. **Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirish.**

3. **O'tilgan mavzuni takrorlash.** Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi. Uy-ro'zg'or, turmushda va maktabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari. Eskizlar asosida buyumlar tayyorlash haqidagi ma'lumotlar "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda o'quvchilardan so'raladi.

4. **Yangi mavzuning bayoni.**

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi mavzuga doir quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallarni tayyorlash texnologiyasi tushuntiriladi. Chizmalarda texnik talablarni ifodalanishga doir bilimlar beriladi.

Joriy yo'riqnomasi: Shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar. Chizmalarda texnik talablarni ifodalanishi tushuntiradi. O'quvchilar chizmalar asosida "qaldirg'och quyruq" duradgorlik birikmasini yasashni o'rganishadi.

Shundan so'ng ish o'rinlarini egallashadi va Chizma asosida "qaldirqoch quyruq" duradgorlik birikmasini yasashga kirishadilar. O'qituvchi havfsizlik texnikasi qoidalarga rioya qilinayotganligiga va ishchi hamda o'lchov asboblarni to'g'ri hamda o'z o'rinida foydalanilayotganligiga e'tibor beradi. O'qituvchi

o'quvchilar ishini nazorat qiladi va ularga tegishli tavsiyalar beradi.

Yakuniy yo'riqnomasi: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'yan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Yakuniy instruktaj berish paytida o'qituvchi ko'pincha kompleks baholar qo'yadi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; Chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi), bunday baholar ijobiy natijalar beradi. Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar nima deb ataladi?

2. Chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qonun qoidasi haqida ma'lumot bering.

3. "Qaldirg'och quyruq" duradgorlik birikmasini tayyorlash ketma-ketligini tushuntiring.

5. Uyga vazifa berish:

1. Shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallarni aniqlash.

2. Chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qoidalarini "Veer" pedagogik texnologiyasi asosida duradgorlik birikmalari yordamida, hosil qilingan birikmalarning afzallik va kamchilik tomonlarini yozib kelish.

49-50 mashg'ulot. Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari to'g'risida ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarni texnika xavfsizligi qoidalari, yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari to'g'risida ma'lumot berish, sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Maktab ustaxonalarida yog'ochga ishlov berishda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi, tayyor buyumlarning namunalari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar.

chizmalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xom-ashyo namunalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: "Aqliy xujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Muammoli ta'lim", og'zaki, ko'rgazmali.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. Shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar. Chizmalarda texnik talablarni ifodalash qoidalarini o'rganishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqidagi ma'lumotlar "aqliy hujum" metodidan foydalangan holda o'quvchilardan so'raladi. Ush bu buyumni yasashda qanday qiyinchiliklarga duch kelishganini o'quvchilardan so'ragan holda ularga tegishli tavsiyalar beriladi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi.

O'qituvchi sinf o'quvchilarini 4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. Har bir guruh a'zolariga tegishli ma'lumotlar tarqatiladi. Ma'lumotlarni guruh bilan mustaqil o'rganish uchun 5 minut vaqt beriladi. Vaqt nihoyasiga etganidan so'ng har bir guruh a'zolari o'zlariga berilgan ma'lumotlar asosida chiqish qilishadi. O'qituvchi berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va to'ldiradi.

1-guruh. Halq xunarmandchiligi turlari. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi.

2-guruh. Xalq xo'jaligida ishlatiladigan asboblari.

3-guruh. Yog'och o'ymakorligi haqidagi ma'lumotlar:

4-guruh. Yog'och o'ymakorligi maktablari haqidagi ma'lumotlar:

Joriy yo'riqnoma. Yog'och va metallga ishlov berishni uygunlashtiruvchi xalq xunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari ko'rsatilib beriladi.

Yakuniy yo'riqnoma: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Yakuniy instruktaj berish paytida o'qituvchi ko'pincha kompleks baholar qo'yadi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; Chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati;

agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi), bunday baholar ijobiy natijalar beradi. Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Xalq hunarmandchiligi deganda nimani tushunasiz?
2. Xalq hunarmandchiligidagi ish usullari haqida ma'lumot bering.
4. Yog'och o'ymakorligi san'atining o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumot bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. Mustaqil ravishda xalq hunarmandchiligi buyumlari elementlarini bajarib keling.
2. Xalq hunarmandchiligi sohalari haqida qo'shimcha ma'lumot bilib kelish.

51-54. Konusimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash. Tayyorlanadigan buyumlarga texnologik xaritalar chizish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tayyorlanmaning konusimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash, texnologik xaritasini tuzish, tanlash, rejalash va tayyorlash haqida umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarni texnika xavfsizligi qoidalari, tayyorlanmaning konusimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash texnologik xaritasini tuzish, tanlash, rejalash va tayyorlash ahamiyatini, sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning tayyorlanmaning konusimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash texnologik xaritasini tuzish, tanlash, rejalash va tayyorlash haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Dars metodi: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: tayyor buyumlarning namunalari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlarni, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xom-ashyo namunalari, chizmalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: "Aqliy xujum", "Muammoli ta'lim", og'zaki, ko'rgazmali

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50

4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20

5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. Xalq hunarmandchiligi, naqsh, yog'och o'ymakorligi san'ati, naqshlarini chizishda rioya qilinishi kerak bo'lgan talablar haqidagi ma'lumotlar blits savollardan foydalangan holda o'quvchilardan so'raladi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi mavzuga doir quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Har qanday buyumni yasash uchun uning tegishli konusimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash texnologik jarayonning asosini tashkil qiladigan texnologik xaritasi bo'lishi shart. Texnologik xaritalar tuzish va ulardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi, texnik tafakkurini rivojlantiradi va mustaqil ishlashga yordam beradi. Bundan tashqari, texnologik xaritalarni tuzish orqali buyumning namunasiga yoki chizmasiga qarab uning murakkab konstruksiyasini ishlab chiqish; buyum uchun zagotovka tanlash va uning o'lchamlarini aniqlash; texnologik operatsiya va o'tishlarni hamda ularni bajarish tartibini belgilash; asboblarni, uskuna va moslamalarni tanlash kabi muhim ishlar o'zlashtirib olinadi.

Tuzilgan texnologik xaritalar yordamida rejalashtirilgan buyumning hamma detallarni yasash va ularni yigishni bajarish mumkin.

Joriy yo'riqнома. O'qituvchi "Dasta, jo'va, chekich, ilgak qoziqlar yasashning texnologik xaritasini tuzib ko'rsatadi. O'quvchilarning mustaqil bajarishlari uchun "Dasta, jo'va, chekich, ilgak qoziqlar" yasashning texnologik xaritasini tuzish vazifa sifatida beriladi.

| № | Ishning bajarish ketma-ketligi | Ishning eskizi | Asboblarni | | Qo'llaniladigan moslama |
|---|--------------------------------|----------------|------------|--------|-------------------------|
| | | | o'lchov | ishchi | |
| | | | | | |

O'qituvchi yangi o'tilgan mavzuni amaliy jihatlarini ko'rsatib beradi. O'qituvchi o'lchov asboblarni to'g'ri hamda o'z o'rinida foydalanilayotganligiga e'tibor beradi. O'quvchilar ishini nazorat qiladi va ularga tegishli tavsiyalar beradi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Texnologik xarita tuzishdan maqsad nima?
2. Texnologik xarita tuzishga qanday talablar qo'yiladi?
3. Texnologik xarita yordamida va texnologik xaritasiz buyum yasashni bir biri bilan solishtiring.

5. Uyga vazifa berish:

1. Uy-ro'zg'or buyumlaridan (Dasta, jo'va, chekich, ilgak qoziqlar)ning texnologik xaritasini tuzib kelish.
2. Darslikdan mavzuga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish.

55-56 mashg'ulot. Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash haqida umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarni texnika xavfsizligi qoidalari, yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash ahamiyatini, sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Maktab ustaxonalarida yog'ochga ishlov berishda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi, tayyor buyumlarning namunalari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalari, xom-ashyo namunalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: "Aqliy xujum", "Muammoli ta'lim", klaster, og'zaki, ko'rgazmali

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. Texnologik xarita tuzishdan maqsad, texnologik xarita tuzishga qo'yiladigan talablar haqidagi ma'lumotlar blits savollari orqali o'quvchilardan so'raladi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi mavzuga doir quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash jarayoni tushuntiriladi.

Joriy yo'riqnoma: Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash jarayoni tashkil etiladi.

Yakuniy yo'riqnoma: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Yakuniy instruktaj berish paytida o'qituvchi ko'pincha kompleks baho qo'yadi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rinda belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; Chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi), bunday baholar ijobiy natijalar beradi. Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlarini ko'rsatib o'ring.

2. Yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha qanday ish usullarini bilasiz?

5. Uyga vazifa berish:

1. Mustaqil ravishda yog'och va metallga ishlov berishni uygu'nlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlarini o'rganish

2. Darslikdan mavzuga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish

3. ELEKTROTEXNIKA ISHLARI

57-60 mashg'ulot. Kavsharlash asosida elektrmontaj ishlarini bajarish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga elektr montaj ishlarida ish o'rmini tashkil qilish Kavsharlash asosida elektrmontaj ishlarini bajarish haqida umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarni texnika xavfsizligi qoidalari, elektr montaj ishlarida ish o'rmini tashkil qilish kavsharlash asosida elektrmontaj ishlarini bajarish; Elektrning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning elektr montaj ishlarida ish o'rmini tashkil qilish, klavsharlash asosida elektrmontaj ishlarini bajarish turlari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalaniladigan metodlar: "Aqliy xujum", "kichik guruhlarda ishlash", "Muammoli ta'lim", og'zaki, ko'rgazmali

Reja:

1. Tashkiliy qism-5

2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10

3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi tomonidan quyidagi savollar o'rtaga tashlanadi:

1. Elektr energiyasining xalq xo'jaligidagi ahamiyati haqida nimalar bilasiz?

2. Kavsharlash asosida qanday elektrmontaj ishlarini bilasiz?

O'quvchilar tomonidan berilgan javoblar umumlashtiriladi. O'qituvchi elektr energiyasining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, elektr energiya manbalari, kavsharlash asosida elektrmontaj ishlarini bajarish, elektrotexnikada ishlatiladigan asbob uskunalar, elektrotexnika ishlarida xavsizlik texnikasi qoidalari, o'tkazgich simlar va ularni ulash tartibi haqida ma'lumotlar beriladi.

Joriy yo'riqnoma. O'qituvchi mavzuni amaliy tushuntirish uchun quyidagi amaliy mashg'ulotni o'quvchilar bilan birgalikda bajaradi:

1. Kavsharlash asosida elektrmontaj ishlarini bajarish operatsiyasi amalga oshiriladi.

Yakuniy yo'riqnoma: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Kavsharlash deb nimaga aytiladi?

2. Elektromontaj sim turlari.

3. Akyuslar necha turga bo'linadi?

3. Kavsharlashning necha turi bor?

4. Elektr energiyasini uzatish simlari haqida nimalar bilasiz?

5. Simlarni ulash tartibini tushuntiring.

5. Uyga vazifa berish:

1. Kavsharlash asosida elektrmontaj ishlarini bajarish sohasiga oid kasb-hunarlar haqida ma'lumot to'plash

1. Darslikdan mavzuga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish.

61-64 mashg'ulot. Elektrotexnika bilan bog'liq kasb-hunar turlari

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolliyatlash ishlari, sohaga oid kasb-hunarlar to'g'risida ma'lumot berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarni texnika xavsizligi qoidalari, elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolliyatlash ishlari, elektr asboblari, sohaga oid kasb-hunarlar

to'g'risida ma'lumot. Elektr energiyaning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolliyatlash ishlari, elektr asboblari, sohaga oid kasb-hunarlar haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Elektr energiyasi bilan ishlashda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, savollar banki, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalari, xom-ashyo namunalari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: "Aqliy xujum", "Muammoli ta'lim", kichik guruhlarda ishlash, og'zaki, ko'rgazmali

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. Elektr energiyasining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kavsharlash asosida elektr mantaj ishlari haqidagi ma'lumotlar "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda so'raladi.

4. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi. O'qituvchi tomonidan quyidagicha nazariy ma'lumotlar beriladi: Elektrotexnika bilan bog'liq kasb-hunar turlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Joriy yo'riqnoma. O'qituvchi mavzuni amaliy tushuntirish uchun quyidagi amaliy mashg'ulotni o'quvchilar bilan birgalikda bajaradi:

Elektrotexnika bilan bog'liq kasb-hunar turlari.

Ishni bajarish tartibi:

Yakuniy yo'riqnoma: O'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlab ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Elektrotexnika bilan bog'liq kasb-hunar turlari haqida ma'lumot to'plang.

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzuga doir klaster tuzib kelish.
2. Darslikdan mavzuga oid ma'lumotlarni o'rganish.

4. UY RO'ZG'OR BUYUMLARINI TA'MIRLASH

65-68 mashg'ulot. Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: texnika xavfsizligi qoidalari, shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari ishlarini bajarishda sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits", "aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Kovsharlash, elektrotexnika ishlarini tashkil qilish, elektr o'tkazish simlari, montaj qilish, izolyatsiyalash, elektr asboblari bilan ishlash usullariga oid kasb-hunar turlarini o'rgatish. O'qituvchi o'quvchilarning uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash haqidagi bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish ishlarini bajarish, xizmat ko'rsatish sohalari haqida ma'lumot beriladi. Darsda o'qituvchi xavfsizlik texnikasi bilan tanishtiradi. Ushbu mavzuni o'tishda asosiy vazifalar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini bajarishdan iborat.

Joriy yo`riqnoma. O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi: Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta`minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari yuzasidan tushunchalar beriladi.

Yakuniy yo`riqnoma: Yakuniy instruktaj berish paytida o`qituvchi o`quvchilarni baholaydi (nazariya masalalari va ilgari o`rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo`llay olishi; ish usullarini to`g`ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o`rnida belgilangan tartibni qo`llab-quvvatlashi; chizmani o`qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me`yorlansa, belgilangan me`yorda bajarishi). Bunda o`quvchilarning o`quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta`minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari o`rganiladi.

5. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 33-mavzuni o`qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. O`tilgan mavzu yuzasidan esse yozib kelish.
3. Uyda nosoz buyumlarda kichik ta`mirlash ishlarini bajarishni mashq qilish.
4. Savollarga javob berish.

I QISM

SERVIS XIZMATI YO'NALISHI

1. PAZANDACHILIK ASOSLARI

1.1. UMUMIY TUCHUNCHALAR

1-2 – mashg'ulot. Go'sht va go'shtli mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati. Baliq va baliq mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, ahamiyati va mohiyati. Go'sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo'lgan talablar, saqlanish muddatlari. Amaliy mashg'ulotd "Mimoza" salatini tayyorlash.

Darsning maqsadi.

Ta'limiy: O'quvchilarga go'sht va go'shtli hamda baliq va baliq mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati, go'sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo'lgan talablar, saqlanish muddatlari haqida ma'lumot berish. Amaliy mashg'ulotda "Mimoza" salatini tayyorlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni pazandachilik xonalarida mashg'ulotlar jarayonida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena qoidalari haqidagi bilimlarni mustahkamlash va u talablariga rioya qilishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga amal qilish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va kurgazmali qurollar: elektr plita, oshxona stollari, plakatlar, zamonaviy oshxona jihozlari va dasturxon bezash bo'yicha slaydlar, oshxona anjomlari namunalari, kompyuter, darsliklar, taomlarni tayyorlash texnologik xaritalari, rangli rasmlar, albomlar, amaliy mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlari, taomni dasturxonga berish uchun ishlatiladigan idish, moslamalar, savollar banki.

Foydalanadigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy mashg'ulot, "aqliy xujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. Yangi mavzuning bayoni – 10
3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot -40
4. Yangi mavzuni mustahkamlash -20
5. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2.Yangi mavzuni bayoni. Bunda ko'rgazmali metoddan foydalaniladi.

Go'sht - bu so'yilgan mollarning tanasi va uning qismi. Go'sht mahsulotlari uchun xom ashyo bo'lib qoramol, cho'chqa, qo'y va echki, uy parrandalari va ovlanadigan parrandalar, quyon, bug'u go'shtlari xizmat qiladi. Go'sht muskul

to'qimalaridan, yog' to'qimalaridan, biriktiruvchi to'qimalardan va suyak to'qimalaridan iborat.

Go'shtning oзуqaviy qiymati. Go'sht turli to'qimalardan: muskul to'qimalari, yog' to'qimalari, biriktiruvchi to'qimalar (parda, pay, kemirchak) va suyak to'qimalaridan iborat. Go'shtning oзуqaviy qiymati uning ximiyaviy tarkibiga, ya'ni ushbu to'qimalardagi oqsil, yog', uglevodlar, mineral moddalar va vitaminlar (A, V, D) ning miqdori va sifatiga bog'liq.

Oqsillar eng to'yimli modda hisoblanadi. Mol go'shtida o'rtacha 16—18% oqsil moddasi bo'ladi. Go'shtdagi juda qimmatli oqsilning ko'pi muskul to'qimasiga, qiymati pastroq oqsillar esa biriktiruvchi va suyak to'qimalariga joylashgan bo'ladi.

Go'shtning kaloriyasini oshiruvchi yog' ham to'la to'yimli qiymatga ega. Yog'lar joylashishiga qarab teri osti yog'lari, muskul to'qimalari orasidagi yog'lar va charvi yog'larga ajratiladi. Teri osti va muskul to'qimalari orasidagi yog'lar eng yaxshi sifatli yog'lardir. Chunki bu yog'lar nisbatan past haroratda eriydi va unda charvi yog'iga qaraganda biriktiruvchi to'qimalar kam bo'ladi.

Turli mollar yog'ining to'yimlik qiymati turlicha. Masalan, cho'chqa, tovuq va g'oz yog'larining erish harorati kishi tanasining haroratiga yaqin bo'lganligi tufayli yog'ning bu turlari yuqori haroratda eriydigan mol va qo'y yog'lariga qaraganda organizmda yaxshi xazm bo'ladi.

Go'shtda uglevodlar nihoyatda kam (0,5% ga yaqin). Ammo ular go'shtning etilishida muhim rol o'ynaydi. Chunki fermentlar ta'siri ostida uglevodlar sut kislotasiga aylanib achiydi, natijada go'shtning mazalilik xususiyatlari yaxshilanadi.

Go'shtdagi mineral moddalardan kalsiy, natriy, fosfor, temir birikmalarini aytib utish kerak. Ularning miqdori 0,7 dan 1,2% gacha o'zgarib turadi.

Go'sht tarkibida suv ham ko'p (60—73%), shuning uchun ham u tez buziluvchan mahsulotlarga kiradi.

Go'shtning kimyoviy tarkibi va oziqaviy qiymati

Go'sht tarkibida: oqsil 16-21 %, yog' 0,5-37 %, uglevod 0,4-0,8 %, azotli va azotsiz ekstraktiv moddalar 2,5-3 %, suv 52-78 %, mineral moddalar, lipidlar, fermentlar 0,7-1,3 % bo'ladi. Bundan tashqari go'sht tarkibida «V₁», «V₂», «V₆», «V₁₂», «RR», «A», «S», «D» vitaminlari va pantoten kislotasi bo'ladi.

Go'shtning kimyoviy tarkibi uning turi, mol zoti, uning jinsi, yoshi, semizligi, go'shtning morfologik tarkibi va boshqa faktorlarga bog'liq bo'ladi. Har xil turdagi hayvonlarning go'shti va go'sht mahsulotlari umumiy ovqatlanish korxonalarida turli xil pazandalik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Go'sht – so'yilgan hayvon nimtasi yoki nimtasining bir qismi bo'lib, asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri. Go'sht mazasi jihatidan turli xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan yaxshi qo'shiladi, shuning uchun undan ko'p miqdordagi har xil taomlar tayyorlash mumkin.

Baliq va baliq mahsulotlarining oзуqaviy qiymati, ahamiyati va mohiyati.

Baliqning oziqaviy qiymati uning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Baliq go'shti tarkibida asosiy moddalar miqdori quyidagicha bo'lishi mumkin: suv 46,1-92,8 %,

yog` 0,1-33,8 %, azotli moddalar 5,2- 26,6 %, mineral moddalar 0,1-4,6 %. Baliq go`shti tarkibida azotli moddalar miqdori juda yuqori bo`lganligi uchun uning go`shti oqsilli oziq mahsuloti hisoblanadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalariga ko`pincha suyak skeletli (tangali va tangasiz) va tog`ay skeletli (osertlar oilasiga mansub) baliqlar kelib tushadi. Baliq turiga va uning pazandalikda qo`llanilishiga qarab, ularga turli usullarda ishlov beriladi. Baliqqa ishlov berishning umumiy sxemasi qo`yidagi jarayonlardan iborat: muzdan tushurish, dastlabki ishlov berish, yuvish, bo`laklarga bo`lish, yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash.

Umumiy ovqatlanish korxonasida kelib tushgan muzlatilgan baliq muzdan tushiriladi, tuzlangan baliqning tuzi ketkiziladi, so`ngra dastlabki ishlov beriladi.

Muzdan tushirilgan baliqqa dastlabki ishlov berishda, avval, ular tangasidan tozalanadi. So`ngra baliqning jabrasi bilan birga boshi, ichak - chavoqlari kesib tashlanadi. Kesilgan baliq yaxshilab yuviladi, qon quyqalari va ichki organlarining qolgan qismlari olib tashlanadi. Tozalangan baliqning suzgichlari kesiladi va yana yuviladi. Dastlabki ishlov berilgan baliq bo`laklarga bo`linadi. Baliqdan kotlet va knel qiymasini, shuningdek, ba`zi bir yarim tayyor mahsulotlar (portsiyali taomlar uchun) tayyorlashda baliq, po`stsiz va umurtka suyaksiz filega ajratiladi.

Go`sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo`lgan talablar, saqlanish muddatlari

Go`shtlar mol go`shti, qo`y go`shti, cho`chqa go`shti, ot go`shti va boshqalarga bo`linadi. Go`sht va go`sht mahsulotlari sovutgich va muzlatkichlarda yoki quruq, toza, sovuq va yaxshi shamollatiladigan qorong`i binolarda saqlanadi.

Saqlashda havoning namligi, harorat, shamollatish va binoning sanitariya xolati go`sht va go`sht mahsulotlarining sifatiga katta ta`sir ko`rsatadi. Binodagi havoning haddan tashqari quruq bo`lishi go`sht va go`sht mahsulotlarining qurishiga sabab bo`ladi va ularning tashqi ko`rinishi buziladi. Havoning namligi oshib ketsa, ularning mog`orlashi va chirishiga sabab bo`ladi. Iflos, zax va iliq binolarda go`sht va go`sht mahsulotlari tez buziladi, chunki bunday sharoitlarda mikroblar, ayniqsa, chiritadigan mikroblar juda tez ko`payadi.

Sovutilgan go`sht va go`sht mahsulotlarini osib qo`yib saqlashda harorat—1 dan—2°S gacha, havoning nisbiy namligi 75—85% bo`lishi lozim. Muzlatilgan go`sht mahsulotlari ombor yoki chakana savdo korxonalarida toza yog`och va ruxlangan stellajlarga zich qilib taxlanadi va usti brezent yoki boshqa material bilan yopiladi. Ular—2°S dan —6°S gacha haroratda va havoning namligi 85—90% qilib saqlanadi.

Parranda go`shtlari magazinlarda 0° dan past haroratda ko`pi bilan 5 sutka, 0° dan to 6° gacha bo`lgan haroratda ko`pi bilan 3 sutka, 8°S dan yukori bo`lmagan haroratda (muzxonalarda), ko`pi bilan 2 sutka saqlanadi.

Tangali baliqlarga sudak, churtanbaliq, lesh, sazan, karp, sig, koryushka, seldlar kiradi.

Dastlabki ishlov berilgan baliq bo`laklarga bo`linadi. Bo`laklashning qo`yidagi turlari mavjud: aylana, po`stli file, po`stli va umurtka suyakli file, po`stsiz va suyaksiz file. Unchalik katta bo`lmagan (1,5 kilogrammgacha) baliqlar

aylana shaklda katta bo'laklarga bo'linadi. Ya'ni dastlabki ishlov berilgan baliq katta - katta aylana shaklda kesiladi. Bo'laklarga bo'linmagan baliqni sovitgichda 2-3, bo'laklarga bo'linganini esa 5-7 kun saqlash mumkin. Muzlatilgan baliqni uy sharoitida sovitgichda 2-3 kundan ortiq vaqt saqlash tavsiya etilmaydi.

3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga amaliy mashg'ulotda "Mimoza" salatini tayyorlash uchun zarur bo'lgan asbob va idishlar, kerakli masalliqlar va salatini tayyorlanish bosqichlari slaydlardan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borish zarur.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilar guruhlariga bo'linib mavzu yuzasidan ikki xil turdagi "Mimoza" salatini tayyorlaydilar. O'qituvchi ularning ishini nazorat qilib boradi. Kerakli joyda maslahatlar beradi.

Yakuniy yo'riqnoma: Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; taomlar tayyorlash texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Go'shtning tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan qanday moddalar mavjud?

2. Go'shtlar haroratiga qarab qanday turlarga bo'linadi?

3. So'yiladigan hayvon turiga qarab go'sht qanday turlarga bo'linadi?

4. Go'sht va go'shtli taomlarning inson organizmi uchun foydali xususiyatlarini aytib bering.

5. Go'shtga issiqlik ishlovi berilishi natijasida unda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

6. Baliq va baliq mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini aytib bering.

7. Go'sht va baliq turlarini qancha muddatlarda saqlanishi mumkin?

8. "Mimoza" salatini tayyorlash uchun qanday mahsulotlar kerak bo'ladi?

9. "Mimoza" salatini tayyorlash bosqichlarini izohlab bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. Pazandachilik o'quv xonasida qo'llaniladigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalarini yod olib kelish.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va inson organizmi uchun ahamiyatini darslikdan o'qib o'rganish.

3-4 – mashg'ulot. Go'shtdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish. Go'shtga birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga go'shtdan va baliqdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish, go'shtga va baliqqa

birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni oshxonada ishlayotganda e'tiborli bo'lishga, shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilishga va ish joyini ozoda tutishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish va go'shtdan milliy taomlarni o'rgatish orqali milliy g'ururni shakillantirish.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, munozara, aqliy-hujum, musobaqa kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: O'zbek milliy oshxona asbob-anjomlari namunalari va plakatlar, slaydlar, kompyuter, rangli rasmlar, oshxona jihozlari, tayyor taomlarni dasturxonga tortish uchun zarur bo'lgan idishlar, asbob-anjomlar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Raja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash -10
3. Yangi mavzuni bayoni - 50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash -10
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi.

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Uyga berilgan vazifani tekshirish. O'quvchilar bilan munozara o'tkaziladi va test tarqatiladi.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash.

1. Go'shtning tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan qanday moddalar mavjud?

2. Go'shtlar haroratiga qarab qanday turlarga bo'linadi?

3. So'yiladigan hayvon turiga qarab go'sht qanday turlarga bo'linadi?

4. Go'sht va go'shtli taomlarning inson organizmi uchun foydali xususiyatlarini aytib bering.

5. Go'shtga issiqlik ishlovi berilishi natijasida unda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

6. Baliq va baliq mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini aytib bering.

7. Go'sht va baliq turlarini qancha muddatda saqlanishi mumkin?

8. "Mimoza" salatini tayyorlash uchun qanday mahsulotlar kerak bo'ladi?

9. "Mimoza" salatini tayyorlash bosqichlarini izohlab bering.

4. Yangi mavzuning bayoni. Bunda ko'rgazmali metoddan foydalaniladi.

Go'shtdan va baliqdan turli taomlar tayyorlanadi. Go'shtni uy sharoitida sovitgichda bir necha kun saqlash mumkin. Baliqni esa uzoq muddat saqlab bo'lmaydi.

Ovqat tayyorlashdan oldin go'shtni va baliqni oqib turgan suvda yuvish kerak.

Go'shtdan va baliqdan taom tayyorlash uchun ish o'rnida quyidagi jihozlar

bo'lishi tavsiya etiladi:

1. Oshxonada ishlatiladigan jihozlar, asbob va idish-tovoqlar xarorat o'zgarishiga, yuvuvchi moddalarga, dezinfeksiya vositalariga chidamli bo'lishi, sirti silliq, tiniq bo'lishi;

2. Stollar usti suv o'tkazmaydigan materiallar bilan qoplanishi;

3. Go'shtni bo'laklarga bo'lish uchun maxsus taxtakach va pichoqlar;

4. Baliqni bo'laklarga bo'lish uchun maxsus taxtakach va pichoqlar;

5. Bo'laklangan go'shtni va baliqni idishga solish uchun turli hajmli sirli idish-tovoqlar;

6. Ish o'rni go'shtni yumshatish uchun go'shtyumshatkich, go'shtni qiymalash uchun mexanik yoki elektr go'shtqiymalagich;

7. Baliqni tangachalardan tozalash uchun baliqtozalagich;

8. Go'sht va baliq suyaklarini chopish uchun kichik boltacha;

9. Go'sht va baliqdan turli mahsulotlar tayyorlash uchun qozon, tova, kostryulkalar maxsus oshxona shkaflariga qulay joylashtirilishi kerak.

Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari. Birlamchi ishlov beriladigan go'sht muzlatilgan bo'lsa, avval uni muzdan tushirish va bu ishni past haroratda $-0^{\circ} + 4^{\circ}\text{S}$ da amalga oshirish kerak. Ana shunda go'shtdagi muz kristallari asta-sekin erib, go'shtning o'ziga shimiladi va uning dastlabki sifati saqlanadi. Agar muzdan tez tushirilsa, muz kristallari tez erib, go'shtga shimilmay oqib ketadi va uning sifati yo'qoladi. Go'shtni muzdan tushirgandan keyin, tamg'alari, ifloslangan, chandir joylari qirqib tashlanadi. So'ngra go'shtni avval iliq, keyin sovuq suvda yuviladi.

Go'shtga ishlov berish jarayoni quyidagichadir: muzdan tushirish, yuvish, quritish, tamg'alardan tozalash, bo'laklarga bo'lish, suyaklardan ajratish, chandirlarini olib tashlash, navlarga ajratish, yarim tayyor masaliqlar tayyorlash.

Umumiy ovqatlanish korxonasiga tirik, sovitilgan, tuzlangan va muzlatilgan baliqlar keltiriladi. Sovitilgan baliq tanasining harorati $0 - 1^{\circ}\text{S}$, muzlatilgan baliq tanasining harorati $6 - 8^{\circ}\text{S}$ bo'ladi. Muzlatilgan baliqni muzdan tushirish uchun (1 kg baliqqa 2 l hisobida) $10 - 15^{\circ}\text{S}$ haroratdagi suvga 2 - 4 soat solib qo'yiladi. Baliq tarkibidagi foydali moddalar suvga chiqib ketmasligi uchun 1 l suvga 7 g hisobida tuz solinadi.

Baliqqa birinchi ishlov berish jarayoni quyidagilardan iborat: muzdan tushirish, tangachalardan tozalash, qanot va suzgichlardan tozalash, ichki organlarini olib tashlash, yuvish, yarim tayyor masaliqlar tayyorlash.

Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda quyidagi sanitariya-gigiena talablariga rioya qilinadi:

1. Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda maxsus kiyimlar — ochiq rangli fartuk va qalpoq kiyish yoki oq ro'mol o'rab olish.

2. Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishga kirishishdan oldin qo'llarni sovun bilan yuvish, tirnoqlar olingan bo'lishi.

3. Go'shtga, baliqqa birlamchi ishlov berishda maxsus tamg'alangan - "XG", "XB" taxtakach va pichoqlardan foydalanish.

4. Go'shtni va baliqni boshqa mahsulotlarga qo'shib qo'ymaslik.

5. Go'sht va baliq to'g'raladigan pichoq va taxtakachni qaynoq suv bilan chayib turish.

6. Ish o'rnini tez-tez tozalash va har doim ozoda, pokiza saqlashga harakat qilish.

7. Xona jihozlarining saranjomligi va ozodaligini ta'minlash.

Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda quyidagi xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinadi:

1. Ish o'rniga yorug'likni yaxshi tushib turishi.

2. Go'sht va baliqni bo'laklarga bo'lish jarayonida ehtiyotkor bo'lish.

3. Pichoqni boshqa kishiga sop tomoni bilan uzatiladi.

4. Go'sht qiymalagichda ishlashda unga mahsulotni maxsus moslama bilan surish.

5. Baliqtozalagichni bir qo'l bilan ushlab baliqning dum tomonidan bosh qismiga qaratib tangachalaridan tozalanadi.

5. Qaynayotgan suyuklikka turli mahsulotlarni sachratmasdan ehtiyotkorlik bilan tashlash.

6. Issiq qozon, tova, idish-tovoqlarni maxsus qo'lqop yoki moslama bilan ushlash.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Go'shtdan va baliqdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun ish o'rnini qanday jihozlash kerak?

2. Go'shtga qanday birlamchi ishlov beriladi?

3. Baliqqa qanday birlamchi ishlov beriladi?

4. Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda qanday sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilinadi?

5. Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda qanday xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinadi?

6. Qovurib pishirilgan go'shtli taom uchun qanday asbob va idishlar kerak bo'ladi?

6. Uyga vazifa berish.

1. Zamonaviy oshxona idish-tovoqlari haqida ma'lumot to'plash.

2. Shaxsiy gigiena qoidalarini yod olish.

5-6 – mashg'ulot. Baliq yoki go'shtdan taom tayyorlash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga baliq yoki go'shtdan taom tayyorlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarning estetik didlarini o'stirish va zamonaviy oshxona jihozlaridan to'g'ri foydalanishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning zamonaviy oshxona jihozlaridan foydalanishda ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ovqatlanish madaniyatini yuksaltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: muzlatgich, sovutkich, termos, mikroto'lqinli elektrpechlarni aks ettiruvchi plakatlar.

zamonaviy oshxona jihozlari bo'yicha slaydlar, oshxona anjomlari namunalari, kompyuter, proektsion materiallar, rasmlar, darsliklar, metodik qo'llanma, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, munozara, aqliy hujum, muommoli vaziyat kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot-50.
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-10.
5. Uygaz vazifa berish -5

Mashg'ulotning borishi.

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash.

1. Go'shtdan va baliqdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun ish o'rnini qanday jihozlash kerak?
2. Go'shtga qanday birlamchi ishlov beriladi?
3. Baliqqa qanday birlamchi ishlov beriladi?
4. Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda qanday sanitariya-gigiena talablariga rioya qilinadi?
5. Go'shtga va baliqqa birlamchi ishlov berishda qanday xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinadi?
6. Qovurib pishirilgan go'shtli taom uchun qanday asbob va idishlar kerak bo'ladi?

3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga amaliy mashg'ulotda qovurib pishirilgan go'shtli taom va o'zbekcha qovurma baliq taomlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan asbob va idishlar, kerakli masalliq va taomni tayyorlanish bosqichlari slaydlardan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borish zarur.

Joriy yo'riqnoma: O'quvchilar guruhlariga bo'linib mavzu yuzasidan ikki xil taomni, qovurib pishirilgan go'shtli taom (Befstrogan) va o'zbekcha qovurma baliq taomlarini tayyorlaydilar. O'qituvchi ularning ishini nazorat qilib boradi. Kerakli joyda maslahatlar beradi.

Yakuniy yo'riqnoma: Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; taomlar tayyorlash texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Qovurib pishirilgan go'shtli taom uchun qanday asbob va idishlar kerak bo'ladi?

2. Bir kishi uchun mo'ljallangan befstroganga qanday masalliq kerak bo'ladi?

3. Befstroganni bajarish tartibini aytib bering.

4. O'zbekcha qovurma baliq uchun qanday asbob va idishlar kerak bo'ladi?

5. Baliqni qovurishda qanday miqdorda masalliq ishlatiladi?

6. Baliqni qovurishni bajarish tartibini aytib bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish.

2. Mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib 10 ta test tuzish.

7-8 – mashg'ulot. Asbob va moslama turlari va ularda ishlash qoidalari. Sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish. Elektr go'shtmaydalagichning tuzilishi, vazifalari, ishlash prinsipi.

Xavfsizlik texnika talablari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga elektr go'shtmaydalagichning tuzilishi, vazifalari, ishlash prinsipi, sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish, xavfsizlik texnika talablari qoidalari o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarning estetik didlarini o'stirish va tayyorlangan taomni did bilan bezashga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda zamonaviy oshxona jihozlaridan foydalanib sabzavotlardan taomlar tayyorlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: elektr go'shtmaydalagichni aks ettiruvchi plakatlar, zamonaviy oshxona jihozlari bo'yicha slaydlar, oshxona anjomlari namunalari, kompyuter, proeksion materiallar, rasmlar, savollar banki, darsliklar, metodik qo'llanma, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, klaster, musobaqa, muammoli vaziyat.

Reja: 1. Tashkiliy qism-5

2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10

3. Yangi mavzuni bayoni-50.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash-10.

5. Uyga vazifa berish -5

Mashg'ulotning borishi.

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. O'tilgan mavzu savol-javob o'tkazilib takrorlanadi.

1. Qovurib pishirilgan go'shtli taom uchun qanday asbob va idishlar kerak bo'ladi?

2. Bir kishi uchun mo'ljallangan befstroganga qancha masalliq kerak bo'ladi?

3. Befstroganni tayyorlash tartibini aytib bering.
4. O'zbekcha qovurma baliq uchun qanday asbob va idishlar kerak bo'ladi?
5. Baliqni qovurishda qanday masalliqlar ishlatiladi?
6. Baliqni qovurishni bajarish tartibini aytib bering.

3.Yangi mavzuni bayoni.

Pazandachilikda uy sharoitida ishlatiladigan texnologik jarayonlarni bajaruvchi jihozlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Taom va pazandachilik mahsulotlarni pishirishda va isitishda ishlatiladigan jihozlar: gaz yoki elektr plita va duxovkalar, elektr tovalar, elektr suv qaynatgich, mikroto'liqlik pech, toster, tuxum qaynatgich va boshqalar.

2. Oziq-ovqat mahsulotlariga mexanik ishlov beradigan jihozlar: go'sht qiymalagich, sabzavottozalagich va to'g'rash moslamasi, sharbat siqgich va boshqalar.

3. Oziq-ovqat mahsulotlariga nomexanik ishlov beradigan jihozlar: idish-tovoqlarni saqlaydigan shkaflar, stollar, taxtakachlar, pichoqlar, bolg'achalar, idish-tovoqlar va oshxona anjomlari.

4. Dasturxon tuzash uchun zarur bo'lgan jihozlar, asbob- anjomlar: stol- stullar, oshxona servislari va asbob-anjomlari, dasturxon va sochiqlar.

Sanab o'tilgan jihozlardan elektr go'shtmaydalagich mahsulotlarga ishlov berishda mehnatni ancha osonlashtiradigan va taom tayyorlashda vaqtni tejaydigan mashina

Elektr go'sht maydalagichga qo'shib beriladigan almashinadigan detallar-nasadkalar yordamida go'shtmaydalagichni tezda sabzavot va mevalar to'g'ragichga aylantirish mumkin. Elektr go'sht maydalagichda uning iste'mol quvvati katta rol o'ynaydi. Quvvati qancha katta bo'lsa, u shuncha yaxshi hisoblanadi. Quvvati 200 Vt dan 600 Vt gacha bo'lgan elektr go'shtmaydalagich turlari ishlab chiqariladi.

Zamonaviy elektr go'shtmaydalagich – bu deyarli oshxona kombayni hisoblanadi. 1 kg go'shtga ishlov berish uchun 5 – 7 daqiqa, sabzavot yoki meva uchun esa 3 – 6 daqiqa vaqt ketadi. Sharbatni ham elektr go'shtmaydalagichda tayorlash mumkin. Bunda faqat titrus mevalardan foydalanish mumkin.

Go'shtmaydalagichda plastik itarish moslamasi bo'lib, uning uzunligi qiymalagichning bo'yin qismi uzunligiga teng keladi. Itargichning bunday uzunligi maydalagichni ishlatish jarayonida qo'lni kesib olishidan asrab turadi.

Zamonaviy elektr go'shtmaydalagichdan to'g'ri foydalanilsa, u uzoq muddat xizmat qiladi. Shuning uchun undan foydalanishda qator xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak:

1. Elektr go'shtmaydalagichga mahsulot solmay 5 daqiqadan ortiq salt ishlatish mumkin emas;
2. Uni 30 daqiqadan ortiq uzluksiz ishlatish mumkin emas;
3. Mahsulotlarni itarish uchun turli narsalardan foydalanmaslik;
4. Yuritma mexanizmlarini qismlarga ajratmaslik tavsiya etilmaydi;
5. Vaqti-vaqti bilan elektr sim izolyasiyasini nazorat qilib turish;
6. Ishlatib bo'lingach, barcha detal-nasadkalarini iliq suv bilan yaxshilab

yuvish;

7. Elektrgo'shtmaydalagichni quruq joyda saqlash.

4.Yangi mavzuni mustahkamlash.

1 Pazandachilikda uy sharoitida ishlatiladigan texnologik jarayonlarni bajaruvchi jihozlari qanday turlarga bo'linadi?

2. Oshxonada elektr go'shtmaydalagichning vazifasini aytib bering.

3. Elektr go'shtmaydalagichning iste'mol quvvati qanday bo'lishi mumkin?

4. Elektr go'shtmaydalagichning qanday funksiyalari bor?

5. Zamonaviy elektrdan foydalanishda qanday xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak?

5.Uyga vazifa berish.

1.O'tilgan mavzuni darslikdan o'qib o'rganish.

2. Zamonaviy oshxona jihozlarini rasmlarini to'plab albomga yopishtirish.

3. Mavzu yuzasidan krossvord tuzish.

9-10 mashg'ulot. Sabzavot va mevalarni konservalash uchun ish o'rnini tashkil qilish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga sabzavot va mevalarni konservalash uchun ish o'rnini tashkil qilish haqida umumiy tushunchalar berish. Sabzavot va mevalarni konservalash yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarning estetik didlarini, ovqatlanish madaniyatini oshirish va tayyorlangan taomni did bilan bezashga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni sabzavot va mevalarni konservalash bo'yicha malakalarini rivojlantirish, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: elektr plita, oshxona idish-tovoqlari, oshxona stollari, plakatlar, zamonaviy oshxona jihozlari bo'yicha slaydlar, kompyuter, savollar banki, darslik, taomlarni tayyorlash texnologik xaritalari, rangli rasmlar, test materiallari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, musobaqa, klaster, munozara, muammoli vaziyat, aqliy hujum, amaliy mashg'ulot kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5

2. Yangi mavzuning bayoni – 10

3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot -40

4. Yangi mavzuni mustahkamlash -20

5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat

qilish.

2. Yangi mavzuni bayoni. Bunda ko'rgazmali metoddan foydalaniladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari buzilishining asosiy sababi tabiatda keng tarqalgan har xil mikroorganizmlar – mog'or zamburug'lari, bakteriyalar, achitqilardir. Oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat mikroorganizmlardan saqlashda konservalashning muzlatish, ma'lum haroratda isitish (sterilizasiyalash), quritish, tuzlash, ziravor qo'shib sirkalash va boshqa har xil usullaridan foydalaniladi. Uy sharoitida konservalashning oddiy va ishonchli usuli sterilizasiyalashdir. Sterilizasiyalash uchun oziq-ovqat mahsulotlari xomligicha yoki yarim tayyor holatda bankalarga joylanadi, bankalar qopqoq bilan zich yopiladi va 100-140⁰S haroratgacha bo'lgan suvda qaynatiladi. Uy sharoitida hamma ho'l meva, rezavor meva va sabzavotlarni konservalash mumkin.

Konservalashda ishlatiladigan idish va asbob-uskunalar. Konservalar uy sharoitida, odatda 0,2, 0,5, 0,75, 1, 2 va 3 l shisha bankalarda tayyorlanadi. Bankalarni og'zini mahkam berkitish uchun qo'l bilan aylantiriladigan maxsus mashinka va aylanali metall qopqoq yoki maxsus qisqichli shisha qopqoqdan foydalaniladi.

Asbob-uskunalaridan qaynatish va pishirish uchun 3-5 l li 1-2 dona sirli yoki oqartirilgan kostryulka, sterilizasiyalash uchun 1-2 dona baland kostryulka (5-10 l li), oshxona pichoqlari, kapkir, chovli, qirg'ich, sharbatqisqich, danakajratgich, bankani suvdan chiqarib olish uchun qisqich kerak bo'ladi.

Mahsulotlarni sterilizasiyalash. Shisha bankalar yuvib bug'latiladi va qutiladi. Konservash uchun tayyorlangan meva, rezavor meva va sabzavotlarni bankalarga yuqori chekkasiga 2-3 sm qolguncha joylashtirilib, ustiga sharbat yoki namakob quyiladi. Bankalar qopqoqsiz yoki temir qopqoqlar bilan yuzaki yopilib, kostryulkadagi qaynoq (50-60⁰S) suvga qo'yiladi. Kostryulkadagi suv hajmi taxminan bankalar hajmiga teng kelishi kerak. Qaynash vaqtida shisha bankalar yorilib ketmasligi uchun kostryulka tubiga taglik qo'yiladi. Bankalar solingan kostryulkadagi suv qaynaguncha isitiladi. Suv qaynab chiqqandan so'ng sterilizasiya vaqti belgilanadi. Har bir konserva turi uchun sterilizasiya vaqti turlicha bo'ladi. Sterilizasiya paytida suv qattiq qaynab ketmasligi kerak, aks holda banka ichiga suv sachrashi mumkin. Sterilizasiya vaqti tugagach, bankalar kostryulkadan maxsus qisqichlar yordamida olinadi va darhol qo'l bilan aylantiriladigan mashinka yordamida mahkamlab yopiladi. Mahkam yopilgan bankalar og'zini pastga qilib sovitish uchun stolga qo'yiladi.

Mahsulotlarni sirka, tuz, shakar, turti ziravorlar va xushbo'y ko'katlar qo'shib konservalash mumkin. Bu jarayonni marinadlash deyiladi. Marinad uchun avvalo eritma tayyorlash lozim. Buning uchun tuz bilan shakarni suvga solib 10-15 minut sirli idishda qaynatiladi. Eritma bir necha qavatdan o'tkazilib keyin sirka qo'shiladi. Marinadlash uchun osh sirkasi (6-8% li) ishlatilgani ma'qul.

Bodringni marinadlash uchun bir tekisdagi barra bodringlar olinadi. Bodringlar dumchalarini olib tashlab, yaxshilab yuvib sovuq suvga solib qo'yiladi (6-8 soat). Chopilgan xushbo'y ko'katlar aralashiriladi va bir siqimdan shisha bankalar tubiga solinadi. Ko'katlar bilan birga 10-15 dona qora murch, 4 dona

qalampir munchoq, 1 bo'lak dolchin, 1-2 dona lavr yaprog'i, 5-6 dona sarimsoq ham solinadi. Tayyorlangan bodringlar zich qilib bankaga teriladi va ustidan yana bir qisim ko'kat solib, yuzi bilan teng qilib sirkali eritma solinadi va 100⁰S haroratli qaynab turgan suvda 20-25 minut pasterizatsiya qilinadi.

3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga amaliy mashg'ulotda ho'l mevalardan kompotlar tayyorlab konservalash uchun zarur bo'lgan asbob va idishlar, kerakli masalliq va kompotni tayyorlanish bosqichlari slaydlardan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borish zarur.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilar guruhlariga bo'linib mavzu yuzasidan ikki xil turdagi kompotni tayyorlaydilar. O'qituvchi ularning ishini nazorat qilib boradi. Kerakli joyda maslahatlar beradi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; taomlar tayyorlash texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Mahsulotlarga issiqlik ishlovi berishning ahamiyati qanday?
2. Issiqlik ishlovi berishning qanday usullari mavjud?
3. Zamonaviy issiqlik ishlovi berish asboblarini aytib bering.
4. Meva va sabzavotlarni sterilizatsiyalashni tushuntirib bering.
5. Mahsulotlarni sirka, tuz, shakar, turli ziravorlar va xushbo'y ko'katlar qo'shib qanday konservalash mumkin?
6. Xo'l mevalardan kompotni qanday bosqichlarda tayyorlanadi?

5. Uyga vazifa berish:

1. Pazandachilik o'quv xonasida qo'llaniladigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini yod olib kelish.
2. Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va inson organizmi uchun ahamiyatini darslikdan o'qib o'rganish.

11-12 – mashg'ulot. Qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish. Qandolatchilik jihozlaridan foydalanib "Kartoshka" shirinligini tayyorlash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish, qandolatchilik jihozlaridan foydalanib, "Kartoshka" tayyorlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarning estetik didlarini, ovqatlanish madaniyatini oshirish va tayyorlangan taomni did bilan bezashga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni turli xil qandolatchilik mahsulotlarini

tayyorlash bo'yicha malakalarini rivojlantirish, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: elektr plita, oshxona idish-tovoqlari, moslamalari, oshxona stollari, plakatlar, zamonaviy oshxona jihozlari bo'yicha slaydlar, kompyuter, darslik, qandolat mahsulotlarini tayyorlash texnologik xaritalari, rangli rasmlar, test materiallari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, musobaqa, klaster, munozara, muammoli vaziyat, aqliy hujum, amaliy mashg'ulot kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. Yangi mavzuning bayoni – 10
3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot -40
4. Yangi mavzuni mustahkamlash -20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2.Yangi mavzuni bayoni. Bunda ko'rgazmali metoddan foydalaniladi.

Uy sharoitida biror taom yoki shirinliklarni tayyorlash uchun oshxonada ish o'rini tayyorlab olish kerak. Oshxona jihozlari shunday joylashtirilgan bo'lishi kerakki, biror mahsulotni tayyorlashda ish jihozlarini olish qulay bo'lishi lozim. Foydalanib bo'linganidan keyin har bir jihozni o'z o'rniga qo'yishga odatlanish zarur, aks holda keyingi ish jarayonlarida kerakli jihozlarni topishga qiynalib qolish mumkin. Pazandachilikda uy sharoitida qandolat mahsulotlarini tayyorlash uchun ishlatiladigan jihozlarga quyidagilar kiradi:

- Turli xil kattalikdagi idish-tovoqlardan qandolat mahsulotlarining xom ashyolarini tayyorlashda foydalaniladi;

- Qo'lda ko'pirtirgich yoki mikser asosan tuxum oqini ko'pirtirishda, tort uchun kremlar tayyorlashda ishlatiladi;

- Shakldor keskichlar yordamida turli xil pechenelarni tayyorlashda shakllar berishda foydalanilsa, tortlar tayyorlashda turli xil kattalikdagi qoliplardan foydalaniladi;

- Blenderdan foydalanib tayyor mahsulotlarni bir tekis talqon ko'rinishiga keltiriladi;

- Maxsus taxtakachlar yordamida yong'oqlarni maydalash mumkin;

- Gaz yoki elektr plita va duxovkalari qandolat mahsulotlarini pishirish uchun kerak bo'ladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga amaliy mashg'ulotda qandolatchilik jihozlaridan foydalanib, "Kartoshka" shirinligini tayyorlash uchun zarur bo'lgan asbob va idishlar, kerakli masalliqalar va "Kartoshka" shirinligini tayyorlanish bosqichlari slaydlardan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli

vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borish zarur.

Joriy yo'riqnoma: O'quvchilar guruhlarga bo'linib mavzu yuzasidan ikki xil turda tayyorlanadigan "Kartoshka" shirinligini tayyorlaydilar. O'qituvchi ularning ishini nazorat qilib boradi. Kerakli joyda maslahatlar beradi.

Yakuniy yo'riqnoma: Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'mida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; taomlar tayyorlash texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun ish o'rini qanday tashkil etiladi?
2. "Kartoshka" shirinligi uchun qanday masalliqlar kerak?
3. "Kartoshka" shirinligini tayyorlash bosqichlarini aytib bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. "Kartoshka" shirinligini tayyorlashda sanitariya-gigiena qoidalarini yodlash.
2. Qandolatchilik maxsulotlarining ozuqaviy qiymati va inson organizmi uchun ahamiyatini darslikdan o'qib o'rganish.

13-14 Amaliy mashg'ulot: Mayda to'g'ralgan go'shtdan "Gulyash" yoki "Bistrogan" tayyorlab, taomni dasturxonga tortish.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga mayda to'g'ralgan go'shtdan "Gulyash" yoki "Bistrogan" tayyorlab, taomni dasturxonga tortishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarning estetik didlarini, ovqatlanish madaniyatini oshirish va tayyorlangan taomni did bilan bezashga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni mayda to'g'ralgan go'shtdan turli taomlar tayyorlash bo'yicha malakalarini rivojlantirish, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: elektr plita, oshxona idish-ovoqlari, moslamalari, oshxona stollari, plakatlar, zamonaviy oshxona jihozlari bo'yicha slaydlar, kompyuter, darslik, go'shtli taomlarni tayyorlash texnologik xaritalari, rangli rasmlar, test materiallari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, musobaqa, klaster, munozara, aqliy hujum, amaliy mashg'ulot kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot -50
3. Yangi mavzuni mustahkamlash -20
4. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga amaliy mashg'ulotda mayda to'g'ralgan go'shtdan "Gulyash" yoki "Bistrogan" tayyorlash uchun zarur bo'lgan asbob va idishlar, kerakli masalliqlar va "Gulyash" yoki "Bistrogan" taomlarini tayyorlanish bosqichlari slaydlardan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borish zarur.

Joriy yo'riqнома: O'quvchilar guruhlariga bo'linib mavzu yuzasidan ikki xil turdagi "Bistrogan" taomini tayyorlaydilar. O'qituvchi ularning ishini nazorat qilib boradi. Kerakli joyda maslahatlar beradi.

Yakuniy yo'riqнома: Yakuniy yo'riqнома berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalariga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxonada jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; taomlar tayyorlash texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

3. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. "Bistrogan" taomni tayyorlash uchun qanday asbob va idishlar kerak bo'ladi?

2. Taom uchun qanday gamirlardan foydalanish mumkin?

3. "Bistrogan" taomi uchun qanday masalliqlar kerak bo'ladi?

4. "Bistrogan" taomni tayyorlash bosqichini aytib bering.

4. Uyga vazifa berish:

1. "Gulyash" yoki "Bistrogan" taomlarini tayyorlanish bosqichlari ko'rsatilgan texnologik xaritalarni tuzib kelish.

2. "Gulyash" yoki "Bistrogan" taomlarini dasturxonga tortishning o'ziga xos tomonlarini darslikdan o'qib o'rganish.

15-16 – Amaliy mashg'ulot: Karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash va dasturxonga tortish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash va dasturxonga tortish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarning estetik didlarini, ovqatlanish madaniyatini oshirish va tayyorlangan taomni did bilan bezashga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash bo'yicha malakalarini rivojlantirish, ijodkorlikka yo'naltirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: elektr plita, oshxonada idish-tovoqlari, moslamalari, oshxonada stollari, plakatlar, zamonaviy

oshxona jihozlari bo'yicha slaydlar, kompyuter, darslik, taomlarni tayyorlash texnologik xaritalari, rangli rasmlar, savollar banki, test materiallari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, musobaqa, munozara, muammoli vaziyat, aqliy hujum, amaliy mashg'ulot kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot -50
3. Yangi mavzuni mustahkamlash -20
4. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga amaliy mashg'ulotda karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash uchun zarur bo'lgan asbob va idishlar, kerakli masalliq, karam va uzum bargidan do'lmani tayyorlanish bosqichlari slaydlardan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borish zarur.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilar guruhlariga bo'linib, mavzu yuzasidan ikki xil karam va uzum bargidan do'lmani tayyorlaydilar. O'qituvchi ularning ishini nazorat qilib boradi. Kerakli joyda maslahatlar beradi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; taomlar tayyorlash texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

3. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Uzum bargidan do'lma tayyorlash uchun qanday masalliq kerak bo'ladi?
2. Uzum bargidan do'lma tayyorlash jarayonining bosqichlarini aytib bering.
3. Karam bargidan do'lma tayyorlash uchun qanday masalliq kerak bo'ladi?
4. Karam bargidan do'lma tayyorlash jarayonining bosqichlarini aytib bering.
5. Nima uchun do'lma tayyorlash uchun karam bargini yumshatib olish kerak?
6. Uzum va karam bargidan tayyorlangan do'lma dasturxonga qanday tortiladi?

5. Uyg'a vazifa berish:

1. O'qilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish.
2. Mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib 10 ta test tuzish.

2. GAZLAMAGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI

19-20 – mashg'ulot: Xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari haqida umumiy ma'lumot. Kimyoviy tolalardan tayyorlangan gazlamalar. Sun'iy va sintetik gazlamalarning xossalari va ularga qo'yiladigan talablar.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari, kimyoviy tolalardan tayyorlangan gazlamalar, sun'iy va sintetik gazlamalarning xossalari va ularga qo'yiladigan talablari haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni gazlamaga ishlov berish texnologiyasi xonalarida mashg'ulotlar jarayonida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga amal qilish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Mehnat xonalariga qo'yiladigan talablar plakatlari, sun'iy va sintetik gazlamalar xossalari aks ettiruvchi plakatlari, gazlama namunalari, savollar banki, testlar banki, mavzu bo'yicha slaydlar, kompyuter.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. Yangi mavzuning bayoni-50
3. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
4. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limi haqidagi bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2. Yangi mavzuning bayoni

Dars yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Havfsizlik texnikasi – mehnat qilish uchun xavfsiz sharoit yaratishga qaratilgan chora tadbirlar tizimidan iborat.

Havfsizlik texnikasi qoidalari shunday noxushliklar yoki baxtsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi. Tikuvchilikda bu qoidalar asosan ikki guruhga bo'linadi.

1. Qo'l va mashinada ishlaganda quyidagilarga rioya qilishi kerak:

- mashinalar, asbob va moslamalarning ishga yaroqliligi tekshirib turiladi. Ish boshlashdan oldin ish o'rni saranjomlanib olinadi, mashinada barmoqqa igna kirib ketishining oldini oladigan saqlagich, yuritgich tasma to'sig'i, mashinani ishga tushirish joylarida izolyatsiya g'illoflari bor - yo'qligi tekshirib ko'riladi va hokazo;

- elektr simlariga ip, latta, simchalar osmaslik lozim, aks holda qisqa tutashuv yuz berishi mumkin. Simlarda nuqson sezilsa, darhol elektrmontyorga xabar berish,

ochilib qolgan simlarga qo'l tekkizmaslik kerak;

- ishlayotgan mashina ustidan narsalarni uzatish mumkin emas;

- elektr dvigatelni o'chirmasdan mashinaga moy surtish, tozalash, ignasini almashtirish, mashina shkiviga tasma kiydirish man etiladi;

- ish o'rnida asboblarning sochilib yotmasligi, qaychi va iplar mashinaning aylanayotgan qismlari yoniga qo'yilmasligi kerak;

- ish o'rinlari orasidagi yo'lni to'sib qo'ymaslik lozim.

2. Dazmol bilan ishlaganda quyidagilarga rioya qilishlari kerak:

- elektr dazmolida ish boshlashdan oldin shnur izolyatsiyasi tekshirib ko'rilishi lozim;

- dazmol, shtepsel rozetkasi, vilkaning tok o'tkazuvchi qismlariga qo'l tekkizish mumkin emas;

- dazmolning sozligiga ahamiyat berish zarur (korpusda qisqa tutashuv bo'lsa, ishlayotganda qo'lga salgina igna sanchilgandek bo'ladi);

- ishlayotganda shnur dazmolga tegib turmasligi kerak;

- dazmolning o'ta qizib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim;

- dazmol, shtepsel rezetkasi, vilka nosoz bo'lsa, ishni to'xtatib, elektrmontyorni chaqirish kerak.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi o'quv xonalari sanitariya-gigiena talablariga ham javob berishi kerak. Xonaning harorati 19-21^oS bo'lishi va xona o'z vaqtida shamollatib turilishi lozim. Xonaning havosi deraza, eshik orqali hamda mexanik usulda ventilyatordan foydalanib almashtiriladi. Bundan tashqari qish faslida xonani maxsus isitish tarmoqlari yordamida isitiladi.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi o'quv xonalari yaxshi yoritilishning muhim ahamiyati bor. Mashinalar derazaga nisbatan yonlamasiga yoki 45^o qiyalikda qo'yilishi kerak, shunda mashinaga yorug'lik to'g'ri tushib turadi. Derazalar oldiga baland o'simliklar qo'yilmasligi, oynalar tozalab yuvilgan bo'lishi, rozetkalar vodoprovodga, kanalizatsiyaga yaqin o'rnatilmasligi lozim.

Ish joylari yoniga o'ziga mos bo'lgan mehnat xavfsizligi qoidalari osib qo'yiladi. Xonada baxtsiz xodisa ro'y berganda zarur bo'ladigan birinchi yordam vositalari dori qutisi albatta bo'lishi kerak. Dori quti yonida yaqin davolash maskanining manzili va unga borish chizmasi osib qo'yilgan jadval turishi kerak.

Kimyoviy tolalardan tayyorlangan gazlamalar. Sun'iy va sintetik gazlamalarning xossalari va ularga qo'yiladigan talablar

Tabiiy va sun'iy materiallarni murakkab kimyoviy va mexanik usullarda ishlab chiqarilgan tolalarini kimyoviy tolalar deyiladi. Tabiiy materiallardan olingan tolalar sun'iy tolalar va sintetik tolalardan olinganlari sintetik tolalar deyiladi.

Tabiiy materiallardan olingan sun'iy ipak va shisha tolalar eng ko'p ishlatiladi. Sintetik tolalarning eng ko'p ishlatiladiganlari kapron, anid, lavsan, nitron, xlorin va boshqalardan iboratdir. Kimyoviy tolalar shtapel tola ko'rinishida olinadi. Shtapel tolalardan keyinchalik jun yoki paxta aralashtirib, shuningdek, hech narsa aralashtirmay sof holda ip yigiriladi. Shtapel tolalarni turli maqsadlarda ishlatish mumkin. Shtapel oddiy toladir. Shu sababli shtapel keng miqyosda ishlatiladi.

Sun`iy ipak uch xil bo`ladi: 1) viskoza ipak; 2) mis ammiakli ipak; 3) atsetat ipak. Viskoza ipak eng ko`p tarqalgan. U yog`och tsellyulozasidan olinadi. Bunda yog`och maydalanadi, uglerod sul`fid bilan ta`sir etiladi va o`yuvchi natriyda eritma holatiga keltiriladi. Hosil bo`lgan eritmadan maxsus filtrning mayda teshiklaridan sulfat kislotasi eritmasi solingan vannaga siqib chiqariladi. Suyuqlik qismlari bu vannada qotib ingichka tolalarga aylanadi. Bu tolalardan viskoza ipagi hosil qilinadi, keyin ularni oqartiriladi va bo`yaladi.

Oddiy viskoza ipakning pishiqligi tabiiy ipakning pishiqligidan 1,5 marta kam bo`ladi. Nam holatda bu ipakning pishiqligi 60% pasayadi, ammo qurigach avvalgi pishiqligi tiklanadi. Viskoza ipak ishqor va kislotaga chidamli bo`la olmaydi.

Mis ammiakli ipakning viskozadan farqi shuki, u yog`och tsellyulozasidan emas, balki paxta momig`idan olinadi. Momiq yog` va mumsimon aralashmadan tozalanganidan keyin maxsus mis ammiakli reaktivda eritiladi. Ana shu eritma tozalanib, filtr teshiklaridan tindirish vannasiga siqib chiqarilib olinadi. Bu tolaning xossasi viskozaga o`xshaydi.

Atsetat ipak ham paxta tsellyulozasidan ishlanadi. Buning uchun paxta sellulozasiga sirka kislotasi, sirka angidridi va sulfat kislotalari aralashmasini ta`sir ettirib, atsetillyulozaga aylantiriladi. Shu yo`l bilan olingan atsetillyuloza atseton va etil spirti aralashmasida eritiladi, so`ngra filtr teshiklaridan issiq havoli kameraga siqib chiqariladi. Bu kamerada eritma bug`lanadi, atsetillyuloza esa qotib ipak hosil bo`ladi. Bu ipak viskoza va mis ammiak ipakka qaraganda ancha egiluvchan, namlanganda pishiqligi 30-35% kamayadi. U yuqori haroratga chidamsiz. Atsetat ipakning muhim xossasi – ultrabinafsha nurlarini o`tkazishidir.

Shisha tola – eritilgan suyuq shishani cho`zib, ingichkalantirib hosil qilinadi. Bu toladan bezakli gazlama va texnik maqsadlarda foydalaniladi. Shisha iplar pishiq, egiluvchan, yorug`likni yaxshi o`tkazadi, yorug`lik va olov ta`siriga yaxshi chidaydi, elektr, issiqlik, tovushni izolyatsiyalash xossalari yuqori. U o`tga va kimyoviy moddalar ta`siriga chidamli va issiqni o`zidan o`tkazadi. Bunday tolalar ximiyaviy turg`un bo`lib, faqat florit kislotada eriydi. Tolalarning gigroskopikligi past – 0,2 %.

Sintetik tolalarning asosiy hom ashyosi toshko`mir, neft, gazni qayta ishlab olingan maxsulotlar, jumladan, fenol, akril kislotasi, etilen va boshqalardir.

Sun`iy va sintetik gazlamalarga qo`yiladigan talablar. Sintetikadan tayyorlangan gazlamalarni, kiyimlarni atseton bilan tozalanmaydi. Undagi dog`larni skipidar yoki spirt bilan ketkazish mumkin. Buning eng yaxshi usuli “Zelyoniy chay”, “Ariel” kukunida 40⁰S issiqlikda yuviladi.

Sun`iy gazlamalarni pressda, manekenda dazmollanmaydi, chunki ular cho`zilib ketadi. Sun`iy va sintetik kiyimlarda quyidagi chatilgan belgilar bo`ladi.

Agar yorliqda 40⁰S ko`rsatilgan bo`lsa, kiyimni ana shu haroratda yuviladi. Sun`iy shoyilarni g`ijimlab yuvilmaydi va siqib bo`lmaydi. Dazmollashda suv sachratilmaydi, nam holda teskari tomondan dazmollanadi. Aks holda kiyim yaltirab qoladi. Sintetikani qaynatilmaydi. 80-90⁰S dan yuqori haroratda dazmollanmaydi, batareyada va oftobda quritilmaydi.

3. Yangi mavzuni mustahkamlash

O'quvchilarga mavzuni mustahkamlash uchun test tarqatiladi

1. Gazlama bilan ishlash xonasi qancha o'quvchiga mo'ljallangan bo'ladi?

- A) 25-30 nafar
- B) 12-15 nafar
- V) 20-22 nafar
- G) 18-20 nafar

2. Ish joyida sun'iy yorug'lik manbai nima?

- A) quyosh nuri;
- B) elektr energiyasi;
- V) shag'amlar;
- G) stol lampasi.

3. O'quv ustaxonasida issiqlik harorati qanday bo'lishi kerak?

- A) 30 - 31⁰S
- B) 20 - 25⁰S
- V) 34 - 35⁰S
- G) 19-21⁰S

4. Mashinalar xonada qanday joylashtiriladi?

- A) derazaga nisbatan perpendikulyar yonlamasiga;
- B) derazaga nisbatan 450 qiyalikda;
- V) derazaga nisbatan 550 qiyalikda;
- G) derazaga nisbatan 650 qiyalikda.

5. Elektr dazmolda ish boshlashdan oldin nimani tekshirish lozim?

- A) Tozalikni;
- B) Yorug'likni;
- V) Shnur izolyasiyasini;
- G) Namlikni;

6. Sintetik tola qanday tola turiga kiradi?

- A) sun'iy tola
- B) tabiiy tola
- V) ximiyaviy tola
- G) jun tola

7. Ish joyida tabiiy yorug'lik manbai nima?

- A) quyosh nuri;
- B) elektr energiyasi;
- V) shag'amlar;
- G) stol lampasi.

8. Igna, to'nog'ich, qaychi ish qurollari qayerda saqlanadi?

- A) stol ustida
- B) tikuv mashinasi oldida
- V) maxsus moslamada
- G) ish qutichasida

9. Sintetik tolalarning asosiy hom ashyosi qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan?

- A) toshko'mir va neft
- B) neft, fenol, akril kislotasi.
- V) toshko'mir, neft, gazni qayta ishlab olingan maxsulotlar
- G) toshko'mir va gazni qayta ishlab olingan maxsulotlar

10. Dazmol bilan ishlaganda oyoq tagida nima bo'lishi kerak

- A) karton
- B) maxsus moslama
- V) ko'rpacha
- G) rezina gilamcha

Test javoblari

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|----|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
| B | G | G | B | V | V | A | G | V | G |

4. Uyga vazifa berish

1. O`tilgan mavzu yuzasidan qo`shimcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzu bo`yicha 10 ta test tuzib kelish.
2. Gazlamaga ishlov berishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini o`rganish.
3. Kimyoviy tolalarning xossalari o`qib, o`rganib kelish.

21-22 –Amaliy mashg`ulot: Kimyoviy tolalarning xususiyatlarini o`rganish. Tashqi ko`rinishga qarab cho`zilishi, g`ijimlanishi, suv o`tkazish, issiqdan saqlash xossalari, yonishi.

Dars maqsadi:

Ta`limiy: O`quvchilarga kimyoviy tolalarning xususiyatlari, tashqi ko`rinishga qarab cho`zilishi, g`ijimlanishi, suv o`tkazish, issiqdan saqlash xossalari, yonishi haqida ma`lumot berish hamda ularni amalda bajarib ko`rishni o`rgatish.

Tarbiyaviy: O`quvchilarni amaliy mashg`ulotlar jarayonida e`tiborli bo`lishga, ish joyini ozoda tutishga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarda amaliy mashg`ulot natijalaridan to`g`ri xulosalar chiqara olishga va uni hayotga tatbiq eta olish ko`nikmalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: kimyoviy tolali gazlamalar xossalari aks ettiruvchi plakatlar, amaliy mashg`ulot natijalarini qayd etuvchi jadvallar, savollar banki, gazlama namunalari

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O`tilgan mavzuni takrorlash-5
3. Yangi mavzuning bayoni-10
4. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg`ulot-40
5. Yangi mavzuni mustahkamlash-5
6. Uyga vazifa berish-5

Mashg`ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o`quvchilarning mashg`ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. Amaliy ishga kerakli kimyoviy gazlama namunalari tayyorlash.

2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, o`tilgan mavzuni takrorlash.

1. Kimyoviy gazlamaning qanday turlarini bilasiz?
2. Kimyoviy gazlama qanday hosil qilinadi?
3. Nima uchun sun`iy gazlama deyiladi?
4. Nima uchun sintetik gazlama deyiladi?
5. Sun`iy va sintetik gazlamalarga qanday talablar qo`yiladi?

6. Yigiruvchi va to'quvchi kasblari haqida nimalarni bilasiz?

7. Gazlamadagi qaysi ip ko'proq cho'ziladi?

3. Yangi mavzuning bayoni.

Sintetik tolalarning ko'pchiligi nihoyatda mayin va pishiq bo'ladi. Bunday tolalardan tayyorlangan buyumlar g'ijimlanmaydi, ularni dazmollamasa ham bo'ladi, burmalari va taxlamalari yuvilgandan keyin ham saqlanib qoladi, kam kirlanadi, bo'yalgan buyumlarni rangi mustahkam bo'ladi, quyosh nuri va namlik ta'sirida (yuvilganda) aynimaydi, ob-havo, quyosh ta'siriga chidamli, chirimaydi. Kimyoviy tolalarni xohlagan yo'g'onlikda suv shimadigan va shimmaydigan qilib tayyorlash mumkin.

Kimyoviy tolalarning ayrim kamchiliklari, masalan, kam nam yutishi, elektrostatik zaryad yig'ishi, yomon bo'yalishi kimyoviy usullar bilan modifikatsiyalash yoki ularni boshqa tolalar (tabiiy va kimyoviy) bilan aralashtirish orqali bartaraf etilmoqda. Sintetik tolalar kimyoviy ta'sirlarga chidamli va mexanik pishiq bo'ladi. U tabiiy ipakdan 2 barobar pishiq. Bu tolalar engil va yuqori haroratga chidamli bo'ladi. Masalan, kapron 215⁰S, nitron 240⁰S, lavsan 250⁰S da eriydi. Lekin xlorin tolasi bundan mustasno. U 60-90⁰S haroratda yumshaydi. O'zidan havo o'tkazmaydi.

Uzilishga pishiqligi jihatidan kapron po'latdan 2,5 barobar ustun turadi. Kapron tolalar faqat konsentratsiyalangan kislotalar va fenolda eriydi. Lavsan kapronidan ustun turadi: yumshash temperaturasi 235⁰S. Alangaga tutilganda lavsan avval suyuqlanadi, so'ngra tutovchi sarg'ish alangna berib ohista yonadi. Lavsan va nitron elastik, ya'ni egiluvchanligi sababli unga boshqa xil tolalarni, paxta yoki zig'irni aralashtirib material tayyorlash mumkin.

Sun'iy va sitetik tolalarning hossalari quyidagi 1-jadvalda ifodalangan.

| Tolaning nomi | Yaltiroqligi | Jingalakligi | Pishiqligi | G'ijimlanishi | Yondirib ko'rish |
|---------------|---------------------|--------------|--|---------------|--|
| Viskoza | yaltiroq | yo'q | paxtadan past, nam bo'lsa, yana 1,5 marta pasayadi | ko'p | Yaxshi yonadi, qog'ozdek yonadi. Yonganida kul hosil bo'ladi |
| Atsetat | uncha yaltiroq emas | yo'q | paxtadan past, suvda pishiqligi 30% yo'qoladi | kamroq | Uksus hidi chiqarib yonadi, eritma hosil bo'ladi |
| Shtapel | uncha yaltiroq emas | ozgina | paxtadan past, suvni yomon ko'radi | ko'p | Yaxshi yonadi, qog'ozdek yonib, kulga aylanadi |
| Lavsan | yaltiroq emas | bor | yuqori darajada hisoblanadi | uncha emas | Qora tutun chiqarib yonadi, qattiq g'o'lakka aylanadi |
| Nitron | uncha emas | bor | suvda pishiqligini yo'qotmaydi | yo'q | Sariq tutun chiqarib vaqti-vaqti bilan yonib turadi, |
| Kapron | yaltiroq | yo'q | suvda pishiqligi ortadi | yo'q | Eritma erib qotadi. Qattiq g'o'lak hosil bo'ladi |

4. Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot

Kirish yo'riqnomasi:

Amaliy ishni bajarish tartibi tushuntirib beriladi:

1. Har bir gazlama namunaning bo'ylama ipidan 3-4 tadan sug'urib, qaysi biri yo'g'onroq ekanini aniqlanadi.
2. Har bir namunaning bo'ylama va ko'ndalang iplaridan sug'urib, ularni tortib uzib ko'rib, qaysi biri pishiqligini aniqlanadi.
3. Turli kimyoviy gazlama bo'laklari qo'lda tortilib, ularning cho'zilishi aniqlanadi.
4. Turli tolalarning tashqi ko'rinishini mikroskop ostida ko'rinishlari aniqlanadi.
5. Har bir kimyoviy gazlamalarning g'ijimlanganini, suv o'tkazishi va namni shimishi aniqlanadi va yonishdan hosil bo'lgan massa o'zaro solishtiriladi.
6. Bajarilgan ishlarning barchasini daftarga yozib boriladi, jadval to'ldiriladi va kimyoviy tolalarning xossalari bo'yicha xulosalar yoziladi.

Joriy yo'riqnoma: O'quvchilar guruhlariga bo'linib, mavzu yuzasidan kimyoviy gazlamaning turli xossalarini o'rganadilar. Ishni bajarib bo'lgan guruhlar o'zaro joy almashib, gazlamaning boshqa xossalarini o'rganadilar, ma'lumotlarni maxsus jadvalga to'ldirib boradilar. O'qituvchi ularning ishini nazorat qilib boradi. Kerakli joyda maslahatlar beradi.

Yakuniy yo'riqnoma: Joriy yo'riqnoma berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'qituvchi baholar qo'yadi (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; kimyoviy gazlama xossalarini to'g'ri aniqlay olishi va boshqalar). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlabi chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Viskoza tolasining cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazuvchanligi, namni shimishi va yonishi haqida ma'lumot bering.
2. Asetat tolasining cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazuvchanligi, namni shimishi va yonishi haqida ma'lumot bering.
3. Shtapel tolasining cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazuvchanligi, namni shimishi va yonishi haqida ma'lumot bering.
4. Lavsan tolasining cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazuvchanligi, namni shimishi va yonishi haqida ma'lumot bering.
5. Nitron tolasining cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazuvchanligi, namni shimishi va yonishi haqida ma'lumot bering.
6. Kapron tolasining cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazuvchanligi, namni shimishi va yonishi haqida ma'lumot bering.

6. Uyg'a vazifa berish:

1. Darslikdagi 11-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu yuzasidan klaster tuzish

3. Sun'iy va sintetik gazlamalarining xossalarini aniqlash uchun sidirg'a va gulli gazlama bo'laklarini jadval asosida taqqoslab aniqlashlari kerak.

23-24 – mashg'ulot: Kiyim haqida umumiy ma'lumot. Kiyimlar assortimenti va o'lchami. Kiyim tikishning asosiy bosqichlari. Qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga kiyim haqida umumiy ma'lumot berish. Shuningdek, kiyimlar assortimenti va o'lchami, kiyim tikishning asosiy bosqichlari, qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni estetik didlarini o'stirish va qo'lda tikish sifatiga, tikishning har xil usullaridan foydalanishga jalb qilish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda gavdadan o'lvohlarni to'g'ri olish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: kiyim turlaridan namunalar, turli model eskizlari, maneken, santimetr lentasi, kiyim tikish bosqichlari aks ettirilgan plakatlar, savollar banki, slaydlar va kompyuter.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga kiyim haqida umumiy ma'lumot, kiyimlar assortimenti va o'lchami hamda kiyim tikishning asosiy bosqichlari plakatlar va slaydlar orqali tushuntiriladi. Bu vaqtda o'quvchilar orasida munozara uyushtirish mumkin. Turli kiyim assortimenti modellari eskizlarini daftarga chizish orqali o'quvchilarda kiyimga gazlama va rangli to'g'ri tanlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

Kiyimlar assortimenti va o'lchami haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish jarayonida klaster usulidan foydalanish mumkin.

Dars oxirida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan eskizlar bo'yicha ko'rgazma tashkil etish tavsiya etiladi.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Kiyim - bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, tanani iqlim ta'siridan saqlaydi va odamning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qiladi.

Kiyimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. *Utilitar kiyim* - amaliy, himoyaviy, ergonomologik, gigienik vazifalarni o'z ichiga oladi.

2. *Ijtimoiy kiyim* - regional, professional marosimlarga oid simbolik vazifalarni o'z ichiga oladi.

3. *Estetik kiyim* - badiiy obrazli vazifa bilan aynan estetik vazifani o'z ichiga oladi.

Kiyim o'z navbatida maishiy va ishlab-chiqarish kiyimlariga bo'linadi.

Maishiy kiyimlarga ich kiyimlar, engil kiyimlar, ustki kiyimlar, bosh kiyimlar va qo'lqoplar kiradi. Kundalik kiyim, tantanali kiyim, uy kiyimi, sport kiyimlari. shuningdek, ich kiyimlar, cho'milish kiyimi, bosh kiyimlar kiradi.

Ich kiyim – bu bevosita odam badaniga kiyiladigan kiyimlardir, ya'ni, ich ko'ylaklar, maykalar, korset buyumlari, ostki yubkalar, tungi ko'ylaklar, chaqaloqlar kiyimlari, kalsonlar, pijamalar.

Engil kiyimlarga ich kiyim va korset buyumlari turkumidagi kiyimlar ustidan kiyiladigan kiyimlar: ko'ylaklar, bluzkalar, yubkalar, ko'ylak-kostyumlar, jaketlar, sarafanlar, erkaklar ko'ylaklari, shimlar va hokazolar kiradi.

Ust kiyimga pidjaklar, smokinglar, paltolar, yarim paltolar, po'stinlar, plashlar va kurtkalar kiradi.

Ishlab chiqarish kiyimi - xalq xo'jalagining turli sohalarida ishchi tanasini ifloslanishdan va ish jarayonidagi nomaqbul ta'sirlardan asraydigan kiyimdir. Ishlab chiqarish kiyimi maxsus, sanitariya va rasmiy kiyimlarga bo'linadi.

Maxsus kiyim – ishlayotgan kishini atrof-muhitning havfli va zararli ta'siridan, masalan, namlikdan, radioaktiv moddalardan, kislotalardan, neft-moydan, changdan, organik erituvchilardan, issiqdan, zaharli kimyoviy moddalardan, ishqorlardan, elektr tokidan va hokazolardan saqlaydi. Maxsus kiyimlarga: kurtkalar, kombinezonlar, plashlar, paxtali kurka-shimlar kiradi.

Sanitariya kiyimi – mehnat ob'ektlarini ishlovchidan o'tishi mumkin bo'lgan zararli ta'sirlardan va ishlab chiqarishdagi umumiy ifloslanishdan asraydi. Sanitariya kiyimlariga oshpazlar, tibbiyot xodimlari, bolalar bog'chalari xodimlari, oziq-ovqat bilan savdo qiluvchi sotuvchilar va hokazolar kiyimlari kiradi.

Rasmiy kiyim (forma) – harbiylar, maxsus mahkamalar xizmatchilari, temir yo'l, aviatsiya, dengiz floti, maktab o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kiyimlari. Rasmiy kiyimlarga shinel, mundir, palto, kostyum, kitel, ko'ylak, bosh kiyimlar kiradi.

Kiyimlar yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab yozgi, qishki, bahorgi-kuzgi kiyimlarga bo'linadi.

Kiyim qanday maqsadlarda kiyilishiga qarab ham bir necha turga bo'linadi: kundalik kiyim, uy kiyimi, bashang kiyim, sport kiyimi hamda jins va yosh alomatlari bo'yicha erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlariga ajratiladi.

Kiyimlar assortimenti va o'lchami

Ayollar kiyimlari assortimentiga kostyumlar, kostyum jaketlari, bluzkalar, yubkalar, ko'ylaklar, ko'ylak-kostyumlar, pal'tolar, ko'ylak-pal'tolar, xalatlar, sarafanlar, qishlik jaketlar, plashlar va hokazolar kiradi. Ayollar kostyumi jaket va yubkadan, ba'zan jaket, nimcha va yubkadan iborat bo'ladi. Ayollar kostyumi jun gazlama, koverkot, gabardin, baston, ip gazlama, triko, diagonal, rogojka, pike, zig'ir tola gazlamasi va polotnodan tikiladi. Kostyumlarning fasoni xilma-xildir. Ularning jaketi tekis bichilishi, belbog'li va belbog'siz, cho'ntakli, normal uzunlikda va uzaytirilgan xolda yubkasi har xil bo'lishi lozim.

Ommaviy tikiladigan kiyimlar: 88, 92, 96, 100, 104, 108, 116, 118, 120 razmerlarda bo'ladi. Modalar atelezi yakka buyurtmachining o'zidan o'lchovlar olib kiyim tikadi. Kiyim razmeridan tashqari uzunligi ham bo'ladi. Har bir bo'y uzunligi bir-biridan 6 smga farq qiladi. Razmer bir xil bo'lgani holda kiyimning to'laligi 3 xil bo'ladi: ozg'in, o'rta, semiz.

Qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari

Qo'l ishlari ikki rpyhga bo'linadi:

1. Tik turib bajariladigan ishlar.

2. O'tirib bajariladigan ishlar.

Tik turib bajariladigan ishlarda kiyim yoki detal stol ustiga qo'yiladi, o'tirib bajariladigan ishlar esa kiyim yoki detalni stol ustiga yoki ishchining tizzasiga qo'yib qilinishi mumkin.

Tik turib yoki o'tirib ishlayotganda gavda holatiga ahamiyat berish zarur, chunki gavda holati noto'g'ri bo'lsa, odam tez charchaydi, ish qobiliyati pasayadi va gavdaning qiyshayib qolishiga olib keladi. O'quvchi to'g'ri o'tirishi uchun oyoqlari polga yoki maxsus stulga to'la tiralib turishi kerak. Oyoqlarni chalishtirib o'tirmagan ma'qul, aks holda qon aylanishi yomonlashadi. Gavdani va boshni to'g'ri tutib yoki salgina oldinga egib turish kerak.

Tikayotgan kiyim yoki detalni ko'zdan 25 -30 sm masofada tutish kerak. Ish o'rni yaxshi yoritilgan bo'lishi, yorug'lik chap tomondan tushib turishi lozim.

Tik turib ishlaydigan o'quvchi gavdani to'g'ri va qattiq tutib turishi kerak.

Qo'l ishlarni bajarishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1) bir detaldan ikkinchi detalga bo'r chiziqlarini o'tkazish uchun nusxalama qaviqdan foydalaniladi yoki yordamchi andozani qo'yib bo'rlanadi;

2) detallarni bir-biriga vaqtinchalik qaviqqator bilan ulashda ipning rangi asosiy detal rangidan ancha farq qilishi kerak;

3) ipning uchi qaviqqator boshida tugilib, oxirida bir joyning o'ziga ikki-uchta qaviq solib puxtalanadi;

4) doimiy qaviq va qaviqqatorlar uchun ishlatiladigan ipning rangi asosiy gazlama rangiga mos ravishda bo'lishi shart;

5) petlyalarni yo'rimalashda qaviqqatorlar orasida ochiq joy qolmasligi lozim;

6) detallarni ko'klashda qaviqqator shu detaldagi nusxalama qaviqqator ustidan yoki bo'r chizig'i ustidan tushiriladi. Ko'klab bo'lgandan keyin nusxalama qaviq iplari olib tashlanadi;

7) qo'l qaviqqatorini bajarishda ishlatiladigan ip nomeri qaysi qaviq qayerda bajarilishiga qarab tanlanadi;

8) qaviq yirikligi va qaviqqator zichligi gazlamaning qalin-yupqaligiga va shu qaviqqa qo'yilgan talablarga bog'liq bo'ladi;

9) qalinligi har xil gazlamadan bichilgan detallarni ulashda yupqa gazlamadan bichilgan detalni ust tomonga qo'yish kerak.

Ish tugagandan keyin ish o'rmini yaxshilab yig'ishtirib, tozalab qo'yish zarur.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. Darslikdagi 12-mavzuni o'qib kelish.

2. O'tirib va turib bajariladigan ish o'rinlarini qiyosiy tahlil qilib kelish.

3. Kiyim assortimenti va o'lchamlari yuzasidan test tuzish.

25-26 –Amaliy mashg'ulot: Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar. Merejka usulida tikish.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalardan to'g'ri foydalanish yo'llarini va merejka usulida tikishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni estetik didlarini o'stirish va qo'lda tikish sifatiga, tikishning har xil usullaridan foydalanishga jalb qilish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda qo'l choklarini hamda dazmollash usullarini to'g'ri bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalardan namunalar, qo'l choklariga doir plakatlar, merejka usulida tikilgan buyum namunalari, slaydlar, tarqatma materiallar, savollar banki, texnologik xarita.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar plakatlar va slaydlar orqali tushuntiriladi. Bu vaqtda o'quvchilar orasida munozara uyushtirish mumkin. Turli asbob va moslama namunalari ko'rsatilib, har biridan foydalanish yo'llari izohlanadi.

Dasturxon yoki turli kattalikdagi chetki qirqimlari merejka bilan bezatilgan salftkalar namoyish qilinib, merejka tikish yo'llari tushuntiriladi. Amaliy mashg'ulot musobaqa tarzida o'tkazilishi mumkin.

Dars oxirida o'quvchilar tomonidan merejka usulida tikilgan salftkalar bo'yicha ko'rgazma tashkil etish tavsiya etiladi.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Qo'lda bajaradigan ishlar uchun zarur asboblarga tikiladigan gazlamaga to'g'ri keladigan qo'l ignalari, barmoqqa loyiq angishvona, qaychi, santimetrli lenta, andoza, bo'r yoki sovun, to'g'nag'ich va boshqalar kiradi. Ishning sifati, ishning unumi, ishlash qobiliyati va kayfiyati ko'p jihatdan asboblarni to'g'ri tanlashga bog'liq. Asboblarni kiyim tikiladigan gazlamaning va bajariladigan ishlarning xiliga qarab tanlanadi.

Qo'l ignalari o'tkir, sinmaydigan, silliq, teshigidan ip bemalol o'tadigan bo'lishi lozim. Ignalar yo'g'onligi, diametri va uzunligi, teshiklarining kattaligi bo'yicha nomerlarga (1 dan 12 gacha) bo'linadi, toq nomerli ignalar juft nomerli ignalardan uzunroq bo'ladi.

Iplar. Tikuvchilikda ishlatiladigan iplar tabiiy va sintetik tolalardan tayyorlanadi. Ishlatiladigan iplarning nomeri ham ignalar va gazlamalarga moslab tanlanadi. Yupqa ip gazlamalardan (markizet, batist, to'r) kiyim tikishda 50-80 nomerli iplar, chit, satin, flanel kabi ip gazlamalardan engil ko'ylaklar tikishda 50-60 nomerli iplar ishlatiladi. Yupqa gazlamalardan kostyum va paltolar tikishda 40-60, qalin gazlamalardan palto tikishda 30-40 nomerli iplardan foydalaniladi.

Angishvona ignani gazlamaga qadash paytida barmoqni ignadan asrash uchun xizmat qiladi. U o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi.

Qaychilar. Kiyim yakka buyurtmalar bo'yicha tikiladigan atelelarda qaychi bilan gazlamalar bichiladi, detallarning chetlari tekislanadi. qo'lda

bajariladigan boshqa operatsiyalar ham qaychi bilan amalga oshiriladi.

Santimetrli lenta yumshoq rezina lentadan iborat bo'lib, ikkala tomoni santimetr va millimetrlarga bo'lingan; u odam gavdasidan o'lchov olish va kiyim detallarini o'lchash uchun ishlatiladi.

Andozalar – karton yoki boshqa materiallardan tayyorlangan kiyim detallaridir.

Bo'rlar bichish va o'lchab ko'rishdagi chiziq hamda belgilarni gazlamaga tushirishda ishlatiladi. Tikuvchilik sanoati uchun har xil rangli bo'rlar ishlab chiqariladi. Chiziqlar ingichka chiqishi uchun bo'rnning chetlarini o'tkirlab turish kerak.

Merejka baxyasimon kashtaning eng oddiy turidan iborat. Merejka gazlamaning bo'ylama va ko'ndalangiga iplarni sug'urib olib siyraklatilgan yo'l bo'ylab tikiladi. Siyraklatilgan gazlama iplarining bir nechtasini qo'shib bog'lab, ustunchalar hosil qilinadi. Ustunchalar turli usullar bilan kashta bezagi bo'yicha oddiy ip, muline ip, iris iplarni ishlatib birlashtiradi.

Kashta tikishga har qanday polotno usulida to'qilgan gazlama ishlatiladi. Merejkalarning hammasi gardishda tikiladi. Ish chapdan o'ngga tomon yuritib tikiladi. Merejka chetlari petlya chok yoki ko'tarma tekis chok bilan puxtalanadi.

Oq va rangli ipda tikilgan dekorativ merejkalar bilan kiyimlarni, salfetkalar, poyandozlar, ich kiyimlarini bezatiladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. O'tilgan mavzu yuzasidan 10 ta test savollari ishlab chiqish.
2. Mavzu yuzasidan savol-javoblarga tayyorgarlik ko'rish.
3. Merejka usulida tikilgan namunalarni albomga yopishtirish.

27-28 – mashg'ulot: Elektr yuritmal tikuv mashinasining tuzilishi, ishlatilishi. Maxsus ish bajaradigan tikuv mashinalari.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga elektr yuritmal tikuv mashinasining tuzilishi, ishlatilishi hamda maxsus ish bajaradigan tikuv mashinalari haqida bilimlar berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni tikuv mashinasi bilan ishlash qoidalariga amal qilishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarga tikuv mashinasini ishga tayyorlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Tikuv mashinalariga doir plakatlar, slaydlar, elektr yuritmal tikuv mashinasini ishga tayyorlash texnologik xaritasi, tikuv mashinasi.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga elektr yuritmal tikuv mashinasi haqida texnika vositalaridan foydalanib qisqacha ma'lumot beriladi. Elektr yuritmal tikuv mashinasining asosiy qismlari va tuzilishi, maxsus tikuv mashinalar turlari plakatlar yoki kompyuter

orqali slaydlarda tushuntiriladi. Shuningdek, tikuv mashinasidan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari o'rgatiladi. Bu vaqtda muammoli ta'lim va aqliy xujum metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarni dars mashg'ulotiga ko'proq qiziqtirish mumkin. Tikuv mashinasini ishga tayyorlashni o'qituvchi tikuv mashinasi orqali ko'rgazmali tarzda namoyish qiladi. Bu vaqtda o'quvchilar bilan savol-javob uyushtirish mumkin.


Dars o'tish yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Elektr yuritmalı tikuv mashinasi 22-A kl PMZ mashinasi ikki qismdan: mashinaning korpusini ko'tarib turuvchi stoli va mashinaning korpusidan iborat (1-rasm) "Chayka" elektr yuritmalı tikuv mashinasi esa ko'p hollarda maxsus g'ilofli idishlarda (chamadonlarda) joylashgan bo'lib, bir necha xil tikish operatsiyalarini bajaradi (2-rasm).


Tikuv mashinasi bir necha mexanizmlardan tuzilgan. Mexanizmlar esa standart detallar yordamida yig'ilgan maxsus detallardan tuzilgan. Demak, mashina detallarini ajratish va yana yig'ish mumkin.

Tikuv mashinasi korpusi metallar qotishmasidan tayyorlangan. Elektr yuritmalı tikuv mashinasi tashqi ko'rinishidan quyidagi qismlarga bo'linadi (2-rasm):

1. Platforma (asos) qismi
2. Tayanch qismi
3. Tana (qo'l) qismi
4. Bosh qismi
5. Maxovik g'ildirak (asosiy g'ildirak)
6. Mashinaning motori
7. Oyoq tepkisi



1-rasm. 22-A kl PMZ tikuv mashinasi



2-rasm. Chamadonda joylashgan tikuv mashinasi

Motor bilan oyoq tepkisi shnur orqali birlashtirilgan. Mashinaning tana qismida val, kulachok, ip tortkich, xarakatni boshqa vallarga o'tkazuvchi detallar joylashgan. Mashinaning bosh qismiga igna mexanizmi, tepki mexanizmi va boshqa detallar o'rnatilgan.

Mashinaning tayanch qismiga baxyani mayda va yirik qilib beruvchi rostlagich, mashina platformasining tagida moki mexanizmi, gazlamani surib turuvchi mexanizm va boshqa detallar joylashtirilgan. Har bir universal mashinada asosan beshta ish bajaruvchi mexanizm bo'ladi, bular: 1) ish mexanizmi, ya'ni igna

mexanizmi; 2) moki mexanizmi; 3) ip tortkich mexanizmi; 4) surgich (gazlamani surib turadigan tishcha) mexanizmi; 5) tepki mexanizmi.

Yordamchi mexanizmlarga quyidagilar kiradi: 1) naychaga ip o'raydigan o'ragich; 2) ip yo'naltirgichlar; 3) ustki ipni taranglovchi rostlagich; 4) baxyani mayda va yirik qiluvchi rostlagich.

Elektr yuritmal tikuv mashinasining tayanch qismida baxyani mayda va yirik qilib beruvchi, zigzag tikuvchi rostlagich bor. Motorning o'qiga ip o'ragich o'rnatilgan. Naychaga ip o'ralgandan keyin mashina avtomatik ravishda ishlaydi.

Mashinaning bosh qismida elektr lampochka joylashgan. Mashinani ishga tushirish uchun knopkani bosiladi va mashina elektr toki bilan ta'minlanadi. Oyoq tepkini asta bosilsa, mashina sekin tikadi, qattiq bosilsa, tez tikadi.

Elektr mashinasining tezligi kattadir. Bu esa mehnat unumdorligini oshiradi. Elektr yuritmal tikuv mashinasida bajarilgan ish qo'lda tikishga qaraganda bir necha marta tez bitadi. Tikuvchining mehnatini va vaqtini tejaydi. Ishning sifati yuqori, yani bir tekis, chiroyli, mustahkam bo'ladi. Ana shulardan 1022 kl mashinasi bir daqiqada 1400 ta baxyani to'rlab tikadi.

Asosiy mexanizmlarning vazifasi:

1. Igna mexanizmi gazlamani teshib, ustki g'altakdagi ipni mokiga etkazib turadi va halqa hosil qiladi.

2. Moki mexanizmi ustki ipni ilib kengaytiradi hamda ostki ipni naycha atrofidan aylantiradi va chalishtiradi.

3. Ip tortkich mexanizmi bitta baxya uchun kerakli ipni ignaga va mokiga etkazib turadi hamda mokidan ipni tortib oladi.

Maxsus ish bajaradigan tikuv mashinalari

"Chayka" tikuv mashinasi siniq baxyaqator hosil qilishda mashina ignasi bir yo'la vertikal va gorizontal harakat qiladi. Ya'ni igna, o'zining vertikal harakati davomida ma'lum masofaga og'ib gorizontal harakat ham qiladi. Siniq baxyaqator 5-ta asosiy mexanizmlar (igna, moki, ip tortkich, tepki, surgich mexanizmlar) bilan birga qo'shimcha ignani og'diruvchi mexanizmni bir-biriga bog'liq harakatidan hosil bo'ladi. Maishiy mashinalarda bu baxyaqatorning chalishuvi moki orqali hosil bo'ladi.

"Chayka" tikuv mashinasi to'g'ri baxyaqator tikishi bilan birga siniq baxyaqator tikadi. Bu baxyaqator kiyim choklarini sitilmaslik uchun yo'rmalash maqsadida qo'llanishi, uchma-uch ulash choklari, bezakli qavish, parallel baxyaqatorlar yuritish, kashta tikish, to'rlarni, aplikatsiyalarni birlashtirib tikish, bir va ikki marta bukib tikish, petla yo'rmash, tugma chatish, yashirin baxyaqator yuritish, qo'sh igna yordamida parallel baxyaqatorlar yuritishi va boshqa ishlarni bajarishi mumkin. Bu chok ko'rinishi gazlama usti va ostida siniq shaklda (zigzag) bo'ladi.

Bunday choklar tikuvchi maishiy mashinalar jumlasiga "Tula", "Chayka" (Rossiya); "Lada" (Chexoslovakiya); "Veritas", "Keller" (Germaniya) tikuv mashinalari kiradi.

Rossiyaning "Chayka" tikuv mashinasi bir necha marta takomillashtirilib, o'zining qulayligi, etarli chidamligi bilan o'zini oqlagan.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. O'tilgan mavzu yuzasidan krossvord ishlab chiqish.
2. Mavzu yuzasidan savol-javoblarga tayyorgarlik ko'rish.

29-30- Amaliy mashg'ulot: Tikuv mashinalarini tozalash va moylash. Mashinadagi nuqsonlar. Parallel, zig-zak qator, mayda va yirik baxya qator tikish. Ichki kiyim choklaridan namunalar tikish.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga tikuv mashinalarini tozalash va moylash, mashinadagi nuqsonlar, parallel, zig-zak qator, mayda va yirik baxya qator tikish, ichki kiyim choklaridan namunalar tikish bo'yicha bilimlar berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni tikuv mashinasi bilan ishlash qoidalariga amal qilishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning tikuv mashinasida ishlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Tikuv mashinalariga doir plakatlar, slaydlar, elektr yuritmalik tikuv mashinasini tozalash va moylash hamda mashinadagi nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha texnologik xaritalar, tikuv mashinasi, ichki kiyim choklariga doir plakat va slaydlar.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga mashinani tozalash va moylash qoidalari plakat orqali tushuntiriladi. Bu vaqtda o'quvchilar orasida munozara uyushtirish mumkin. Mashinadagi nuqsonlarni bartaraf etish yuzasidan musobaqa uyushtiriladi. Ichki kiyim choklaridan namunalar tikish bo'yicha musobaqa tashkil etish mumkin. Bunda har bir tikuv mashinasiga 2 nafardan o'quvchini birlashtirib, ular mashinada ketma-ket tikadilar.

Parallel, zig-zak qator, mayda va yirik baxya qatorlar slaydlar yordamida namoyish qilinadi. Mashina chok turlarini bajarish amalda ko'rsatib beriladi, munozara uyushtiriladi. Dars oxirida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan mashina choklari bo'yicha ko'rgazma tashkil etish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Mashina to'g'ri ishlashi uchun uni tez-tez changlardan, iflosliklardan tozalab, o'z vaqtida moylab turish kerak.

Gazlamadan, ipdan ajralib chiqadigan chiqindilar detallarning orasiga yig'ilib boradi va detallarning normal ishlashiga xalaqit beradi. Shuning uchun mashinani har haftada bir marta tozalab turish kerak.

Ish vaqtida mashinaning qismlari orasida ishqalanish hosil bo'ladi. Shunday hollarda detallar edirilib ishdan chiqmasligi uchun ularni moylab turish kerak. Moy ishqalanish kuchini kamaytiradi. Shuning uchun bir detal ikkinchisiga ishqalanadigan joylar borki, ana shu joylarga moy tomizib turiladi. Moylashdan oldin mashina tozalansa, moy yaxshiroq singiydi.

Q Mashinani moylash quyidagi tartibda bajariladi: tikuv mashinasining tashqi qismlarini quruq latta bilan tozalanadi; mashinaning bosh qismidagi plastinka echib olinadi, ichidagi detallar va ularni birikish joylari avval chyotka bilan keyin quruq latta bilan tozalanadi. So'ng 1-2 tomchidan moy tomiziladi. Ortiqcha va oqqan moylar latta bilan artiladi va plastinka o'z o'rniga mahkamlanadi; mashinaning tana qismi tepasidagi maxsus moy teshiklaridan 1-2 tomchidan moy tomiziladi. Shuningdek, maxovik g'ildirakni ip o'ragich va baxya rostlagich mexanizmlari detallarining birikish joylari ham tozalanib moy tomiziladi; mashinaning ip taranglagich mexanizmi chyotka bilan tozalab, tartib bilan echib qo'yiladi, detallari quruq latta bilan artiladi, moyli latta bilan artib, yana tartib bilan o'rniga yig'iladi; mashinaning igna plastinasi va moki komplekti yechib olinadi. Tishli reyka va moki tepasi, oraliqlari chyotka bilan chang va mayda iplardan tozalanib, quruq latta bilan artiladi. Detailarning birikish yerlariga 1-2 tomchidan moy tomiziladi. So'ng igna plastinasi va moki komplekti qoidalil qilib o'z o'rniga yig'iladi. Ortiqcha moylar artiladi; mashinani orqaga ag'darib platforma tagi ochiladi. Moki va surgich mexanizmi detallari chyotka bilan tozalanib, quruq latta bilan artiladi, so'ngra detallar birikish yerlariga 1-2 tomchidan moy tomiziladi. Mashina oldinga ag'darilib o'z o'rniga qo'yiladi. Platforma ustidagi maxsus moy teshiklaridan ham moy tomiziladi. Ortiqcha moylar artiladi.


Mashinadagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish yo'llari

| № | Nuqsonlar | Bartaraf etish yo'llari |
|---|---------------------------------|--|
| 1 | Baxyaqator bo'sh yoki tortilgan | Avval ostki ip tarangligi tekshirilib, naycha qalpog'idagi vintni burab taranglanadi yoki bo'shatiladi. So'ng ustki ip, ip taranglagich gaykasini burab ustki ipga moslab taranglanadi yoki bo'shatiladi. |
| 2 | Iplar chalishuvi gazlama ustida | Ustki ip, ip taranglagich gaykasini burab bo'shatiladi, ostki ip, naycha qalpog'idagi vintni o'ngga burab taranglanadi. |
| 3 | Sifatsiz baxyaqator tikilishi | Chalishayotgan ip tikilayotgan gazlamalar orasida bo'lishi kerak. Iplar gazlamaning ustida yoki tagida bo'sh chalishsa, ipning tarangligini sozlash kerak. |
| 4 | Gazlamaning yomon surilishi | Surgich mexanizmidagi maxkamlovchi vint bo'shab qolsa, surgichning holati o'zgaradi yoki surgichni tishchasi singan bo'lsa, gazlama yomon suriladi. Gazlamani tortib tiksa ham baxya har xil tikiladi. |
| 5 | Igna sinishi | Igna noto'g'ri o'rnatilsa, tepki bo'shab qolsa, tikishda gazlamani qattiqroq tortib yuborilsa, igna kurt bo'lsa, uning va ipning yo'g'on-ingichkaligi gazlamaning qalin yupqaligiga mos bo'lmas, igna sinadi. |
| 6 | Ustki ipning uzilishi | Ustki ipning tarangligi ko'p bo'lsa, uning yo'g'on-ingichkaligi igna va gazlamaga mos kelmasa yoki o'zi sifatsiz bo'lsa, u uziladi. Ip hamma yo'naltirgichlardan ravon o'tishi kerak. |
| 7 | Ostki ipning uzilishi | Ostki ipning uzilishi kamroq bo'ladi, chunki bu ip kamroq detallarga ishqalanadi va uning sifati saqlanadi. Agar naycha qiyshiq bo'lsa, undan ip tekis chiqmaydi, shuning uchun ham ip uziladi. Mokidagi ipning yo'nalishi tepadan pastga qaratib o'rnatilmasa ham ip uziladi. |
| 8 | Mashinaning ip tashlab tikishi | Igna kurt, qiyshiq yoki nomeri to'g'ri tanlanmagan bo'lsa, mashina ip tashlab tikadi. Igna mokiga nisbatan to'g'ri qo'yilmasa, xomutik |

| | | |
|----|------------------------------------|--|
| | | vinti orqali igna sterjenini ko'tarish yoki tushirish kerak. Ignaning uchi moki ilmog'idan 2 sm pastda turishi lozim. Biriktiruvchi zvenolarni maxkamlab qo'yish zarur |
| 9 | Mashinaning og'ir yurishi | Igna plastinasi tagini chyotka bilan tozalash kerak. Moki komplektini ochib, korpus ichini va har bir detalni kirdan tozalash kerak. |
| 10 | Maxovik g'ildirak aylanmay qolishi | Maxovik g'ildirak o'qi va moki uyasini tekshirilib, ıplardan tozalash kerak. |

Ichki kiyim choklaridan namunalar tikish

Qo'sh chok (3-rasm, e) kiyimlar, choyshablar, shuningdek, ip gazlamadan engil bolalar kiyimini tikishda ishlatiladi. Bunday chok tikish uchun detallar oldin teskarisini ichkariga qilib qo'yiladi va 0,3-0,4 sm ichkaridan biriktirma chok bilan tikiladi, so'ngra tikilgan detallar ag'darilib, o'ngini ichkariga qaratib qo'yiladi, chok to'g'rilanadi hamda detallar chetidan 0,5-0,7 sm ichkaridan baxyaqator yuritiladi.



3-rasm. Ichki kiyim choklaridan namunalar

Ichki choklar (3-rasm, j) ich kiyimlar, maxsus kiyimlar va astarsiz kostyumlar tikishda ishlatiladi. Tayyor chokning eni 0,5-0,7 sm. Bunday chokni tikish uchun ikki detal o'ngini ichkariga qilib qo'yiladi, ostki detalning qirqimi tayyor holdagi chok eniga 0,3-0,5 sm qo'shilgan masofaga chiqariladi, ostki detalning qirqimi ustiga qayriladi va qirqimdan 0,1-0,2 sm ichkaridan biriktirib tikiladi. So'ngra detal ikki tomonga yoyiladi, chok kichik qirqimni berkitadigan qilib qayriladi va shu qayrilgan chetidan 0,1-0,2 sm masofada ikkinchi baxyaqator yuritiladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. O'tilgan mavzu yuzasidan 10 ta test savollari ishlab chiqish.
2. Mavzu yuzasidan savol-javoblarga tayyorgarlik ko'rish.

31-32-mashg'ulot. Milliy liboslardan ko'ylak va uning turlari haqida ma'lumot. Gavdadan o'lchov olish va yozish. Hisoblash formulasi

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga milliy liboslardan ko'ylak va uning turlari, gavdadan o'lchov olish va yozish hamda hisoblash formulasi haqida bilimlar beriladi.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni did bilan kiyinishga amal qilishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda doimo kiyim modellarini vazifasiga qarab kiyinish yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Vazifasiga qarab turli-tuman kiyim modellari va gavdadan o'lchov olish yuzasidan plakatlar,

slaydlar, kiyim namunalari, kompyuter, maneken, santimetr lenta, elka uchun moslama.

Dars o`rinish yuzasidan metodik tavsiyalar

O`quvchilarga milliy kiyimlarning turli model eskizlari plakatlari va slaydlar orqali tushuntiriladi. Bu vaqtda o`quvchilar orasida munozara uyushtirish mumkin. Milliy kiyimlar modellari eskizlarini daftarga chizish orqali o`quvchilarda kiyimga gazlama va rangli to`g`ri tanlash ko`nikmalari hosil qilinadi.

Milliy ko`ylak uchun kerakli o`lchovlarni gavdadan olish ketma-ketlikda slayd orqali tushuntiriladi.

Dars oxirida o`quvchilar tomonidan tayyorlangan eskizlar bo`yicha ko`rgazma tashkil etish mumkin.

Dars mashg`uloti yuzasidan nazariy ma`lumotlar

O`zbekcha milliy ko`ylaklar o`zining sipoligi, ko`rkamligi qulayligi va hammabopligi bilan ajralib turadi. Milliy ko`ylaklar zamonaviy modaga muvofiq tarzda rivojlanib boradi. Etagi yaxlit, yuqori qismi koketkali ko`ylak milliylik ramzi bo`lgani uchunгина emas, balki, asosan iqlim xususiyatlariga, tevarak-atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to`g`ri keladigan ratsional shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi. Ayollar ko`ylagidagi yorqin ranglar mutanosibligi o`lkamiz tabiatiga monand tushgan bo`lib, shaklining erkinligi va bemalol tushib turishi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi, chunki bunda kiyim tagi qatlamida havoning tabiiy ventilyatsiyasi mavjud bo`ladi. Shu bilan birga o`zbekcha milliy ko`ylaklarning badanga bevosita tegib turadigan qismi – koketkaning astari (toqisi) odatda ip gazlamalardan tikiladi, bu esa ko`ylakni sun`iy gazlamalardan ham tikish imkoniyatini beradi. Koketkalarining uzunligi va shakli (oval, to`g`ri to`rtburchak, burchakli, murakkab), ko`ylak uzunligi va shakli (to`g`ri to`rtburchak va trapetsiyasimon), va shakl hosil qilish usullari (burmalar, taxlamalar, plisse, gofre, qiya bichiq, klyosh, qiyiq bo`laklar), eng uzunligi, shakli va bichimi (o`tqazma, reglan, yaxlit bichilgan) o`zgarib bormoqda. Yoqa turlari (inglizcha klassik, sholsimon, tik, qaytarma, yaxlit bichilgan va hokazo) va yoqa o`mizining shakllari nihoyatda ko`p xilma-xil. Ko`ylakning bo`yi, ya`ni koketkadan pastki qismi to`g`ri enlardan tikilishi sababli gazlamaning gullari ko`ylakda butunligicha saqlanadi va ko`ylak chiroyli chiqadi. Ko`krak burmali to`g`ri ko`ylak to`la xotin-qizlarga ham, ozg`in va nozik gavdali xotin-qizlarga ham yarashadi.

Milliy ko`ylaklarda kashta, qo`yma burma, kant, mag`iz, biser va boshqa ko`pgina bezak turlaridan foydalaniladi. Ishlatiladigan materiallari turi, naqshlar echimi moda yo`nalishiga bog`liq bo`ladi, lekin an`anaviy xonatlas har doim bir xilda keng ishlatiladi. Xonatlas ko`ylaklarni bichishda uning rasmi to`g`ri tushishiga e`tibor berilishi kerak.

Hozirgi paytda ayollarning milliy o`zbekcha ko`ylagida ma`lum o`zgarishlar bo`lmoqda. Ko`ylak gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi qisqarmoqda. Koketka, yoqa, engllarning katta-kichikligi va shakliga ko`pgina omillar, shu jumladan moda ta`sir etmoqda. Hozirgi o`zbekcha ko`ylakda turli bezaklar, qo`yma burmalar, aylana burmalar, plisse va h.k. ishlatiladi.

Gavdadan o'lchov olish va yozish

Kiyimni to'g'ri tikish uchun o'lchovlar gavdadan to'g'ri olinishi kerak. O'lchovi olinayotgan kishi o'zini erkin tutib tik turishi lozim. O'lchov olishda xato qilinsa, andozaning chizmasi to'g'ri chiqmaydi, gazlama noto'g'ri bichilib, kiyim xunuk bo'lib qoladi. O'lchovi olinayotgan kishining gavda tuzilishiga ahamiyat berish zarur. Chunki hammaning bo'y-basti baravar emas. O'lchov olish uchun santimetrli lenta, qalam va qog'oz kerak. Uzunlikni, ya'ni bo'yni ko'rsatuvchi o'lchovlarning hammasi to'la yoziladi. Aylanalarni ko'rsatuvchi o'lchovlar va kenglik o'lchovlarining yarmi yoziladi. O'lchovlar quyidagicha olinadi.

1. **Bo'yin aylanasi - B₁A.** Santimetrni bo'yinning ettinchi umurtqa pog'onasi nuqtasi orqali bo'yin asosidan o'rab olib o'lchanadi.

2. **Ko'krak aylanasi - KA.** Bu kiyimning razmerini belgilaydigan asosiy o'lchovdir. Santimetr lentasi orqada kurakning turtib chiqib turgan joyidan o'tib, ikkala qo'ltiq tagidan o'tkazilib va ko'krak ustidan gorizontol ravishda aylantirib o'lchanadi.

3. **Bel aylanasi - B₁A.** Belning eng xipcha joyidan aylantirib o'lchanadi.

4. **Bo'ksa aylanasi - B₁A.** Ikkala sonning eng ko'p chiqib turgan joyi - beldan 18-20 sm pastdan gorizontol ravishda aylantirib o'lchanadi.

5. **Orqa kurak kengligi - O₁K.** Uni o'ng qo'lning tana bilan birikkan joyidan chap qo'lning gavdaga birikkan joyini topib santimetr lentani kurak ustidan o'tkazib o'lchanadi. Bu o'lchov kenglik bo'lgani uchun yarmi yoziladi.

6. **Old kenglik - O₁K.** Santimetr lentasi ko'kraklar usti bilan qo'lgacha bo'lgan oraliqdan gorizontol ravishda o'tadi.

7. **Elka kengligi - E₁K.** Uni elka uzunligi desa ham bo'ladi, chunki elka kengligi to'liq yoziladi.

8. **Ko'krak oraligi - KO.** Ikki ko'krak orasi o'lchanib, yarmisi yoziladi va KO deb belgilanadi.

9. **Orqa bo'lak belgacha uzunligi - O₁BU.** Ettinchi umurtqa pog'onasidan belgacha vertikal ravishda o'lchanadi.

10. **Kiyimning uzunligi - KU.** Ettinchi umurtqa pog'onasidan zarur uzunlikkacha o'lchanadi.

11. **Ko'krak balandligi - KB.** Bo'yinning yelka bilan birikkan joyidan ko'krakkacha o'lchanadi.

12. **Engning uzunligi - EU.** Santimetr lenta yordamida yelka bo'g'imidan sal bukilgan tirsak orqali qo'l panjasigacha o'lchanadi.

13. **Elka qiyaligi uzunligi - E₁Q.** Belning umurtqa pog'onasi nuqtasi holatidan elka bo'g'imigacha qiya o'lchanadi.

14. **Elka aylanasi - E₁A.** Qo'lning eng yo'g'on joyidan aylantirib o'lchanadi.

O'lchovlarni gavdaga mos qilib olish kerak. Kiyimning to'kisligi uchun qo'shiladigan haq kiyimning fasoniga bog'liq bo'lib u qo'shimcha deyiladi va "Q" bilan belgilanadi. Qo'shimcha haqni 2 sm dan 6 sm gacha olish mumkin, u hisoblash jadvalini to'ldirishda qo'shiladi. Bichish vaqtida andozaning chetidan chok haqi qoldiriladi.

| № | O'lovning belgisi | O'lovning nomi | Standart o'lov | Mening o'lovim |
|----|---------------------|-----------------------------------|----------------|----------------|
| 1 | B _n A YA | Bo'yin aylanasining yarmi | 16.5 | |
| 2 | KAYA | Ko'krak aylanasining yarmi | 44 | |
| 3 | B _l A YA | Bel aylanasining yarmi | 34 | |
| 4 | B _k A YA | Bo'ksa aylanasining yarmi | 48 | |
| 5 | O ₁ K | Orqa kurak kengligi | 17 | |
| 6 | O ₂ K | Old kenglik | 18 | |
| 7 | E ₁ K | Elka kengligi | 12.5 | |
| 8 | KO | Ko'kraklar oralig'ining yarmi | 9 | |
| 9 | O ₁ BU | Orqa bo'lakning belgacha uzunligi | 36 | |
| 10 | KU | Kiyimning uzunligi | 96 | |
| 11 | KB | Ko'krak balandligi | 20 | |
| 12 | YEU | Yengning uzunligi | 56 (18) | kalta |
| 13 | YE ₁ Q | Yelka qiyaligi uzunligi | 37 | |
| 14 | YE ₁ A | Yelka aylanasi | 26 | |

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. O'tilgan mavzu yuzasidan krossvord tuzish.
2. Turli vazifalarga mo'ljallangan kiyim modellari eskizlarini chizish.
3. Har bir o'quvchi o'z razmeriga olgan o'lovlarini jadvalga to'ldirib kelish.

33-34-mashg'ulot: Ko'ylak asos chizmasini chizish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga ko'ylak asos chizmasini chizish yuzasidan bilimlar beriladi.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni ko'ylak asos chizmasini chizishda tez va sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda yoshiga mos keladigan ko'ylak modellari tanlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'ylak asos chizmasi plakati, slaydlar, kiyim namunalari, masshtab chizg'ich, o'quv qurollari, savollar banki, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar


O'tilan mavzuni takrorlashda klaster usulidan foydalanish mumkin. Texnika vositalaridan foydalanib turli ko'ylaklar va milliy kiyimlar eskizlari namoyish qilinadi. Bu ko'ylak asos chizmasini qurish uchun hisoblash jadvali tuziladi, jadval asosida buyum chizmasini o'qituvchi doskada masshtab 1:1da, o'quvchilar esa daftarda masshtab 1:4 da quradilar. Chizish davomida o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini nazorat qilib turadi. Xato va kamchiliklarni yo'l-yo'lakay bartaraf etib boradi. Chizma chizish bosqichlari kompyuterda ko'rsatib turiladi. Dars davomida o'quvchilarni darsga qiziqtirib turish maqsadida aqliy hujum metodidan foydalaniladi.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar


Ko'ylak chizmasini chizish uchun hisoblash jadvali tuzib chiqiladi va shu asosda buyum chizmasi chiziladi.

Hisoblash jadvali

| No | Chizmadagi kesmalar | Hisoblash formulasi | Standart o'lchov | Mening o'lchovim |
|--|---------------------------------|---|------------------|------------------|
| To'r qismi (4-rasm) | | | | |
| 1 | $B_n E$ | KU | 96 | |
| 2 | $B_n B_{n1}$ | $KAYA + (2 + 4)$ | 48 | |
| 3 | $B_n B_1$ | $O_r BU$ | 36 | |
| 4 | $B_n K$ | $KAYA : 3 + 5 = 44 : 3 + 5$ | 19,7 | |
| 5 | KK_2 | $KAYA : 3 + 3 = 44 : 3 + 3$ yoki $O_r K$ | 17,5 | |
| 6 | $K_2 K_3$ | $KAYA : 4 = 44 : 4$ | 11 | |
| 7 | $K_2 K_4 = K_4 K_3$ | $K_2 K_3 : 2 = 11 : 2$ | 5,5 | |
| 8 | $B_1 B_k$ | Doimiy o'lchov 16 smdan 18 smgacha | 16 | 16 |
| Orqa bo'lagini chizish (4-rasm) | | | | |
| 9 | $B_n B_{n2}$ | $B_n AYA : 3 + 0,5 = 16,5 : 3 + 0,5$ | 6 | |
| 10 | $B_{n2} B_{n3}$ | $B_n B_{n2} : 3 = 6 : 3$ | 2 | |
| 11 | $B_1 E$ | $YE_1 Q + B_{n2} B_{n3} = 37 + 2$ | 39 | |
| 12 | $B_{n3} E_1$ | $YE_1 K + 1,5 = 13 + 1,5$ | 14,5 | |
| 13 | $B_{n3} V$ | $B_{n3} E_1 : 3 = 14,5 : 3$ | 4,8 | |
| 14 | vv_1 | $7 + 8$ | 7 | 7 |
| 15 | vv_2 | Doimiy o'lchov | 1,5 | 1,5 |
| 16 | $K_2 b$ | $K_2 A : 4$ | 5 | |
| 17 | $K_2 l$ | Doimiy o'lchov bissektrisasi | 2,5 | 2,5 |
| Old bo'lagini chizish (4-rasm) | | | | |
| 18 | $K_1 B_{n4}$ | $KAYA : 2 = 44 : 2$ aniqrog'i KB | 22 | |
| 19 | $B_{n4} B_{n5} = B_{n4} B_{n6}$ | $B_n AYA : 3 + 0,5 = 16,5 : 3 + 0,5$ | 6 | |
| 20 | OO_1 | Doimiy o'lchov | 1,5 | 1,5 |
| 21 | AA_2 | $K_2 A : 4 (B_{n5}$ nuqta A_2 bilan tutashiriladi) | 5 | |
| 22 | $B_{n5} B_{n7}$ | Doimiy o'lchov | 4 | 4 |
| 23 | $K_1 K_5$ | KO | 9 | |
| 24 | $B_{n7} B_{n8}$ | $KAYA : 8 = 44 : 8$ | 5,5 | |
| 25 | $B_{n7} K_5 = K_5 B_{n8}$ | Vitachka tomonlari tenglashtiriladi | 21 | |
| 26 | $B_{n8} E_2$ | $YE_1 K - 4 = 13 - 4$ | 9 | |
| 27 | $E_2 E_3$ | Doimiy o'lchov | 1,5 | 1,5 |
| 28 | | E_3 nuqta B_{n8} bilan birlashtiriladi | | |
| 29 | $K_3 b_1$ | $K_3 A_1 : 4$ | 5 | |
| 30 | $K_3 l_2$ | Doimiy o'lchov | 2,5 | 2,5 |
| Yeng chizmasi (5-rasm) | | | | |
| 31 | AE | YEU | 56 | |
| 32 | AA_1 | $YE_1 A + (5 + 6) = 26 + 6$ | 32 | |
| 33 | AO | $K_4 X - 2,5$ ($K_4 X$ asos chizmasidan olinadi) | 13,5 | |
| 34 | $Aa_1 = a_1 a = aa_2$ | $AA_1 : 4 = 32 : 4$ | 8 | |
| 35 | AT | YEU (kalta) | 18 | |
| 36 | | Yeng chizmasining qolgan qismi 5-rasmdagidek bajariladi | | |



4-rasm. Ko'ylakning asos chizmasi



5-rasm. Yeng chizmasi

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda o'z razmeri uchun hisoblash jadvalining "Mening o'lchovim" bo'limini to'ldirib, ko'ylak asosi va eng chizmalarini masshtab 1:1 da o'z o'lchovida chizish topshiriladi.

35-36-mashg'ulot: Ko'ylakni va bo'yin o'mizini modellashtirish hamda andoza tayyorlash

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga ko'ylakni va bo'yin o'mizini modellashtirish hamda andoza tayyorlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni ko'ylakni va bo'yin o'mizini modellashtirish hamda andoza tayyorlashda tez va sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda yoshiga mos keladigan ko'ylak modellarini tanlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'ylakni va bo'yin o'mizini modellashtirish hamda andoza tayyorlash ko'rsatilgan plakatlar, slaydlar, kiyim namunalari, o'quv qurollari, savollar banki, kompyuter.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar


Ko'ylakni va bo'yin o'mizini modellashtirish turli ko'rinishlarini bajarish tartibi slaydlar orqali tushuntiriladi. So'ngra o'quvchilar o'z daftarlarida modellashtirish jarayonini bajaradilar. Bunda o'quvchilar ishini nazorat qilib turish kerak. Ko'ylak andozalarini tayyorlash uchun o'quvchilar andoza qog'ozlaridan foydalanadilar. Avval buyumning chizmasini masshtab 1:1 da chizadilar, so'ngra buyumning andozasini tayyorlaydilar, ya'ni har bir detalda chok haqlarini, kertimlarini qo'yib chiqadilar. Andozani qoidali qilib to'ldiradilar, ya'ni andozada

buyumning nomi, razmeri, buyum detalining nomi, detalning soni yoziladi va andoza qirqib olinadi. O'quvchilar bu ishlarni bajarayotganlarida o'qituvchining nazoratida bo'ladilar.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Modellashtirish. Modellashtirish – bu turli shakl va bichimdagi kiyim modelining loyihalasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Moda so'zi shaklni o'zgartirish demakdir. Model chiziqlarining hammasini loyihalash asosining chizmasida xuddi model rasmidagidek joylashtirilishi kerak (6-rasm). Bunda ayolning gavda tuzilishining xususiyati, uning mutanosibligi albatta hisobga olinishi kerak. Bu loyihalash asosining chizmasiga tushirilgan fason chiziqlari gavdaning haqiqiy mutanosibligini buzib qo'ymasligi uchun kerak. Asosiy chiziqlar, siluet chiziqlar, konstruktiv va dekorativ chiziqlar kiritish bilan asosiy andozaning chizmasidan boshqacha andoza chizmalari hosil bo'ladi.

Konstruktiv chiziqlar yon chok, old chok, bel, elka, eng choklari va vitochkalar kiradi. *Dekorativ* chiziq'larga mayda va yirik taxlamalar, burmalar, to'rlar, qiya adiplar, bezak va bantlar kiradi. Konstruktiv chiziqlar dekorativ chiziqlarning vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, yoqa, cho'ntak, belbog'ni kiritish bilan kiyim moeli o'zgaradi. *Siluet* chiziqlari moda ta'sirida o'zgarib boradi. Siluet chiziqlariga asosan elka, bel va etak chiziqlari kiradi. Etak chizig'i gavdaning nisbatini aniqlaydi. *Kompozitsiya* chiziqlari deganda siluet, nisbatlar, gazlamaning rangi, tanlangan fason tushuniladi. Shularning hammasi hisobga olingan holda tikilgan kiyim kompozitsiyasi to'g'ri yaratilgan deb ataladi.



6-rasm. Bo'yin o'yindilarni modellashtirish

Fasonga binoan detalning yangi shaklini detal andazani shartli bo'laklarga bo'lib, keyin u bo'laklarni surib asosiy vitochkalarni berkitish va ularni yangi holatga ko'chirish yo'li bilan hosil qilinadi. Milliy ko'ylakda koketkaning, yoqaning fasonini o'zgartirish yo'li bilan ko'ylakning fasonini har xil qilish mumkin. Asosiy chizmaga yangi moda chiziqlarini kiritish orqa va old koketkalari chiziqlarini kiritish.

Bo'yin o'yindisini modellashtirib bo'lingach, milliy ko'ylakning koketkasini

hosil qilinadi va andozalar komplekti, old va orqa etak qismlari, old va orqa koketkalar hamda yeng andozalari tayyorlanadi. Ular kerakli tartibda to'ldiriladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda istalgan modeldagi milliy ko'ylakning andozalar komplektini masshtab 1:1 da chizish topshiriladi.

37-38-mashg'ulot: Andozani gazlamaga joylashtirish va bichish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga andozani gazlamaga joylashtirish va bichishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni amaliy ishni bajarish vaqtida tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda andozani gazlamaga joylashtirish va bichish yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: andozani gazlamaga joylashtirish va bichish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, milliy ko'ylak namunalari, o'quv qurollari, savollar banki, kompyuter.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bichish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, andozalarni turli kenglikdagi gazlamaga joylashtirish yuzasidan musobaqa tarzida amalga oshirish mumkin. Dars yakunida guruhlar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhni yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Gazlamani tejamliroq ishlatilishi uchun ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak. Masalan, guli bir tomonga qaragan yoki tukli gazlamalarni bichishda, andozalarni shunday joylashtirish kerakki, kiyim tikilgandan keyin ham uning bo'laklaridagi gullar yoki tuklar bir tomonga qaragan bo'lsin. Gulsiz sidirg'a gazlamalarni bichishga tayyorlash uchun, andozalarni qarama-qarshi joylashtirsa ham bo'ladi.

Andozalarni gazlamaning tanda va arqog'i yo'nalishiga moslab joylashtirishning nihoyatda katta ahamiyati bor, chunki gazlama o'rish yo'nalishida kam cho'ziladigan bo'ladi.

Andozalar gazlama ustiga qanchalik zich joylashsa, bichish jarayonida gazlamalardan shunchalik kam chiqindi chiqadi. Shuning uchun andozalarni yaxshilab zich joylashtirish gazlamalarni tejashdagi asosiy omillardan hisoblanadi.

Gazlama sidirg'a bo'lsa, chiqindi kamroq, guldor yoki tukli bo'lsa, ko'proq chiqadi, chunki tukli yoki guldor gazlamalar uchun andozalar joylashtirishda kengaytirib bo'rlash kabi qator shartlarni hisobga olish kerak. Andozalarni zichroq joylashtirish uchun, oldin katta bo'laklarni qo'yib, ular orasiga mayda bo'laklar joylashtiriladi. Mayda bo'laklar ko'proq bo'lishi uchun ba'zi bo'laklarga (ostki yoqa, adip va boshqalarga) uloq beriladi.

Chiqindi kamroq bo'lishi gazlamaning enlik-ensizligiga, shuningdek, to'shama qanday usulda to'shalganiga ham bog'liq bo'ladi.

Ko'pchilik gazlamalar yuvilgandan so'ng kirishadi. Shunda kiyim yuvilgandan keyin kichkina bo'lib qolmasligi uchun unga birlamchi ishlov beriladi.

Ko'ylakli jun gazlamalarni namlangan gazlama orqali dazmollab olinadi. Dazmollash bo'ylama iplar yo'nalishida bajariladi.

Krepli gazlamalarning ustiga suv sachratiladi va choyshabga o'rab qo'yiladi. Bir necha soatdan keyin teskari tomonidan o'rta issiq dazmol bosiladi.

Ip gazlamalarni iliq suvga botirib olinadi. Qurigach issiq dazmol bilan dazmollanadi.

Sintetik gazlamalarga va duxobalarga ishlov berilmaydi. Ba'zi gazlamalarga suv sachratib bo'lmaydi, chunki ular dog' bo'lib qoladi. Shuning uchun ularning kichik bir namunasini tekshirib ko'rib, keyin ishlov berish kerak.

Bichishga mo'ljallangan gazlama ko'rikdan o'tkaziladi, nuqsonlari aniqlanadi, dekatirovka qilinib (suv purkab yoki namlab) dazmollanadi.

Andozalar gazalama ustiga joylashtirilgach bo'rlanadi. Bo'r chizig'i qalinligi 1-2 mm dan oshmasligi kerak.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan krossvord tayyorlab kelishni topshirish mumkin.

39-40-mashg'ulot: Bichiq bo'laklariga ishlov berish. Birinchi kiydirib ko'rish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga bichiq bo'laklariga ishlov berish hamda birinchi kiydirib ko'rishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni bichiq bo'laklariga ishlov berish hamda birinchi kiydirib ko'rishda tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda ko'ylakni turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali quollar: bichiq bo'laklariga ishlov berish hamda birinchi kiydirib ko'rish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slydlar, milliy ko'ylak namunalari, o'quv qurollari, savollar banki, kompyuter.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bichiq bo'laklariga ishlov berish hamda birinchi kiydirib ko'rish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni amaliy ish bajarish vaqtida ularga kiriy, joriy va yakuniy yo'llanmalarni berib borish, ishlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilib borish zarur. Dars yakunida o'quvchilar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va to'g'ri, tez va sifatli bajargan o'quvchilarga yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Koketkalarining o'rta chiziqlari hamda old va orqa bo'laklar etak qismlarining o'rta chiziqlari, yeng boshi chizig'ining yuqori nuqtasi sirma qaviqlar bilan tikib

belgilab qo'yiladi. Oldi va orqa koketkalar o'ngini ichkariga qaratib ustma ust qo'yib yelka qirqimlari bo'yicha avval qo'lda ko'klab olib, keyin mashinada 1,0 santimetr chok haqi bilan birlashtiriladi. Ko'klov iplari olib tashlanib, choklar yorib dazmollanadi. Orqa va oldi bo'lak etak qismlarini o'ngini ichkariga qaratib qo'yib yon qirqimlari chetidan 1-1,5 sm tikiladi. Tikilgan yon qirqimlari (orqa bo'lakka) qaratib dazmol qilinadi. Orqa va old etak qismining yuqori qirqim chetlaridan 0,5 sm ichkarida mashinada birinchi bahyaqator yuritiladi. Bahyaqatordan 0,7 sm ichkaridan ikkinchi bahyaqator yuritiladi, ikkala bahyaqatorlarning ostki iplari tortiladi va burmalar tekislanadi. Old va orqa etak qismlarning yuqori qirqimlari o'ngini koketkalarining o'ngiga qaratib ko'klab olinadi.

Ko'ylakni birinchi kiydirib ko'riladi. Koketka uzunligi, kengligi, elkalari, eng va yoqa o'mizlari joyida bo'lsa, yaxshi. Kamchiligi bo'lsa, tuzatish, elkalarini ko'tarish yoki tushirish, koketka uzunligini to'g'rilash va hokazolar bajariladi. Ko'ylakni birinchi kiydirib ko'rishda tuzatilgan qo'l choklari ustidan mashina baxyaqatorlar tikib chiqiladi. Yengning qirqimlari 1,0 santimetrli chok haqi bilan birlashtirib tikiladi va yo'rmaladi. Yengning yuqori qirqimlari bo'yicha ham belgilangan oraliqda baxyaqator yurgizib burmalanadi. Yeng boshi qirqimining yuqori nuqtasi yelka chokiga, yengning pastki choki yon chokka to'g'rilanib, to'g'nog'ichlar bilan qadab olinadi. Yeng avval qo'lda ko'klab birlashtiriladi va yana ikkinchi marta kiydirib ko'riladi. Kamchiliklar bo'lmasagina ko'ylakning qolgan bo'laklari tikiladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan texnologik xarita tuzib kelish topshiriladi.

41-42-mashg'ulot: Bo'yin o'miziga ishlov berish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga bo'yin o'miziga ishlov berishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni bo'yin o'miziga ishlov berishda tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda bo'yin o'miziga turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: bo'yin o'miziga ishlov berish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, milliy ko'ylak namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar


Bo'yin o'miziga ishlov berish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, bo'yin o'miziga ishlov berish va ularni bezashda turli xil bezak detallaridan foydalanib turlicha bezash yuzasidan musobaqa tarzida amalga oshirish mumkin. Dars yakunida guruhlar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhni yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar


Yoqasi yo'q engil kiyimlarda bo'yin o'miziga bir nechta usullarda ishlov

berilishi mumkin: adip bilan, mag`iz chok bilan, oddiy va beykalar bilan.

Eng ko`p qo`llaniladigani *adip bilan ishlov berish* quyidagicha bajariladi (7-rasm):



7-rasm. Adip bilan ishlov berish




8-rasm. Mag`iz bilan ishlov berish

Bo`yin o`mizi shaklida bichilgan adipning ichki qirqimlari 0,5-0,7 sm bukib, universal mashinada tikiladi yoki maxsus mashinada yo`rmladi. Tayyor adip o`ngini kiyimning o`ngiga qaratib, o`miz chetiga qo`yiladi va 1,0 sm kenglikdagi ag`darma chok bilan tikiladi. Chok haqiga bir oz kertimlar berib yuboriladi. Adip kiyimning teskarisiga ag`darib o`tkazib, ag`darma chok to`g`rilanadi va keyin adipga bostirma chok bilan tikiladi. Bunda baxyaqator ag`darma chokdan 0,2-0,3 sm masofada o`tadi. Adipning ichki ziylari qo`lda qaviq solib yoki yashirin baxyali maxsus mashinada puxtalab chatib qo`yiladi.

Bo`yin o`miziga *mag`iz chok bilan ishlov berish* quyidagicha bajariladi (8-rasm):

Bo`yin o`miziga qo`yiladigan mag`iz tanda ipiga 45° qiyalatib bichiladi. Mag`iz o`ngi pastga qaratib, bo`yin o`mizining o`ngi ustiga qo`yiladi va 0,5-0,7 sm kenglikdagi ag`darma chok bilan tikiladi. Mag`izni o`miz atrofiga o`rab, kiyim teskarisiga o`tkaziladi, chok to`g`rilanadi va kiyim o`ngidan ag`darma chok yonidan baxyaqator yuritiladi (8-rasm, a). Ikkala qirqimi yopiq mag`iz bilan ishlov berishda mag`izning o`ngi kiyim o`ngiga qaratib qo`yiladi va 0,5 sm kenglikda ag`darma chok bilan tikiladi, mag`izning o`miz atrofiga o`rab, kiyim teskarisiga o`tkaziladi, ikkinchi qirqimi ichiga 0,5 sm bukib, mag`izning ziylari birinchi chokni yopadigan qilib to`g`rilanadi va ko`klab olinadi, so`ngra kiyimning o`ngidan ag`darma chokining yonidan baxyaqator yurgiziladi (8-rasm, b).

Bo`yin o`miziga *planka bilan ishlov berish* (9-rasm, a):



9-rasm. Bo`yin o`miziga ishlov berish usullari

Plankaning shakli bo`yin o`mizi shaklida bichib olinadi va uning o`ngi kiyimning teskari tomoniga qaratib qo`yiladi hamda ag`darma chok bilan birlashtiriladi. Keyingi ishlov berish paytida tortilib qolmasligi uchun o`mizning burchaklari yoki burilgan joylarida chok haqi kertib qo`yiladi. Planka kiyimning

o'ng tomoniga ag'darib o'tkaziladi, planka tomonidan 0,1-0,2 smli kant hosil qilinib, chok to'g'rilanadi. Plankaning ikkinchi tomonidagi qirqimlari ichkari tomonga 0,5-0,7 sm bukilib ko'klab olinadi, so'ngra plankaning bukilgan ziyidan 0,1-0,2 sm kenglikda baxyaqator yuritiladi.

Plankani bezak bilan ishlov berishda to'rlar, qo'yma burmalar qo'yilgan bo'lishi mumkin (9-rasm, b, v). To'rlar yoki qo'yma burmalar ikki qator bo'sh baxyaqator yuritilib burmalari tayyorlab olinadi, so'ngra plankaning tashqi qirqimlariga burmali tomonlarini to'g'rilab, o'ngini o'ngiga qaratib joylashtiriladi va universal mashinada burma baxyaqatorlarining o'rtasidan tikiladi. Bezakli plankani oddiy planka kabi kiyimga biriktiriladi, bezak ulangan choklari ichkariga bukilib, to'g'rilanadi va ko'klab olinadi. Planka ziyidan 0,1-0,2 sm masofada baxyaqator yuritib bostirib tikiladi.

Agar koketka ikki qavatli bo'lsa, ya'ni astarli koketkaga ishlov berishda ustki va ostki koketkalar o'ng tomonlarini bir-biriga qaratib, elka choklari va koketkalarining o'rta chiziqlarini bir-biriga mos keltirib, to'g'nog'ichlar qadab chiqiladi va bo'yin o'mizi qirqimlari qo'lda ko'klab biriktiriladi. Keyin mashinada 1,0 santimetr chok haqi bilan aylantirib biriktirib tikiladi. Chok haqiga bir oz kertimlar berib yuboriladi. Koketka o'ngiga ag'dariladi va chok haqlarini ostki koketka tomonga qaratib mashinada bostirib tikiladi (9-rasm, g).

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan texnologik xarita tuzib kelish topshiriladi.

43-44-mashg'ulot: Yeng o'miziga ishlov berish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga yeng o'miziga ishlov berishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni yeng o'miziga ishlov berishda tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda yeng o'miziga turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: yeng o'miziga ishlov berish va bezash bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, milliy ko'ylak namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Yeng o'miziga ishlov berish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish, ya'ni kompyuterda mavzuga oid slaydlarni bosqichli tarzda namoyish qilish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, yeng o'miziga ishlov berish va ularni bezashda turli xil bezak detallaridan foydalanib turlicha bezash yuzasidan musobaqa tarzida amalga oshirish mumkin. Dars yakunida guruhlar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhni yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Yeng o'miziga ishlov berishdan avval koketkani ko'ylakning etak qismiga ulab olish kerak. Buning uchun qo'yma burma bo'laklari bir-biriga ulanib, ulangan

choklari yo`rmas chiqiladi, keyin ochiq qirqimlari 0,2 – 0,3 santimetrga teskarisiga bukilib, maxsus siniq chok tikadigan mashinada ishlanadi. Qo`yma burmalarning ikkinchi qirqimi bo`yicha 0,5 – 0,7 santimetr masofada baxyaqator yurgizib, burma hosil qilinadi. Burmalari tekis taqsimlangan qo`yma burmani o`ngini koketkaning o`ngiga qaratib qirqimlariga to`g`rilab qo`yib, koketkaning atrofiga gir aylantirib qo`lda ko`klab binktiriladi. Old va orqa koketkalarini teskari tomoniga o`girib, o`rta chiziqclarini etak qismining o`rta chiziqclariga to`g`rilab avval qo`lda ko`klab chiqiladi, keyin mashinada baxyaqator yurgiziladi va maxsus mashinada yo`rmanadi. Ko`ylak o`ngiga ag`dariladi va tekislanadi.

Yengni yeng o`miziga to`g`ri o`tkazish uchun uni oldin maxsus to`g`nog`ichlar bilan kertimlarni to`g`rilab o`mizga to`g`nab chiqiladi. Keyin yengni o`mizga ko`klayotganda ignalar olib tashlanadi. Yengni ko`klab o`tkazish uchun yengni asosiy bo`lak yeng o`mizi ichiga o`ngini ichkariga qaratib qo`yiladi va yeng tomondan sirma qaviqlar bilan ko`klayadi. Qaviq yirikligi 0,5 sm. Yengdagi eng ko`psolqi qiyama qismida bo`lib, qolgan joyida deyarli solqi hosil qilinmay ko`klab o`tkaziladi. Ko`klash chokining kengligi 0,7-0,8 sm bo`ladi. Yengning chok qirqimlari maxsus mashinada yo`rmanadi. yengning etak qismi ko`rinmas qaviqqator bilan mahkamlab tikiladi.

Yengsiz ko`ylaklarda yeng o`miziga albatta adip yoki mag`iz qo`yib ishlov beriladi. Adip ikki bo`lakdan iborat bo`lib, ular birlashtirib tikiladi va choki yorib dazmollanadi. Adipning ichki qirqimiga yoqa o`miziga qo`yilgan adip qirqimidagi kabi ishlov beriladi.

Adip bilan ko`ylakning o`ngi tomonlari ichkariga qaratib juftlanadi. Ularning yelka choklari to`g`ri keltirilib, ag`darma chok bilan tikiladi. Keyingi ishlov berish vaqtida tortilib qolishi mumkin bo`lgan joylarida chok haqi kertib qo`yiladi. Adip kiyimning teskarisiga ag`darib o`tkazib choki to`g`rilab dazmollanadi. Uning ichki qirqimlari yon va yelka choklariga universal mashinada ikkita qaytma baxyaqator yuritib chatiladi, old bo`lak bilan orqa bo`lakning ikki-uch joyiga esa qo`lda yashirin qaviq solib chatiladi. Yenglarning o`miz qirqimini bir qavatli va qo`sh qavatli mag`iz bilan ishlov berish xuddi bo`yin o`miziga shunday mag`izlar bilan ishlov berish kabi bajariladi.

O`quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. O`quvchilarga mavzu yuzasidan krossvord tuzib kelish topshiriladi.
2. Yeng o`miziga ishlov berish jarayon xartasini A-4 formatda bajarish.

45-46-mashg`ulot: Ko`ylak etagini tikish. Ko`ylakka oxirgi ishlov berish

Dars maqsadi:

Ta`limiy: O`quvchilarga ko`ylak etagini tikish hamda ko`ylakka oxirgi ishlov berishni o`rgatish.

Tarbiyaviy: O`quvchilarni amaliy ishlarni tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarda ko`ylak etagini tikish hamda ko`ylakka oxirgi ishlov berish yuzasidan bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali quollar: ko'ylak etagini tikish hamda ko'ylakka oxirgi ishlov berish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, milliy ko'ylak namunalari, o'quv quollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Ko'ylak etagini tikish hamda ko'ylakka oxirgi ishlov berish jarayonini tushuntirishda kompyuterdan foydalanish o'quvchilarga tushunarli bo'ladi. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, ko'ylak etagini tikish hamda ko'ylakka oxirgi ishlov berish bo'yicha musobaqa o'tkazish mumkin. Bunda birinchi guruhga ko'ylak etagini tikishning bitta usuli bo'yicha, ikkinchi guruhga ko'ylak etagini tikishning ikkinchi xil usuli bo'yicha ishlov berilishini topshirilish mumkin. Mazkur musobaqa metodida o'quvchilarni tabaqalashtirilgan holda guruhlariga bo'lish tavsiya etiladi. Chunki ko'ylak etagini tikishning turlicha murakkablikdagi usullari berilgan bo'ladi. Dars yakunida guruhlar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhni yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Ko'ylak etagini tikish uchun uning old bo'lagi bilan orqa bo'lagi o'rtasidan buklanib va yon choklari to'g'ri keltirilib, stol ustiga yozib qo'yiladi. Etaginging ustiga andoza qo'yilib, ikkita chiziq tortib bo'rlanadi. Ulardan birinchisi bo'ylab etak qirqib tekislanadi, ikkinchisi bo'ylab esa etak ichkariga bukiladi.

Ko'ylakning etagi yopiq qirqimli bukma chok bilan ishlov berilishi mumkin, bunda avval 0,3-0,5 sm bukib olinadi, so'ngra yana etak andozada belgilangan miqdorda ikkinchi marta bukilib tikib qo'yiladi.

Ko'ylakning etagi ochiq qirqimli bukma chok bilan ham ishlov berilishi mumkin, bunda avval ochiq qirqim yo'rmab olinadi, so'ngra etak tikib qo'yiladi.

Ko'ylak etaginging bukish haqi belgilangan chiziq bo'ylab bukilib, yashirin baxiyali mashinada tikib qo'yiladi.

Ko'ylakni so'nggi pardozlash va namlab-isitib ishlash. Qo'l choklarida ishlatilgan iplar olib tashlanadi. Kiyim tikib bo'lgandan keyin ortiqcha iplar qirqib tashlanadi, ko'ylakning o'ngidagi bo'rlangan chiziqlar o'chirib tashlanadi.

Dazmollash uchun elektr quvvati bilan qizdiriladigan dazmollar qulay. Dazmollash uchun zarur harorat hosil bo'lgandan keyin o'zi o'chib, yana yonib turadigan va suv bug'i purkaydigan dazmollar yaxshi.

Matolar har xil paxta, zig'ir, jun tolasidan, tabiiy va sun'iy ipaklardan, kimyoviy tolalardan to'qilgan bo'lgani uchun har xil haroratda dazmollanadi. Kimyoviy tolalardan to'qilgan matolar dazmollanayotganda dazmol qattiq qizdirilmasligi, tabiiy ipak va jun matolarga esa qattiq qizdirilishi kerak, paxta va zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab dazmollanadi. Dazmollash uchun dazmol taxtasidan foydalanish ma'qul. Ko'ylak teskarisidan dazmollanadigan bo'lsa, dazmolmato ishlatilmaydi. O'ngidan esa oq gazlamadan dazmolmato qo'yib dazmollanadi.

Namlab isitib ishlov berish uchun oldin detallarning (koketka, eng qismlari) chetlari namlab to'g'rilanadi va batamom quriguncha dazmollanadi. Kiyimning choklari yorib dazmollanadi, burmalar dazmollanadi. Ko'ylaklarni so'nggi

dazmollashni bug'li havо manekenida bajarish ham mumkin.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan texnologik xarita tuzib kelish topshiriladi.

47-48-mashg'ulot: Xalq hunarmandchiligi "Quroqchilik" haqida umumiy ma'lumot. Uning tarixi, usullari, kerakli ish qurollari. Tikiladigan "Quroq" buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga xalq hunarmandchiligi "Quroqchilik" haqida umumiy ma'lumot berish. Uning tarixi, usullari, kerakli ish qurollaridan foydalanishni, tikiladigan "Quroq" buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni amaliy ish bajarish jarayonida tez hamda sifatli ishlashga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda tikiladigan "Quroq" buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Quroqchilik"da foydalaniladigan ish qurollari, quroq buyumlarni tikish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, quroq bilan tikilgan buyum namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga xalq hunarmandchiligi turlari haqida ma'lumot beriladi.

Bunda xalq hunarmandchiligi namunalarni ko'rsatish va video-tasvirlarini namoyish etish maqsadga muvofiqdir. Hunarmandchilikning eng ommaviy turlaridan bo'lgan quroqchilik haqida, quroqchilik turlari va ularning turmushdagi o'rnini haqida hikoya qilinadi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida klaster usulidan foydalanib, "Quroq" so'zi atrofida tushunchalarni tarmoqlash va bunda har bir o'quvchining ishtirok etishiga ahamiyat berish kerak. Amaliy mashg'ulot jarayonida kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalarni berib borish zarur. O'quvchilar bajarayotgan ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilib borilsa, ish sifatli bajariladi va o'quvchi o'z mehnatining mahsulidan xursand bo'ladi. Dars so'ngida faturklar ko'rgazmasini uyushtirish kerak.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Quroq - bu bitta buyumda rangi va fakturasi turlicha bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir. Bu usul bilan yostiq jildlari, ko'rpa, divan va stul uchun g'illoflar, gilamchalar, shuningdek, kiyimlar uchun bezak va to'ldiruvchi detallar tayyorlash mumkin. Quroq texnologiyasida istalgan gazlamadan, ham yangi, ham avval ishlatilgan gazlamadan foydalanish nazarda tutiladi. Yangi gazlamani ishlatishdan avval dekatirovka (ipak va jun gazlamalarni kirishmaydigan qilish uchun bug' yoki qaynoq suv bilan ishlov berish usuli), bug'lash lozim, chunki bitta buyumda ikki xil gazlama ishlatilishi natijasida, buyum yuvilgandan so'ng o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Avval ishlatilgan gazlama bo'laklarini esa kraxmallash va dazmollash kerak.

Kerakli ish qurollari. Quroq tikishda avval ish qurollarini to'g'ri tanlash kerak. Bu jarayonda gazlamalar, ignalar, iplar, o'tkir qaychi, to'g'nog'ichlar, turli rangdagi qalamlar va ochgich, karton yoki qalin qog'ozlar, chizg'ichlar, gardishlar va turli shablonlar kerak bo'ladi. Quroq buyumda ko'pincha naqsh gullari bir xil shaklli va o'lchamli alohida elementlardan iborat bo'ladi. Bichishda qulay bo'lishi uchun karton yoki qattiq qog'ozdan shablonlar tayyorlanadi. Kartonda kerakli elementni (kvadrat, uchburchak, oltiburchak va hakoza) chok haqisiz chizib olinadi. So'ngra hamma tomonidan 0,5-0,7 sm chok haqi qoldirib ikkinchi chiziqni o'tkazamiz. Shundan so'ng, ichki va tashqi kontur chiziqlari bo'yicha ehtiyotkorlik bilan o'tkir uchli qaychida qirg'iladi. Bunday shablonni joylashtirishda gazlama bo'lagining eng chiroyli joyini ham tanlab olishga qulaydir. Gazlama bo'lagidan kerakli elementni bichish uchun, gazlamaning teskari tomoniga shablonni qo'yib ham ichki, ham tashqi konturlarini qalam bilan chiziladi. Bunda gazlama rangiga kontrast bo'lgan rangli qalamlardan foydalanish tavsiya etiladi. Gazlama bo'lagiga chizilgan chiziqning tashqi konturi bo'ylab qirg'iladi, ichki konturi bo'ylab esa ikkita detal birlashtirib tikiladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mavzu yuzasidan krossvord yoki 10 ta test tuzib kelish topshiriladi.

49-50-mashg'ulot: Gazlamalarni ajratish, sifatini aniqlash va shablonlarni qirqib tayyorlash

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga gazlamalarni ajratish, sifatini aniqlash va shablonlarni qirqib tayyorlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat hissida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda quroqchilik namunalari ishlatilgan turli shablon naqshlari va gazlama ranglarni turli xil zamonaviy buyumlarda qo'llash bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Milliy quroqchilik buyumlari bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, choynak g'ilofi, elpig'ich, xona anjomlari namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Hunarmandchilikning eng ommaviy turlaridan bo'lgan quroqchilik haqida, quroqchilik turlari va ularning turmushdagi o'rni haqida hikoya qilinadi. Quroq tikishda rioya qilinishi kerak bo'lgan havfsizlik texnikasi qoidalari va kerakli asbob-moslamalar tushuntiriladi. Bu mavzu bo'yicha mashg'ulotni hikoya, suhbat-munozara tarzida tashkil etish mumkin, bunda kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etiladi, milliy quroqchilik namunalaridan ko'rgazma qurollar sifatida foydalaniladi.

Quroqchilik bo'yicha o'quvchilarda mavjud bo'lgan hayotiy tajribalariga asoslangan holda suhbat-munozara uyushtirish mumkin. O'quvchilarga quroqqa turlariga oid ma'lumotlar to'plash topshirig'ini berish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar


Bu mashg'ulotda amaliy ish bajariladi. Bunda ko'rpacha jildini quroq usulida tikish mumkin. U kontrast rangdagi ikki xil gazlama bo'laklaridan tikiladi. Jildni tayyorlash jarayonida gazlamalarni shunday tanlash kerak-ki, ular bir-biri bilan moslasha olsin. Mazkur ko'rpacha jildiga sidirg'a va no'xot (sidirg'a gazlama rangida) gulli, zich to'qilgan gazlama tavsifiya etiladi.

Kerakli asbob-uskuna va ashyolar: stol, stul, ko'rpacha jildini tikish bo'yicha bajarilgan texnologik xarita va tikilgan namunalar, tikuv mashinasi, dazmol, dazmol stoli, har biri 70x70 sm ga teng bo'lgan sidirg'a va gulli zich to'qilgan gazlama bo'laklari, to'g'ri va uchburchak chizg'ich, igna, angishvona, qaychi, santimetr lenta, gazlama rangiga mos 40-50-raqamli g'altak iplar, kalka qog'ozi, ko'chirish uchun maxsus qalam, tomonlari 7 sm ga teng bo'lgan shablon, porolon yoki paxta.

Berilgan shablon atrofidan 1 sm dan chizib chiqiladi va ichki tomoni qirqilib ish shablони tayyorlab olinadi (11-rasm, a). Ish shablони yordamida gulli gazlamadan 41 dona va sidirg'a gazlamadan 40 dona kvadratlar kesib olinadi. Bunda kvadratlar tashqi chiziq bo'yicha qirqilsa, ichki chiziq bo'yicha ular bir-biriga ulanadi. A1 va B1 kvadratlar o'ngini bir-biriga qaratib 1 sm chok haqida birlashtiriladi. So'ngra kvadratlar C1, D1, E1, F1 va hokazo ham biriktirib tikiladi. Xudi shu tarzda barcha qatorlar tayyorlab olinadi (11-rasm, b). 1, 3, 5, 7, 9 – qatorlar chok haqini bir tomonga qaratib, 2, 4, 6, 8 – qatorlar chok haqini esa qarama-qarshi tomonga qaratib dazmollanadi (11-rasm, v). 1 va 2 – qatorlar bir-biri bilan 1 sm chok haqida birlashtirib tikiladi. Bunda vertikal chiziqlarning mos kelishiga ahamiyat berish kerak. Keyingi qatorlar ham birin-ketin birlashtiriladi. Chok haqlari yorib dazmollanadi. Ko'rpachaning ostki qavatini yaxlit bir rangdagi gazlamadan yoki 2 yoki 4 bo'lakdan iborat qilib tayyorlash mumkin. Ustki va ostki ko'rpacha g'aloqlari o'zaro birlashtirib olinadi (bunda porolonni kirgizish uchun 10 sm gacha tikilmay joy qoldiriladi) va o'ngiga ag'dariladi, chok haqi dazmollanadi. Porolon kiritilib, qolgan 10 sm chok haqini ko'rinmas chokda qo'lda tikib qo'yiladi.




a



b

10-rasm



11-rasm

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. Mavzu yuzasidan test tuzib kelish
2. Quroq tikishda ishlatiladigan asbob-moslamalarning rasmlarini daftarlariga chizib kelish

51-52-mashg'ulot: Tanlangan shakllarni shablon asosida tikish. Quroqning "Yo'l-yo'l" usulidan foydalanib, ushlagich tikish.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga tanlangan shakllarni shablon asosida tikishni, quroqning "Yo'l-yo'l" usulidan foydalanib, ushlagich tikish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni quroq buyum tikish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda quroq buyumlarini tikishda buyum turiga qarab ip rangi va gazlama turini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali quollar: quroq namunalari tikilgan buklet, plakatlar va slaydlar, o'quv quollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar


Bu mavzuni o'qitishda quroq texnikasida hamma geometrik naqshlarni 3 ta guruhga ajratish mumkin: uchburchaklar, yo'l-yo'lli, spiral usulida tikilgan namunalardan foydalaniladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. Har bir quroq tikish turini tikish ko'rsatmali tarzda bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar quroq turlarini amaliy ravishda bajaradilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. Tikiladigan buyum uchun quroq bo'laklarini tayyorlashda ishlatiladigan shablon namunasini tayyorlash jarayoni bajarib ko'rsatiladi. O'quvchilar dars jarayonida amaliy ish bajaradilar.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar


"Yo'l-yo'l" usul. Bu kvadratni bajarishda shablon tariqasida oddiy chizg'ichni ishlatish mumkin. Uning kengligi kvadratning hamma tasmalariga mos

bo'ldi. Tasmalar uzunligini avvaldan kesib olish tavsiya qilinmaydi. Ularning uzunligini tikib olingandan so'ng aniqlash kerak.

Birinchi usul (12-rasm). Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko'rsatilgan. Asos uchun kvadrat olish kerak. Avval unga 1-tasmani tikiladi, so'ngra 2, 3, 4-tasmalar aylana bo'ylab biriktirib tikiladi. qiytimlar uzunligi doimiy ravishda uzayib boradi. Shunday usul bilan kerakli o'lchamdagi kvadrat hosil qilinadi. Naqsh ifodali chiqishi uchun tasmalar rangiga e'tibor berish kerak (12-rasm).



12-rasm. "Yo'l-yo'l" usul



13- rasm

14- rasm

Ikkinchi usul (13-rasm). Asos uchun markaziy kvadrat olinadi. Tasma qiytimlari qarama-qarshi tomon qilib tikiladi (raqamlar bilan ko'rsatilgan).

Uchinchi usul (14-rasm). Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko'rsatilgan.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda gazlama bo'lagidan quroq usulida namunalardan ijodiy tikib kelish topshiriladi.

53-54-mashg'ulot: Quroqning "Paxta" yoki "Parket" usulidan foydalanib, yelpig'ich tikish.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga quroqning "Paxta" yoki "Parket" usulidan foydalanib, yelpig'ich tikish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni yelpig'ich tikish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda quroq usulida tikilgan buyumlarni tikishda

buyum turiga qarab ip rangi va gazlama turini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.


Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: quroq usulida tikilgan namunalar, yelpig'ich namunalari, mavzu bo'yicha bajarilgan buklet, plakatlar va slyadlar, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Yelpig'ichni tikish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida klaster usulidan foydalanib, "Yelpig'ich" so'zi atrofida tushunchalarni tarmoqlash va bunda har bir o'quvchining ishtirok etishiga ahamiyat berish kerak. Amaliy mashg'ulot jarayonida kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalarni berib borish zarur. O'quvchilar bajarayotgan ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilib borilsa, ish sifatli bajariladi va o'quvchi o'z mehnatining mahsulidan xursand bo'ladi. Dars so'nggida qiyiqchalar ko'rgazmasini uyushtirish kerak.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Mavzu yuzasidan o'quvchilar amaliy bajaradilar. *Kerakli asbob-uskuna va*



15-rasm. Paxta usulida bajarilgan yelpig'ich

ashyolar: stol, stul, yelpig'ich tikish bo'yicha bajarilgan texnologik xarita va tikilgan namunalar, tikuv mashinasi, dazmol, sidirg'a va gulli gazlama bo'laklari, yelpig'ich dastasi, sintepon, igna, angishvona, qaychi, santimetr lenta, gazlama rangiga mos 40-50-raqamli g'altak iplar, ko'chirish uchun maxsus qalam.

Yelpig'ichni tayyorlash uchun 5 burchakli murakkab shaklli shablon tayyorlab olinadi. Shablon yordamida usti va osti uchun 16 ta yelpig'ich yaproqchalari turli gazlama qoldiqlaridan bichish va tikish chiziqlarini chizib bichib olinadi. Bunda shablonni gazlamaning bo'y ipi bo'yla qo'yilgani ma'qul. 2 ta yaproqchalarni o'ngini bir-biriga qaratib, teskari tomonidan yaproqchani pastidan yuqori tomonga qaratib 1 sm li chokda belgilangan joygacha mashinada tikib chiqiladi va chok uchlari mahkamlanadi. Qolgan yaproqchalar ham bir-biriga shu tariqa ulanib, chok haqi yorib dazmollanadi. Barcha yaproqchalar tikib bo'lingach, chetki qirqimi chiziq bo'ylab ichkariga dazmollanadi. Yelpig'ichning ostki va ustki qismlari tayyorlab olingach, bir-birining ustiga shunday to'g'rilab qo'yiladi-ki bunda yaproqchalarning uchlari ustma-ust tushishi kerak va bostirma chokda yelpig'ichning chetki qirqimlari tikib chiqiladi. Yelpig'ichning o'rta qismiga yarim doira shaklida 2 ta detal bichiladi va tikiladi. Bunda yelpig'ich dastasini orasiga qo'yib tikishni unutmaslik kerak.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga milliy kashtachilik buyumlari ishtirokida 10 ta test tuzib kelish topshiriladi.

55-56-mashg'ulot: "Uycha" (olma yoki qovoq guli) shaklida choynak yopg'ich tikish. Tayyorlangan mahsulotga astar tikish. Qaviq ishlari.

Tayyorlangan mahsulotga oxirgi ishlov berish.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga "Uycha" (olma yoki qovoq guli) shaklida choynak yopg'ich va tayyorlangan mahsulotga astar tikishni o'rgatish. Qaviq ishlari hamda tayyorlangan mahsulotga oxirgi ishlov berish yuzasidan bilimlar berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni mashg'ulot jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda milliy quroqchilik buyumlariga gazlama va gul naqshlarini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: choynak yopg'ich namunalari, gazlama qoldiqlari, mavzu bo'yicha bajarilgan buklet, plakatlari va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Shoynak yopg'ichni tikish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida savol-javob uyushtirib, bunda har bir o'quvchining ishtirok etishiga ahamiyat berish kerak. Amaliy mashg'ulot jarayonida kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalarni berib borish zarur. O'quvchilar bajarayotgan ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilib borilsa, ish sifatli bajariladi va o'quvchi o'z mehnatining mahsulidan xursand bo'ladi.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Mavzu yuzasidan o'quvchilar amaliy bajaradilar. Ular shoynak yopg'ichi va tagligi komplektini tikadilar. Bu komplektni tikish uchun oshxona pardasining rangiga yoki to'shalgan dasturxonga moslab sidirg'a yoki gulli oson yuviladigan (bunda isitish qavatini uchun sintepon ishlatish kerak) gazlamadan foydalanish tavsiya etiladi.

Kerakli asbob-uskuna va ashyolar: stol, stul, choynak yopg'ichini tikish bo'yicha bajarilgan texnologik xarita va tikilgan namunalari, tikuv mashinasi, dazmol, sidirg'a va gulli gazlama bo'laklari, 1,5 m gulli qiya tasma, sintepon, igna, angishvona, qaychi, santimetr lenta, gazlama rangiga mos 40-50-raqamli g'altak iplar, kalka qog'ozi, ko'chirish uchun maxsus qalam.

Sidirg'a gazlamani choynak o'lchamlaridan 10 sm ortiq bo'lgan o'lchamda to'g'rito'rtburchak shaklida 2 dona ustki qavatini uchun, 2 dona astari uchun bichib olinadi. Xudi shu o'lchamda isitgich qavatini – porolon ham 2 dona bichiladi. Astar ustiga sintepon va uning ustidan avrasi (sidirg'a gazlama) qo'yilib, istalgan kenglikda tikuv mashinasida qavib chiqiladi. Berilgan chizma bo'yicha choynak yopg'ichining andozasi tayyorlanadi. Tayyorlangan qaviq to'shamaga andozani qo'yib yopg'ich detallari bichib olinadi. Yopg'ichga tikiladigan choynak applikatsiyasi esa gulli gazlamadan bichiladi. Bichilgan yopg'ich detallarining barcha qirqimlarini tikuv mashinasida 0,5-0,7 sm chok kengligida tikib chiqiladi. Applikatsiyani yopg'ichning belgilangan joyiga qo'yilib, avval qo'lda ko'klab chiqiladi, so'ngra tikuv mashinasida "zig-zak" chokda yormab bostirib tikiladi.

Choynak yopg`ichi detallarining pastki qirqimlariga mag`iz bilan ishlov beriladi. Choynak yopg`ichi detallarining yuqori qirqimlari to`g`rilanib bir-birining ustiga (applikasiya tikilgan tomoni ustida bo`ladi) qo`yiladi va aylana qismi avval qo`lda ko`klab chiqiladi, keyin mashinada birlashtiriladi. Birlashtirma chok ustidan qiya tasmadan mag`iz tikiladi. Bunda yopg`ichni ushlash uchun mag`izdan tayyorlangan ushlagich yopg`ichning yuqori qismining o`rtasiga qo`yib tikilishini unutmaslik kerak. Choynak yopg`ichi iplardan tozalanib, mag`izlariga issiqlik ishlovi beriladi.

O`quvchilarga uya topshiriqlar beriladi

O`quvchilarga turli usulda va shaklda tikiladigan choynak yopg`ichlari haqida ma`lumot to`plab kelish topshiriladi.

57-58-mashg`ulot: Dizayner-modeler kasbi to`g`risida tushuncha berish. Bolalar sport, bayram kiyimlari uchun yangi modellar eskizini yaratish.

Kiyim turlari asosida yangi modellar yaratish

Dars maqsadi:

Ta`limiy: O`quvchilarga dizayner-modeler kasbi to`g`risida tushuncha berish. Bolalar sport, bayram kiyimlari uchun yangi modellar eskizini, kiyim turlari asosida yangi modellar yaratish yo`llarini o`rgatish.

Tarbiyaviy: O`quvchilarni model eskizlarini chizish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarda dizayner-modeler kasbini to`g`ri tanlash ko`nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: dizayner-modeler kasbini aks ettiruvchi plakatlar, videolavhalar, model namunalari, mavzu bo`yicha bajarilgan buklet, plakatlar va slaydlar, o`quv qurollari, kompyuter

Dars o`tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Dizayner-modeler kasbini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O`quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida klaster usulidan foydalanib, "Dizayner" so`zi atrofida tushunchalarni tarmoqlash va bunda har bir o`quvchining ishtirok etishiga ahamiyat berish kerak. O`quvchilar eskiz chizishni bajarayotgan ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilib borilsa, ish sifatli bajariladi va o`quvchi o`z mehnatining mahsulidan xursand bo`ladi. Dars so`nggida model eskizlari ko`rgazmasini uyushtirish kerak.

Dars mashg`uloti yuzasidan nazariy ma`lumotlar

«Dizayn» so`zi inglizcha («design») «dizayn» so`zidan kelgan bo`lib, chizma naqsh, g`oya va loyihalash hamda konstruksiyalash jarayoni ma`nosini bildiradi. Dizayn – ijodiy loyihalashtirish faoliyati bo`lib, uning maqsadi insonning moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan buyumlarning uyg`un olamini yaratishdan iborat. Dizayn sohasida faoliyat ko`rsatadigan hamda buyumlar va mahsulotlarning yuqori iste`molbop va estetik sifatlarini ta`minlaydigan mutaxassislar dizaynerlar deb ataladi.

Dizayner – bu hozirgi kunda eng obro`li, nufuzli va katta haq to`lanadigan kasblardan biridir. Dizayner-modeler yangi, zamonaviy kiyim modellarini yaratish

bilan shug'ullanadi. Bunda modeler moda yo'nalishini, yaratilgan modelni kiyadigan insonlarning yosh va gavda xususiyatlarini, iqlim sharoiti va fasllarni e'tiborga olishi zarur. Bu bilan ular insonlar hayotini go'zal qilishga harakat qiladilar. Dizayner-modeler kasbi ma'lum bir sifatlarni o'zida mujassam qiladi.

Dizayner-modeler insonlarga go'zallikni ko'ra bilishga, hayotni yanada yorqinroq, jozibali va xushchaqchaq bo'lishiga yordam beradi. Bunda o'zining qobiliyati va talantini tatbiq etib, bulardan zavqlanadi. SHuningdek, ijodkor insonga qo'shimcha kuch ham ato etib, o'zining kasbiy sohasini kengaytiradi. Maqsadga intilishi, ishchanligi va sabr-toqatligi ko'paygan sari dizaynerda moda olamida mashhur bo'lishga imkoniyat yaratiladi. Demak, dizayner-modeler kiyim modellarini yaratish uchun dastlabki materialga, ya'ni asosiy fondga ega bo'lishdan tashqari insonda xotira mustahkam bo'lishi zarur. Ko'rgan kechirganlarni eslab qolish va bular asosida yangi fikrlar, g'oyalar va obazlarni yaratish uchun xotira, tasavvur, ijodiy fantaziya kabi sifatlarni rivojlantirib borish zarur.

Dizayner faqat ofisda emas, balki uyida o'zining dasturlashtirilgan kompyuterida ham ishlashi mumkin. Ish jarayonidagi qo'yilgan xatolikka ishonchsizlik bilan qarash kerak emas, chunki har qanday xatolikni to'g'rilash mumkin. Dizaynerda o'z ishininng natijasini ko'rish imkoniyati mavjud hamda estetik zavq olish mumkin. Dizayner-modeler rassomchilik bo'yicha bilimlarga ega va oliy ma'lumotli bo'lishi kerak.

***Bolalar sport, bayram kiyimlari uchun yangi modellar eskizini yaratish.
Kiyim turlari asosida yangi modellar yaratish***

Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari turli xil tadbirlarda ishtirok etishlari munosabati bilan, ularning kiyimlari muayyan ko'rinishga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarning o'sish jarayonida xarakter mujassamlanadi, ishonish qobiliyati shakllanib, o'zini jamoatning bir bo'lagiday his qila boshlaydi.

13-14 yoshda bolalarning qo'l va oyoqlari uzunlashib, gavdaning umumiy ko'rinishi kattalarnikiga o'xshab ketadi. Bu vaqtda qizlar uchun kiyimlar silueti to'rt qismdan iborat bo'lishi kuzatiladi. Eng maqbul varianti yarmi tor, yarmi kengidir (uzunligi tizzagacha keladi), undan keyin to'g'ri siluet (sport kiyimlari kabi), qomatga mos va pastga qarab kengayib boruvchi trapetsiyasimon siluetlar mavsumbop ustki kiyimlar uchun xarakterlidir.

Qizlar qomati shakllanishining afzalliklari shundaki, kompozitsiya markazini kiyimning yuqori qismida joylashtirish imkonini beradi, bu erda turli xildagi koketkalar, burmalar va releflar yordamida zarur bo'lgan hajmni yaratish mumkin. Bo'yin kesmasi va yoqalarning shakli har xil bo'ladi. Ko'proq oddiy tik yoqalardan foydalaniladi. Eng shakllari ham kiyimning bichimiga qarab har xil bo'ladi. Qiz bolalar garderobiga maktab formasi, shim, yubka, bluzka, sarafan, sport kurtkasi, plash, pal'to va ko'yaklar kiradi. Bu yoshdagi bolalar o'zining yuqori jamoatchilik faolligi bilan ajralib turadi. Sport musobaqalari, bayramlar, har xil kechalarning katta qismini asosan ular o'tkazadilar. Ular tayyorlagan kostyumlar zarur bo'lgan atmosferani yaratishda yordam beradi

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga dizayner-modeler kasbi to'g'risida ma'lumotni "Internet"dan topib kelish topshiriladi. Yoshlar uchun model eskizlarini yaratish vazifasi beriladi.

59-60-mashg'ulot: To'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini yaratish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga to'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini yaratish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni model eskizlarini chizish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda eskiz chizish uchun kerakli materiallarni to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: milliy qo'g'irchoq namunalari, gazlama qoldiqlari, qo'g'irchoq andozalari, mavzu bo'yicha bajarilgan buklet, plakatlar va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

To'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida klaster usulidan foydalanib, "Model" so'zi atrofida tushunchalarni tarmoqlash va bunda har bir o'quvchining ishtirok etishiga ahamiyat berish kerak. O'quvchilar to'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini eskizlarini chizishni bajarayotgan ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilib borilsa, ish sifatli bajariladi va o'quvchi o'z mehnatining mahsulidan xursand bo'ladi. Dars so'nggida model eskizlari ko'rgazmasini uyushtirish kerak.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Bayram kiyimi odamga yarashadigan, uning eng yaxshi xususiyatlarini ko'zga ko'rintiradigan bo'lishi kerak. Bayram kiyimda ko'pincha turli bezaklar sifatida burmalangan detallar, kashtalar, applikatsiyalar, biser va dekorativ toshchalar, to'rlar, qo'yma burmalar, mo'yna, sharflar, to'r polotnolardan bichilgan detallardan foydalaniladi. Bayram kiyim nimaga mo'ljallanganiga qarab, uning materiali chitdan to duxobagacha, ziynatlari yog'ochdan to qimmatbaho toshlargacha, dekorativ bezagi oddiy kashtadan to zardo'zi buyumlargacha bo'lishi mumkin. Bayram kiyimi nimaga mo'ljallanganligiga qarab quyidagicha bo'linadi: xonadon tantanalarida kiyiladigan, teatr va kontsetr zallariga borganda kiyiladigan, raqs kechalarida kiyiladigan, rasmiy tantanalarda kiyiladigan, bayramda kiyiladigan, maktabni bitiruvchilar oqshomlarida kiyiladigan, to'yda kiyiladigan va xokazo.

Turli xil tadbirlarda ishtirok etishlari munosabati bilan, maktab o'quvchilarining bayram kiyimlari muayyan ko'rinishga ega bo'lishi va maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Bolalarning o'sish jarayonida o'zini jamoaning bir bo'lagiday his qila boshlaydi. Ongi o'sgan sayin aqli ham rivojlanadi. Maktab darsliklari, badiiy asarlar mutolaasi, har xil to'garaklar va sport o'yinlarida

qatnashish jiddiy mashg'ulotga aylanadi.

Qiz bolalar bayram kiyimlari uchun nim yopishgan siluet eng ko'p ishlatiladi, bu davrda to'g'rito'rtburchak shaklidagi siluet ham ko'p qo'llaniladi. Trapetsiyasimon siluet esa kamroq ishlatiladi. O'smirlarning gavda tuzilishi deyarli shakllanib bo'lganligi sababli, ularning kiyimlarida turli xil konstruktiv chiziqlar va murakkab bichimlarni ishlatish mumkin.

Shunday qilib bolalar kiyimlari har doim kostyunga qo'yiladigan umumiy estetik talablar doirasida rivojlanadi va uning xarakteri har bir davrga xos bo'lgan kostyum tuzilishiga bog'liq bo'ladi. SHu bilan birga bola rivojlanishining har bir bosqichiga mos ravishda badiiy-obrazli ifodaliligiga ega bo'ladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga to'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini yaratish haqida krossvord tuzib kelish topshiriladi.

61-62-mashg'ulot: Xonani bezashda pardalarning roli. Parda tikish uchun gazlama va kerakli xomashyo, jihoz va moslamalar tanlash. Parda modeliga qarab gazlamani hisoblash

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga xonani bezashda pardalarning roli, parda tikish uchun gazlama va kerakli xomashyo, jihoz va moslamalar tanlash, parda modeliga qarab gazlamani hisoblash yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni xona pardalarini tikish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda xona pardalari uchun kerakli materiallarni tanlash va ularni bezashni to'g'ri bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: kichik o'lchamda tikilgan parda namunalari, gazlama bo'laklari, parda andozalari, mavzu bo'yicha bajarilgan buklet, plakatlar va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Xonani bezashda pardalarning roli, parda tikish uchun gazlama va kerakli xomashyo, jihoz va moslamalar tanlash, parda modeliga qarab gazlamani hisoblash yo'llarini tushuntirishda texnika vositalaridan va og'zaki metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida klaster usulidan foydalanib, "Parda" so'zi atrofida tushunchalarni tarmoqlash va bunda har bir o'quvchining ishtirok etishiga ahamiyat berish kerak. Amaliy mashg'ulot jarayonida kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalarni berib borish zarur. O'quvchilar bajarayotgan ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilib borib ularning bajargan ishlarini rag'batlantirib turiladi. Dars so'nggida qo'g'irchoqlar ko'rgazmasini uyushtirish kerak.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Xonalarimizni bezashda parda asosiy rollardan birini o'ynaydi. Parda uy jihozlarning rangi va joylashishiga qarab tanlanadi. *Parda asosan quyidagilar uchun tutiladi:*

1. Xonani bezatish uchun. Xonaning ko'rkamligi pardaning bezatilishiga ham bog'liq. To'qilgan to'rlar, tesmalar, bantiklar, volan, baxrama, makramelar bilan qo'shib tikilgan bezaklar parda ko'rinishini yanada ko'rkam qiladi.

2. Changdan saqlash uchun. Ko'cha tomondan kiruvchi chang, tutun, uning uchqunlari, umuman havoda uchib yuruvchi mayda narsalarni o'zida olib qoladi.

3. Shovqindan saqlash uchun. Qalin va astarli parda shovqinni o'tkazmaydi.

4. Xonadagi nuqsonlarni berkitish uchun. (Niqobli parda) Niqobli parda xonadagi taxmon, isitgich, shkaflar ko'rinmasligi uchun, ya'ni pardaning orqa tomonida qolib ketishi uchun ishlatiladi.

5. Quyosh tushmasligi uchun. Xona kunga, ya'ni quyosh nuriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Shunga qarab matoning qalin yoki yupqasi tanlab olinadi. Oynaga kun to'ppa-to'g'ri tushadigan bo'lsa, parda astarli qilib tikiladi. Shunda asosiy ustki material kuymaydi va rangini ancha vaqtgacha asrab qoladi. Ayrim pardalar (mato) quyosh nuridan tez chiriydi va tez oqaradi. Shuning uchun matoning ochiq ranglisini tanlash kerak. Kunga teskari, ya'ni soya joyga joylashgan xonaning oynasiga yorug'likni o'tkazib beruvchi, yupqa va biroz tovlanuvchan mato tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. Issiqlikni ushlab turishi uchun. Qalin matodan tikilgan parda yoz vaqtida issiqdan, qish vaqtida esa sovuqdan asraydi.

Parda turini tanlayotganda quyidagilarni hisobga olish kerak:

1. Xonadagi devor oynasining kengligi baland yoki pastligiga qarab pardaning rangi, kengligi, uzunligi va turi tanlab olinadi.

2. Pardaning qalin yoki yupqaligi xonaga yorug'likni o'tkazish yoki to'sish vazifasiga qarab to'g'ri tanlanishi kerak;

Parda tikish uchun gazlama va kerakli xomashyo, jihoz va moslamalar tanlash. Parda modeliga qarab gazlamani hisoblash

Oynani o'lchash va mato hisobini olishda quyidagilarni e'tiborga olinadi: oynaning kengligi; pardani romdan o'tishi; karnizdan polgacha bo'lgan balandlik; oynani tepasidan pastigacha bo'lgan balandlik; karnizdan oyna tokchasigacha bo'lgan balandlik; oyna romining ichki kengligi va balandligi; oyna bitta ko'zining ichki o'lchami; karniz kengligi yoki tayyor parda o'lchami.

Ayrim oynalarning bezagi, ya'ni pardasi aylana tarzda, ya'ni hamma tomoni berkitilib taqiladi. Karniz yoki karniz taxtasi oyna tashqarisiga qoqilsa uyni baland, oynani esa uzunroq ko'rsatadi. Agar oynaning ichki qismiga qoqilsa uy past va kichikroq ko'rinishga ega bo'ladi. Shunga ko'ra parda chiroyli chiqishi uchun fasonga qarab mato tanalanadi. Aniq o'lcham uchun sm lenta ishlatiladi. Olingan o'lchamlar qog'ozga 1:10 masshtab bo'yicha kichiklashtirilib, uyning romi va karnizi chizib tushiriladi. Keyin ustiga kalka qog'oz qo'yilib, pardaning tanlangan ko'rinishi chizib ko'riladi. Tanlangan parda ikki qavat yoki astarli qilinsa, ustki parda tagidagidan 1,5 - 3 sm uzunroq olinadi. Pardaning turini tanlab olgach, uni karniz taxtasida burmasi yoki ko'tarilib turuvchi burmasi (kuliskasi) bo'lsa, ularning kengligi va qaytarish hisoblari ham olinadi. Mato yuvilganda kirishishi ham hisobga olinishi zarur. Pardani tushib turish uzunligi hohishga qarab olinadi. Agar karniz halqachali bo'lsa, halqachalardan keyin o'lchanadi. Parda kengligini

olish uchun karniz uzunligi olinadi.

Yopiq pardalarga burma berish. Pardani yopib qo'yganda burma yoki taxlamasi to'liq va chiroyli turishida matoning qalin yoki yupqaligi hisobga olinadi. O'lchov esa karniz uzunligidan o'lchanadi. Keyin shu o'lcham uchun qalin matolarga burma hisobi 2-2,5 baravar ko'p olinsa, yupqa matolarda 2,5-3 baravar ko'p olinadi.

Qalin parda. U pardaning ikkinchi qavati hisoblanib, u oftobni to'sib qoladi. Shuning uchun uni qalin matolardan tikish maqsadga muvofiqdir.

Shtora. Shtora – oyna yoki eshik ko'zidagi kichkina (kalta) parda.

Pardaning balandligi $120 - 2 = 118$ sm (2 sm astarning pardadan kaltaligi). Bichishda parda uzunligi $118 + 5$ (5 sm tepasini bukishga), $118 + 16$ (16 sm pastini bukishga) tarzida hisoblab topish mumkin. Jami $118+5+16=139$ sm bo'ladi. Kengligini topishda karniz taxtasiga burma uchun $200 \times 2,5 = 500$ sm, yonini bukishga $7 \times 2 = 14$ sm qo'shib beriladi. Jami $500 + 14 = 514$ sm bo'ladi.

Lambrekenlar. Lambreken – oyna va eshiklarning yuqorigi qismiga qilinadigan kalta parda. Uni orqasidan avval yaxlit parda tutilsa ham bo'ladi yoki o'zini astar bilan tutsa ham bo'ladi. Lambrekenlar kuliskali, bog' ichli, taxlamali va burmali bo'lishi mumkin. Lambrekenlar asosan oyna yoki eshikning 1/5 qismini egallaydi.

Pardaga burma beruvchi lenta. Pardalarni oson tikishda burmasini bir tekisda va oson chiqarish uchun burma beruvchi lenta kerak. bo'ladi. Uning kengligi va shakl berishlari har xildir. Masalan: 2-3-4-5-6 ta ipli tesma pardani asosan yuqorigi qismiga tikiladi. Bu tesma pardani har xil ko'rinishga keltirishi mumkin. Pardani karnizga ilish uchun tesmaning orqa tomonida ilgakli bulavka uchun petlyalari bor. Agar parda ilgakli bulavka bilan ilinsa, unda karniz pardaning orqa tomonida qolib ketadi. Tesma 2 barobar ko'p burma uchun olingan pardalarda va doim osib qo'yiladigan pardalarga tikiladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga o'z xonasiga mo'ljallab parda tanlash va uni eskizini chizib kelish topshiriladi.

63-64-mashg'ulot: Oddiy va murakkab usullarda pardalar tikish texnologiyasi. Kichik hajmda parda tikish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga oddiy va murakkab usullarda pardalar tikish texnologiyasi, kichik hajmda parda tikish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni parda tikish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda parda turlarini xona turi va devor guli hamda rangiga moslab to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: parda turlari tikilgan kichik hajmdagi namunalar, gazlama bo'laklari, tikuv mashinasi, mavzuga

oid buklet, plakatlar va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter


Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzuni o'qitishda munozara, savol-javob tarzida olib boriladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. Parda turlari namunalarini tikish ko'rsatmali tarzda bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar kichik hajmdagi parda namunalarini amaliy ravishda bajaradilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. Xato va kamchiliklar mashg'ulot jarayonida tahlil qilinadi va to'g'ri bajarish bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. O'quvchilarga ish jarayonida ishlatilayotgan asboblardan va moslamalardan: igna, qaychi, angishvona, santimetrli lentalarining har birini nomi, vazifasi va foydalanish yo'llari o'rgatiladi.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Mavzu yuzasidan amaliy ish bajariladi. *Kerakli asbob-uskuna va ashyolar:* stol, stul, turli pardalarni tikish texnologik xarita va tikilgan namunalar hamda parda eskizlari, tikuv mashinasi, dazmol, 2-3 m pardali gazlama, 1-1,5 m to'r gazlama, igna, angishvona, qaychi, santimetr lenta, gazlama rangiga mos 40-50-raqamli g'altak iplar, to'g'nog'ichlar, 0,5 m flizilin, 3 m korsaj lentasi, 1,5 m bezak tasma.

16-rasmda ko'rsatilgan parda komplektini tikish uchun uning detallarini bichib olinadi. To'r parda, qalin parda, tortib ko'tarib qo'yiladigan – lambreken va pardaning burmali shleyf bo'laklari.



16-rasm. Pardaning umumiy ko'rinishi

Avval pardaning to'r qismi tikib olinadi. Bunda pardaning yuqori qismi 1 sm bukib olinadi va 7 sm kenglikda flizilin yopishtirib chiqiladi. Pardaning 2 yon tomoni buklab tikib olinadi. So'ngra taxlamalar belgilab chiqilib, o'ng tomondan taxlamalar mashinada tikiladi (chok uzunligi 7 sm). Pardaning yuqori qismiga korsaj lenta tikib chiqiladi, bunda taxlamalar yorib dazmollangan bo'lishi kerak. Lentani tikish boshida va so'ngida mahkamlanadi.

Qalin pardani tikish to'r pardani tikishga o'xshaydi. Biroq bu pardalarni yon qismi 5 sm dan, yuqori va etak qismlari 10 sm dan 2 martadan bukilib bostirib

tikib olinadi. Pardaning yuqori qismiga taxlama qilinadi, korsaj lentasi tikib chiqiladi.

Tortib ko'tarib qo'yiladigan-lambreken pardaning avval tomonlari yo'rmab olinadi, 0,5-1,0 sm teskari tomonga bukib tikiladi. 2 ta yon qismiga va yuqori qismiga korsaj lentasi tikib chiqiladi. Etak qismiga bezak tasma tikiladi. Yon tomon korsaj lentalarini shunday tortib qo'yish kerakki, ular yuqori qism bilan bitta chiziqda tursin.

Pardaning shleyf qismini avval etak qismi tikiladi, so'ngra 2 ta yon qismi va yuqori qismi bukilib, xuddi qalin pardaga o'xshab taxlama tayyorlanadi. Taxlamalarni bir tomonga qaratib korsaj lentasi tikiladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'z xonasi uchun tanlangan eskiz bo'yicha parda namunasini kichik o'lchamda tikib kelish.

65-66-mashg'ulot: Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni amaliy ish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash, tikish va bezashda badiiy didlarini o'stirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash boyicha vidioroliklar, chok turlari to'qilgan namunalar, ilmoq, mavzuga oid buklet, plakatlari va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzuni o'qitishda munozara, savol-javob tarzida olib boriladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. Iste'moldan chiqqan buyumlardan bolalar kiyimlarining qanday turlarini tikish usullari ko'rsatmali tarzda bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar burilgan chizmalardan foydalanib andoza tayyorlaydilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. Xato va kamchiliklar mashg'ulot jarayonida tahlil qilinadi va to'g'ri bajarish bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Bir oz tikishni biladigan barcha ayollar iste'moldan yoki modadan chiqqan buyumlardan turli xil bolalar kiyimlarini tayyorlashlari mumkin. Masalan, erkaklar shimlaridan qiz bolalar uchun yubka, sarafan, 5 yoshli bolalar uchun palto yoki

kurtka, o`g`il va qiz bolalar uchun shim yoki shortik; erkaklar pidjagidan sport uslubidagi kurtkalarni, ko`ylagidan esa o`g`il bolalarga ko`ylak, qiz bolalarga esa bluzkalar tikish mumkin.


Buyumlarga qayta ishlov berishda istalgan fasondagi buyumni tayyorlab bo`lmaydi. Masalan, shimdan faqat 4 bo`lakli yubkalarni, bo`lakli yubkalardan esa xuddi shuncha yoki ko`proq bo`lakli yubkalarni, ko`ylaklardan esa mayda detallari ko`p bo`lgan qiz bolalar ko`ylaklarini tikish mumkin.

Agar buyumning o`ng tomoni o`z ko`rinishini yo`qotgan yoki oqargan bo`lsa, yaratilayotgan buyumning o`ngi qilib uning teskari tomonini olish mumkin. Iste`moldan chiqqan buyumni avval choklaridan ehtiyotkorlik bilan so`kiladi, iplardan tozalanadi, yuviladi va dazmollanadi. Dazmollangan buyum detallariga tayyorlangan bolalar kiyimlari andozalari qo`yib bichiladi. Agarda tikilayotgan buyum uchun asosiy gazlama bo`laklari yetmasa, u holda asosiy gazlama rangiga va fakturasiga mos ravishda boshqa yordamchi gazlama bo`laklaridan foydalanish mumkin. Bunda kombinatsiyalashgan buyum hosil bo`ladi. Agarda yordamchi gazlama bo`lagi yangi bo`lsa, u holda buyumni bichishdan oldin bu gazlamani yuvib dazmollash kerak, chunki buyum yuvilganda bu bo`laklari kirishmasligi uchun hamda boshqa bo`laklari kabi bir xilda ko`rinishga ega bo`lishi uchun.

Iste`moldan chiqqan buyum o`lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlashda albatta bu buyum detallariga qarash va bolalar kiyimlari modellarini chizib, so`ngra andozalarni tayyorlash tavsiya etiladi.

O`quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O`quvchilarga milliy qo`g`irchoqlar andozasini tayyorlab kelish topshiriladi.



17- rasm

67-68-amaliy mashg'ulot: Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni amaliy mashg'ulot jarayonida ozoda, sifatli va tez ishlashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: iste'moldan chiqqan buyumlar namunalari, mavzuga oid buklet, slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter, andoza qog'ozlari, andozalar, tikuv mashinasi.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzuni o'qitishda munozara, savol-javob tarzida olib boriladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish ko'rsatmali tarzda bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar andoza tayyorlashni va tikishni amaliy ravishda bajaradilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. O'quvchilarga ish jarayonida ishlatilayotgan asboblari va moslamalar: igna, qaychi angishvona, santimetrli lentalarining har birini nomi, vazifasi va foydalanish yo'llari o'rgatiladi.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab bolalar kiyimlari andozasi tayyorlanadi, buyum ustiga qo'yib bichiladi, texnologik xarita yordamida tikiladi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'tilgan barcha mavzularni o'qib kelish. Testga va savol-javoblarga tayorgarlik qilish.

III QISM

QISHLOQ XO`JALIK ASOSLARI YO`NALISHI

1-2 Mavzu: Qishloq xo`jalik ekinlari kasalliklari, uchraydigan zararkunandalarning turlari va ularga qarshi kurashish usullari.

Darsning maqsadi:

Ta`limiy – o`quvchilariga qishloq xo`jalik ekinlari kasalliklari, uchraydigan zararkunandalarning turlari va ularga qarshi kurashish usullari to`g`risidagi bilimlarni o`rgatish.

Tarbiyaviy – o`quvchilariga qishloq xo`jalik ekinlari kasalliklari, uchraydigan zararkunandalarning turlari va ularga qarshi kurashish usullaridan to`g`ri foydalanishni o`rgatish.

Rivojlantiruvchi – qishloq xo`jalik ekinlari kasalliklari, uchraydigan zararkunandalarga qarshi kurashish usullari egallash bo`yicha ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: qishloq xo`jalik ekinlari kasalliklari, uchraydigan zararkunandalarning turlari va ularga qarshi kurashish usullariga oid vidioroliklar, xavfsizlik texnikasi qoidalari bo`yicha plakatlar, rasmlar, qo`llanmalar, ma`ruza matni, lug`atlar, ma`lumotnomalar, test materiallari, savollar banki, topshiriq kartochkalari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalanadigan metodlar: og`zaki, ko`rgazmali, amaliy mashg`ulot, aqliy xujum kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism – 5
2. O`tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg`ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O`quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O`quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O`tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta`limi darslarida mavzuga oid o`tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo`riqnomasi: O`quvchilarga yangi mavzu zarur bo`lgan asbob-uskuna va ko`rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o`quvchilarni faollashtirib borishga e`tibor beriladi, amaliy mashg`ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo`riqnoma: O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi. O`qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojyat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko`rsatadi, har bir o`quv birligi bo`yicha xulosalar

qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so'raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha o'quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'mida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; o'quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ekinlarning kasalligi deganda nimani tushunasiz?
2. G'oz kasalliklarining turlari to'g'risida ma'lumot bering.
3. Vilt va gommoz kasalliklarining g'ozdagi tashqi belgilarini ayting.
4. Ekin zararkunandalari va kasalliklari deganda nimani tushunasiz?
5. Ekin zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurashida qanday usullar mavjud?
6. Ekin o'simligi kasallansa uning hosildorligiga qanday ta'sir qiladi?

5. Uyg'a vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o'rganib kelish.
3. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzu bo'yicha 10 ta test tuzib kelish.

3-6 Mavzu: Mahalliy hududda uchraydigan qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari va ularga qarshi kurashish tadbirlari zararkunandalarining ro'yxatini tuzishni, ularga qarshi kurashish tadbirlarini bilish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga mahalliy hududda uchraydigan qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari va ularga qarshi kurashish tadbirlari zararkunandalarining ro'yxatini tuzishni, ularga qarshi kurashish tadbirlarini bilish to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish.

Tarbiyaviy – o'quvchilariga mahalliy hududda uchraydigan qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari va ularga qarshi kurashish tadbirlari zararkunandalarining ro'yxatini tuzishni, ularga qarshi kurashish tadbirlarini bilish ulardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi – mahalliy hududda uchraydigan qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari va ularga qarshi kurashish tadbirlari zararkunandalarining ro'yxatini tuzishni, ularga qarshi kurashish tadbirlarini bilish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari, uchraydigan zararkunandalarining turlari va ularga qarshi kurashish usullariga oid vidioroliklar, xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha

plakatlar, rasmlar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, savollar banki, topshiriq kartochkalari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalanadigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy mashg'ulot, interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism – 5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta'limi darslarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Fitopatologiya yunon tilida *phyton*–o'simlik, *pathos*–kasallik, *logos*–ta'limot degan so'zlardan olingan bo'lib – o'simlik kasalliklari to'g'risida ta'limot degan ma'noni anglatadi. Fitopatologiya fani kasallangan o'simlikni har tomonlama o'rganib, patologik jarayon natijasida unda vujudga keladigan tashqi va ichki belgilarni, kasallikning kelib chiqish sabablarini, tarqalishini, ekologik holatga bog'liq ravishda namoyon bo'lishini, kasallikning keltiradigan iqtisodiy zararini, kasallikka o'simlikning immunitet xususiyatlarini, kasallikning kelib chiqishini oldindan aniqlash va unga qarshi kurash choralarini belgilab, kasallangan o'simliklarni sog'lomlashtirish yo'llarini o'rgatish asosida ulardan mo'l hosil olishni o'rgatadi.

Poliz ekinlariga tuproq sho'rligining zarari. Yer sho'rligining sababi natriy va magniyning xlorid, sulfat, karbonat, bikarbonat, boratlari va boshqa tuzlar bo'lishi mumkin. Poliz ekinlari yer sho'rligiga o'rtacha chidamsizdir. Tuzlar ko'pligi ildizlarni zararlaydi, o'simliklar pakana bo'lib qoladi, hosil pasayadi. Zararlangan o'simliklarning rangi to'qroq bo'ladi. Tuzlar ta'sirida barglarning chetlari kuyadi.

Kurash choralari. Zovurlar va drenaj tizimini qo'llash, yerning sho'rini yuvish, jo'yaklarni balandroq olib, ekinni ularning yon tomonlarida joylashtirish tavsiya etiladi.



Bodring kladosporioz dog'lanishi

Zararkunandalarga qarshi kurashish Respublikamizda ko'p zarar keltiruvchi zararkunandalar va o'simlik kasalliklari ta'sirida, sabzavot va poliz ekinlarining 35-45 foiz hosili kamayadi. Shuning uchun ularga qarshi kurash tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazmoq zarur.

Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash olib borish asosan 5 xil usulda o'tkaziladi.



1. Agrotexnikaviy: yerni sifatli haydash, ekish, sug'orish, chopiq, ozuqa moddalarini berish, hosilni yig'ishtirib olish ishlarini o'z vaqtida o'tkazish.

2. Biologik usul yordamida kurash bunga foydali kushandalarni qo'llash kiradi.

3. Kimyoviy usulda har-xil piretroid dorilar zararkunandalarga va kasalliklarga qarshi qo'llaniladi.

4. Fizik usulda qarshi kurashishga: qizdirish, kuydirish kabi usullar kiradi.

5. Mexanik usulda qarshi kurashishda hasharotlardan kolorado qo'ng'izi, karam oq kapalagini qo'lda teriladi.

Ko'k qurt tunlami hamma turdagi sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini kemirib zararlaydi va ekinlar ola bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Bunday holni bartaraf etish uchun gektariga 0,5 l. hisobida Detsis preparati yoki 2 kg Entobakterin, foydali kushandalardan 200 ming dona trixogramma uch muddatda qo'llaniladi: birinchi marta ko'k qurt tunlamining kapalaklari chiqqan vaqtda, ya'ni tuxum qo'yish davrida 60 ming hisobida, ikkinchi marotaba bir hafta o'tgach 80 ming hisobida, uchinchi marta ikkinchi qo'llashdan 10 kun keyin 60 ming dona hisobida qo'yiladi. Bu usulni ko'sak qurtiga va karadrinaga qarshi ham qo'llash mumkin.

Kolorado qo'ng'izi. Kartoshka, baqlajon, pomidor o'simliklariga jiddiy zarar yetkazadi. Bu zararkunandaga qarshi kurashda Detsis preparatidan gektariga 0,5 litr yoki Karate preparatidan 0,350 kg. yoki Summiapfadan 0,5 l. yoki Benzofosfatdan 2 kg yoki Danitoldan 1 litr hisobida qo'llash mumkin.

Karam kuyasi, karam oq kapalagiga qarshi ham kolorado qo'ng'iziga qo'llanilgan preparatlarni sepish mumkin.

O'rgimchakkana - baqlajon, kartoshka, qovun, tarvuz, bodring kabi ekinlarga katta zarar yetkazadi. Bu zararkunandaga qarshi Danitol 1 l/ga yoki Neoron 1,5 l/ga, Omayt 2 l/ga yoki Nissoran 0,3 - 0,5 l/ga hisobida purkash tavsiya qilinadi.

Zang kana - ochiq va yopiq maydonlarga ekiladigan pomidorga hamda kechki kartoshkaga katta zarar keltiradi. U o'simlik barglarini kesib, so'rib zararlaydi. Zang kanani oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Uni faqat mikroskop ostida ko'rish mumkin, shuning uchun uning zarari tez bilinmaydi, natijada pomidor va kartoshkani barglari tez qurib qoladi. Bu zararkunandaga qarshi o'rgimchakkanaga qarshi qo'llaniladigan preparatlardan foydalanish mumkin yoki suvda eruvchan 80 foizli oltingugurti gektariga 5-7 kg hisobidan ishlatish tavsiya qilinadi.

Shiralalar. Poliz shirasi, akatsiya shirasi sabzavot, poliz ekinlariga, karam shirasi esa faqat karamga so`rib zarar keltiradi. Shiralar o`simlik barglarining orqasiga, o`shish nuqtasiga joylashib, ularni so`rib zararlaydi. Zararlangan o`simlik o`shishdan, hosildan qoladi.

Bularga qarshi BI-58 1-1,5 l/ga yoki Nurell -D 0,5 l/ga, Aktellik 1,5 l/ga, Talstar 0,8 l/ga hisobida qo`llash mumkin.

O`simliklarni shiralarning qanotli lichinkalari so`rib zararlaydi. Zararlangan o`simlikning barglari ustida yopishqoq shiralalar paydo bo`ladi. Bu shiralarga qora zamburug`lar yopishishi oqibatida o`simlik barglari qurib qoladi, natijada hosil keskin kamayadi. Bu zararkunandalarga qarshi Aploud preparatidan gektariga 0,5 kg va Talstar preparatidan 0,8 litr qo`shib purkalsa, oq qanot va lichinkasiga 95-99 foiz ta`sir qiladi yoki Trixoporus kushandasidan 1:5 hisobida qo`llash mumkin.

Kasalliklar. Zamburug`li kasalliklar pomidorga, qo`ng`ir dog`lanish, ildiz chirish, bodring, qovun, qovoqqa un shudring, soxta un shudring kasalliklari zarar keltiradi. Bu kasalliklar namlik ortgan, havo issiq bo`lgan paytlarida ko`p zarar keltiradi.

Bularga qarshi Topsin - M dan gektariga 0,7 ga yoki Topaz 0,5 l yoki Saprol 0,8 l yoki suvda eruvchi 80 foizli Oltingugurtdan 4 kg hisobida purkash mumkin.

Virusli kasalliklar Stolbur, Strik, Mozaika kasalliklari kiradi.

Stolbur bilan kasallangan o`simliklarning uchlaridagi barglari maydalashadi, gul kosachalari bujmayib, mevalari noksimon bo`lib qoladi. Bu kasallik ko`proq ochiq va yopiq maydonlardagi pomidorda uchraydi.

Mozaika bilan kasallangan pomidor, bodring, qovun va qovoqlarning barglari qalinlashib, tarnovsimon va tez sinadigan bo`lib qoladi.

Strik kasalligi ko`proq pomidorda uchraydi. Bu kasallikka chalingan pomidorning poyasi qotib quriydi, mevalari esa qotib yoriladi va iste`mol uchun yaroqsiz bo`lib qoladi.

Virus kasalliklarining oldini olish uchun pomidor urug`lari ikki kun 50-55 daraja, uchinchi kuni bir kun (24 soat) 80 daraja issiqlikda qizdiriladi va 0,03 foizli metilsink yoki margansovkada 8 soat ivitilib, so`ng ekiladi.

O`suv davrida virus kasalliklari bilan kasallangan o`simliklar har-xil mikroelementlar bilan ya`ni marganets, ruh, sink, bor, molibden, yod kabilar bilan dorilanadi.

Bakteriyali kasalliklar bilan kasallangan ekinlarda Topsin-M preparatini gektariga 0,7-1,0 kg hisobida sarflash mumkin.

Yuqorida keltirilgan preparatlar ochiq maydonlarda gektariga 600 l. yopiq maydonlarda 1 t. suvga aralastirib sepiladi. Piretroid va kimyoviy dorilar bilan ishlaganda, albatta mutaxassis nazorati o`rnatilishi zarur.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ekinlarning kasalligi deganda nimani tushunasiz?
2. Ekin zararkunandalari va kasalliklari deganda nimani tushunasiz?
3. Ekin zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurashida qanday usullar mavjud?

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o'rganib kelish.
3. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ma'lumotlarni o'rganib kelish.

7-8 Mavzu: O'g'it solish, urug'larni ekish, hosilni yig'ishtirish, tashish va tozalash mashinalari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga o'g'it solish, urug'larni ekish, hosilni yig'ishtirish, tashish va tozalash mashinalari to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish.

Tarbiyaviy – o'quvchilariga o'g'it solish, urug'larni ekish, hosilni yig'ishtirish, tashish va tozalash mashinalari xavfsiz ishlash usullaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi – o'quvchilarning o'g'it solish, urug'larni ekish, hosilni yig'ishtirish, tashish va tozalash mashinalari ishlash prinsiplarini takomillashtirish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlar, o'g'it solish, urug'larni ekish, hosilni yig'ishtirish, tashish va tozalash mashinalari to'g'risida vidioro'liklar, rasmlar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, savollar banki, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "B\B\B", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta'limi darslarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va ko'rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borishga e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo'riqnoma: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi. O'qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojzat etadi, mavzuning eng

asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so'raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha o'quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo'riqnoma: Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; o'quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Organik o'g'itni siz qanday tushunasiz?
2. Mineral o'g'itlar organik o'g'itlardan farqini aytib bering?
3. O'g'itni yerga solish mashinalari va ularning markalarini aytib bering.
4. Ekin ekadigan seyalkalarning umumiy tuzilishini ayting?
5. Seyalkalar qanday markalar bilan markalangan.
6. Paxta ekish seyalkaning tuzilishini aytib bering?
7. Seyalka qaysi traktorlarga tarqaladi?
8. Qaysi ekinlar sabzavotlar hisoblanadi.
9. Sabzavot ekinlarni yig'ib olish mashinalarini bilasiz?
10. Ildizli mevalarni yig'ib olishda qaysi mashinalar ishlatiladi.
11. Ekinlarni tozalagich mashinalar nima uchun kerak?
12. Don tozalagich mashina to'g'risida nimalarni bilasiz?

5. Uyg'uz vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o'rganib kelish.
3. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzu bo'yicha 10 ta test tuzib kelish.

9-10 Mavzu: Organik va mineral o'g'itlar solish mashinlarining turlari. O'g'itlash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga organik va mineral o'g'itlar solish mashinlarining turlari hamda o'g'itlash to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish;

Tarbiyaviy – o'quvchilariga organik va mineral o'g'itlar solish mashinlarining turlarini o'rganish hamda o'g'itlashni o'rganishda xavfsiz ishlash usullaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi – o'quvchilarning organik va mineral o'g'itlar solish mashinlarining turlarini o'rganish hamda o'g'itlashni o'rganish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlari, proeksion materiallar, rasmlar, chizmalar,

jadvallar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "Debatlar" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta'limi darslarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va ko'rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borishga e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo'riqнома: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi. O'qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojyat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so'raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha o'quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo'riqнома: Yakuniy yo'riqнома berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'mida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; o'quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. O'g'it solishga necha xil agrotexnika talabi bor?
2. Har qaysi tuproqqa o'g'it solish turiga qisqa dalolatnoma bering?
3. Mineral o'g'itlarni sochib sepish uchun qanday uskunalardan foydalaniladi?

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o'rganib kelish.
3. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzu bo'yicha 10 ta test tuzib kelish.

11-12 Mavzu: Donli va moyli ekinlarni ekish, sug'orish va parvarish qilish usullari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga donli va moyli ekinlarni ekish, sug'orish va rarvarish qilish usullaridan to'g'ri foydalanish to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish;

Tarbiyaviy – o'quvchilarga donli va moyli ekinlarni ekish, sug'orish va rarvarish qilish usullaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi – donli va moyli ekinlarni ekish, sug'orish va parvarish qilish usullarini egallashga oid ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlar, proektsion materiallar, rasmlar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "Charxpalak", "aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta'limi darslarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va ko'rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borishga e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi. O'qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojlat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so'raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha o'quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalari amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; o'quv

topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to`g`ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

5. Uyg`uz vazifa berish:

1. Mavzu bo`yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo`yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o`rganib kelish.
3. O`tilgan mavzu yuzasidan qo`shimcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzu bo`yicha 10 ta test tuzib kelish.

13-14 Mavzu: Ekinlarni ekish usullari va ko`chat o`tzazish

Darsning maqsadi:

Ta`limiy – o`quvchilariga ekinlarni ekish usullari va ko`chat o`tzazish to`g`risidagi bilimlarni o`rgatish;

Tarbiyaviy – o`quvchilariga ekinlarni ekish usullari va ko`chat o`tzazish asosida ekologik tarbiya berish;

Rivojlantiruvchi – ekinlarni ekish usullari va ko`chat o`tzazish bo`yicha ko`nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo`yicha plakatlar, o`g`it solish, urug`larni ekish, hosilni yig`ishtirish, tashish va tozalash mashinalari to`g`risidagi vidioroliklar, proeksion materiallar, rasmlar, qo`llanmalar, ma`ruza matni, lug`atlar, ma`lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og`zaki, ko`rgazmali, "Blist", "aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O`tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyg`uz vazifa berish-5

Mashg`ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O`quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O`quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O`tilgan mavzuni takrorlash. Uyg`uz berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta`limi darslarida mavzuga oid o`tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo`riqnomasi: O`quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo`lgan asbob-uskuna va ko`rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o`quvchilarni faollashtirib borishga e`tibor beriladi, amaliy mashg`ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo`riqnoma: O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi. O`qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojlat etadi, mavzuning eng

asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so'raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha o'quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo'riqnoma: Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; o'quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ekinlarni ekish usullarini tavsiflab bering.
2. Mevali va rezavor mevali o'simliklarga misollar keltiring.
3. Ko'chat o'tqaziladigan chuqurni tayyorlash jarayonini tushuntirib bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o'rganib kelish.
3. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda 10 ta test tuzib kelish.

15-18 Mavzular: Urug'larni ekish seyalkalarining tuzilishi va ishkash printspi

Darsning maqsadi: o'quvchilarga qishloq xo'jaligi ishlarini tashkil qilishda urug', ko'chat hamda kartoshka o'tqazish mashinalarining turlari, tuzilishi va ishlash jarayonlarini o'rgatish.

Darsning vazifalari:

- o'quvchilarni urug', ko'chat hamda kartoshka o'tqazish mashinalarining tuzilishi va turlari bilan tanishtirish;
- mashinalarning vazifasi va qo'llanish sohalari to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish;
- mashinalarning asosiy texnik ko'rsatkichlari bilan tanishtirish;
- mashinalardan foydalanishda rioya qilinadigan XTQlarini o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: o'quvchilarga urug', ko'chat hamda kartoshka o'tqazish mashinalarining tuzilishi va turlari to'g'risida bilim berish, amaliy mashg'ulot jarayonida ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, "Nilufar" guli.

Darsning jihozi: komp'yuter texnikasi, grafoproyektor, slaydlar, ko'rgazmali qurollar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism (4 daqiqa): Salomlashish. O'quvchilarning darsga

tayyorgarligini nazorat qilish. Davomatni aniqlash.

II. O`tilgan dars mavzusini so`rash (10 daqiqa): O`quvchilar o`rtasida savol-javob metodi orqali o`tilgan mavzuni takrorlanadi. O`quvchilarga berilgan vazifalar tekshiriladi va ularni baholanadi. O`tilgan mavzu bo`yicha quyidagi savollar beriladi:

1. Ekin qator oralariga ishlov beruvchi kul`tivatorlarning qanday turlarini bilasiz?

2. Kul`tivatorlarning tuzilishini tushuntirib bering?

3. Kul`tivatorlardan foydalanib bajariladigan ish tartibini tushuntiring?

4. Xavfsizlik texnikasi qoidalarini sanab bering?

III. Yangi mavzu bayoni (20 daqiqa):

Reja:

1. Urug` ekish seyalkalarining turlari, tuzulishi

2. Ko`chat ekish mashinalari

3. Kartoshka o`tqazish mashinalari va ulardan foydalanish

Sabzavot va poliz urug`larni ekishda asosan seyalkalardan foydalaniladi. Ekish usuliga qarab seyalkalar qatorlab, tor qatorlab, kvadrat uyalab, punktirlab, bitta urug` tashlab va sochib ekadigan xillarga bo`linadi.

Qatorlab ekadigan kombinatsiyalangan seyalka urug`ni dalada bir tekis joylashtirish bilan birga donador mineral o`g`itlarni qator oralariga kerakli chuqurlikda solish uchun xizmat qiladi. Bu maqsadda sanoatda urug`larni katta aniqlik bilan taqsimlay oladigan o`matma universal SO-4,2 sabzavot seyalkasi ishlab chiqarilgan (11-rasm).



11-rasm. Urug` ekish seyalkasi.

Urug` ekish seyalkasida urug` va o`g`it solinadigan yashik, markyorlarni ko`tarib tushiradigan gidrosilindr, tros, zanjirli reduktor, markyor, rama, tayanch yurgizish g`ildiragi, o`g`it soluvchi soshnik, ikki yo`llik soshnik, g`altaklar, podnoshka, elektr signalizatsiyalardan tashkil topgan.

Aylanma tipdagi tayanch-yurgizish g`ildiraklari teleskopik stoykaga o`rnatilgan, bu esa tuproq sirtiga nisbatan rama holatini o`zgartirish, tekis yuzalarga, pushta va morzalarga urug` ekish imkonini beradi. G`ildirakning aylanma konstruksiyasi seyalka g`ildirak izlari orasidagi masofani 3,6 m dan 4,2 m gacha o`zgartirish imkonini beradi. Bir yo`lli va ikki yo`lli soshniklar o`rnatiladi.

Bir yo`lli soshnik payvandlab yasalgan rama, sharnirli to`rt zvenoli

mexanizm, urug' voronkasi hamda bir-biriga nisbatan o'zgarimas burchak ostida o'rnatilgan ikkita diskdan tashkil topgan.

Ikki yo'lli soshnik bir yo'llisidan ikkita almashtiriladigan urug' voronkasi hamda bir-biriga nisbatan o'z holatini o'zgartira oladigan disklari borligi bilan farq qiladi.

IV. O'quvchilarni turli xil ko'rinishdagi traktorga tirkab ishlatiladigan moslamalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish (35 daqiqa):

Urug' ekish apparatlari. Seyalkalarda ikki xil, ya'ni g'altakli va diskli urug' ekish apparatlari ishlatiladi. Ishlash printsipiga ko'ra ular mexanik va pnevmatik xillarga bo'linadi.

G'altakli urug' ekish apparatining asosiy ish organi bo'lmish novli g'altak valda mahkamlangan va qutiga joylashtirilgan. G'altak aylanganda urug' novlarga tushadi va undan quti tashqarisidagi urug' o'tkazgichga o'tadi.

Diskli urug' ekish apparatlari yordamida tariq, loviya va soya urug'larini ekish mumkin.

Apparat urug' solinadigan bunker, korpus, ekish diski, tozalagich, urug' qaytargich, uchta ponasimon itargichlar, val-shesterniya hamda oraliq shesterniyadan tashkil topgan.

Seyalkaning uzatish mexanizmlari. Barcha seyalkalarda ekish apparatlariga aylanma harakat yuritish g'ildiraklari yoki g'altaklardan uzatiladi. Bular asosan tishli, zanjirli va tishli-zanjirli uzatmalar bo'ladi.

Tishli uzatmalar yuritish g'ildiragi o'qi bilan ekish apparatlari vallari orasidagi masofa uncha katta bo'lmaganda ishlatiladi. Agar bu masofa nisbatan katta bo'lsa, zanjirli uzatmalar ishlatiladi. Ko'pincha tishli-zanjirli uzatmalardan foydalaniladi.

Markyorlar. Ekish agregatining to'ppa-to'g'ri harakatlanishini ta'minlash va yondosh qatorlar orasining enini bir xilda saqlash uchun markyorlardan foydalaniladi. Ular seyalka ramasiga tirkagichda (o'ng va chap tomondan) o'rnatiladi. Ko'pincha sferik disk ko'rinishida ishlangan metchik vositasida tuproqda ekin ekilmagan maydon tomonidan egatcha ochadi. Navbatdagi o'tishda traktorchi traktorning old o'ng g'ildiragini yoki gusenitsasining o'ng qirrasini ana shu egatcha bo'ylab yo'naltiradi. Hozirgi kunda ishlatiladigan poliz seyalkalarida gidroko'targichli markyorlardan foydalanilmoqda.

Seyalkalarni ishga tayyorlash. Dalaga chiqqunga qadar seyalka va ekish agregatlarini tekshirish va ishga puxta tayyorlash zarur. Avvalo seyalkalar yig'ilgan qismlarining mahkamlanishi tekshiriladi, ekish apparatlari, urug' o'tkazgichlar, soshniklar ko'zdan kechiriladi. Aniqlangan barcha nuqsonlar bartaraf etiladi. Urug' solinadigan yashikni tozalanadi. Shundan so'ng uzatish mexanizmi, soshniklarning yurish chuqurligini rostdash mexanizmlari tekshiriladi va seyalkalar moylanadi. Nihoyat, urug' ekish apparatlarining bir me'yorda urug' ekishi tekshiriladi va seyalka ekish normasiga o'rnatiladi.

Karam, pamidor, baqlajon, garimdorilarning ko'chatlari o'tqaziladi. Ko'chatlarni o'z vaqtida sifatli qilib o'tqazish yuqori hosil olishda katta ahamiyatga ega. Ko'chatlarni sifatli o'tqazish uchun ekishdan oldin yirik kesaklar

frezali KFG-3,6 kul'tivatori bilan maydalanadi. Bundan tashqari, yerni yaxshilab tekislash kerak.

O'rta Osiyo sharoitida ko'chat o'tqazish mashinasining suv quyish mexanizmi bilan suv ko'chat o'tqaziladigan joyga portsiyalab emas, balki uzluksiz oqim bilan beriladi.

Ko'chat o'tqazib bo'lingach, ko'chat tutib qolishi uchun egatlar bo'ylab o'sha zahoti suv oqiziladi, 5-6 ta normal rivojlangan bargli karam ko'chatining balandligi (ildiz bo'ynidan yaproq uchigacha) 12-15 sm bo'lishi kerak, 8-10 ta bargli pamidor ko'chatining balandligi 20-25 sm bo'lishi lozim.

Ko'chat o'tqazishda SKN-6 va SKN-6A ko'chat o'tqazish mashinalaridan foydalaniladi.

O'rnatma SKN-6 ko'chat o'tqazish mashinasi universal bo'lib, sabzavot ko'chatlarini 60, 70, 80 va 90 sm qator oralariga qatorlab ekish uchun mo'ljallangan.

SKN-6 mashinasi traktorning o'rnatish mexanizmiga briktilgan va unda montaj qilingan uzal va mexanizmlardan tashkil topgan. Suv baki, ko'chat solinadigan yashiklar uchun stellajlar, baklarni suv bilan to'ldirish uchun xizmat qiladigan vakum qurilmasi traktorga o'rnatiladi. Ko'chat o'tqazish mashinasining ish qismi traktorning o'rnatish sistemasiga briktililadi.

Ko'chat o'tqazish apparatlari tuproqda egat ochish, ko'chatni o'tqaziladigan joyga keltirish, ko'chat ildizi ostiga suv quyish hamda o'tqazilgan ko'chat atrofidagi tuproqni zichlash uchun xizmat qiladi.

SKN-6 ko'chat o'tqazish mashinasi 0,5-1,7 km/soat ish tezligida ishlaganda uning ish unumi 0,22-0,65 ga/soat. Qamrash kengligi 3,0-4,6 m, qator oralarining eni esa 60, 70, 90 sm. bitta o'tishda 4-6 qatorga ko'chat ekiladi, qatordagi ko'chatlar orasidagi masofa (ko'chat o'tqazish qadami) 21-70 sm, soshniklarning tuproqqa botish chuqurligi 6-15 sm.

SKN-6A ko'chat o'tqazish mashinasida yoysimon o'tqazish apparati bo'lib, ko'chatlarni tuvakchalarda va tuvakchalarsiz qatorlab o'tqazish uchun mo'ljallangan. Bu mashinalarning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, har bir o'tqazish apparatida bitta emas, balki ikkita ko'chat o'tqazuvchi ishlaydi.

Kartoshkani sifatli ekish uchun avvalo tuproq kul'tivator yordamida yirik kesaklari maydalanadi va mayda strukturali tuproq hosil qilinadi. Bu esa hosilni kombayin bilan yig'ib olish uchun zarurdir. So'ngra dala yaxshilab tekislanadi. Ekiladigan kartoshka saralab olinadi. Ekishga ajratilgan tuganaklar 50-60 g oqirlikda bo'lishi kerak, aks holda yirik tuganaklar ekish apparatining qoshiqchalariga yomon ilashadi va shikastlanishi mumkin.

Kartoshka o'rnatma va yarim o'rnatma, to'rt va olti qatorli kombinatsiyalangan SN-4B, SKS-4, SAYa-4 va SKM-6 kartoshka ekkichlari bilan ekiladi.

To'rt qatorli yarim o'rnatma SAYa-4 kartoshka ekkichi avtomatik boshqariladigan bo'lib, undirilgan va oddiy kartoshka tuganaklarini ekish bilan birga egatga o'g'it solish uchun ham xizmat qiladi. Ekkich bunkerining sig'imi 470 kg teng.

Yuqorida keltirilgan barcha mashinalar va mashinaning boshqa mexanizmlari traktorning ketingi sinxron yoki mustaqil quvvat olish validan harakatga keltiriladi.

Urug' ekish, ko'chat hamda kartoshka o'tqazish mashinalariga qo'yiladigan agrotexnika talablar quyidagilardan iborat:

Agrotexnika talablariga muvofiq sabzavot seyalkalari bir me'yorda urug' ekishi kerak, belgilangan normadan ko'pi bilan 5% chetga chiqishga ruxsat etiladi, ayrim ekish apparatlari bilan urug' ekishning o'rtacha notekisligi 4% dan oshmasligi zarur.

Seyalka urug'ni 2 dan 5 sm gacha bo'lgan chuqurlikda ekishi kerak, bunda 1 sm ga chetga chiqishga ruxsat etiladi. Tutash qator oralari kengligining chetga chiqishi 2 sm dan, agregatning qo'shni o'tishlaridagi chetga chiqishi esa 5 sm dan ortib ketmasligi kerak.

Ko'chat o'tqazish mashinalariga qo'yilgan agrotexnika talablarida ko'chatni, uning ildizini bir oz egib tuproqqa vertikal o'tqazish, har bir ko'chatga 0,2-0,6 litr hisobida egatga suv quyish ko'zda tutiladi. Bunda ko'chatlar shikastlanmasligiga, ko'chat oralarida xato bo'lmasligiga va ular tuproq bilan bekilib qolmasligiga e'tibor berish kerak. Ko'chat o'tqazish chuqurligi 5-23 sm, ko'chat qator oralari 50-120 sm, ko'chatlar orasidagi masofa (ko'chat o'tqazish qadami) 10-140 sm bo'lishi lozim. Agar ko'chat o'tqazish qadami 35 sm dan kam bo'lsa, ekin yoppasiga sug'oriladi, qadam katta bo'lganda har bir ko'chatning o'ziga suv quyiladi.

V. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlash va baholash (15 daqiq): O'quvchilar mavzuni o'rganishlari davomida turli muammolarga duch keladilar. Ushbu muammolarni hal qilish orqali ham ishlarni tashkil etish mumkin. O'qituvchi kelib chiqqan muammolarni hal qilishda o'quvchilarga "Nilufar" guli usulini tushuntirib beradi va ulardan berilgan jadval kataklarini to'ldirib borishni so'raydi.

"Nilufar" guli usuli bo'yicha metodik tavsiya

"Nilufar" guli usuli - muammoni yechish vositasi. O'zida nilufar guli ko'rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to'qqizta katta to'rt burchaklar tashkil etadi. Tizimli fikrlash, taqlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

1. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda chizma tuzadilar: to'rt burchak markazida avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar. Uning yechish qoyalarini esa markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozadilar. Markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozilgan g'oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to'rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya'ni gulning barglariga olib chiqadilar. Shunday qilib, uning har biri o'z navbatida yana bir muammodek ko'riladi.

2. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar, so'ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko'rib chiqish uchun "kichik shoxchalarni" chiqaradilar. Shunga asosan har bir g'oyalar

rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin.

3. Ish natijalarining taqdimoti.

“Nilufar” guli chizmasini tuzish qoidalari

1. Amaliy nuqtai nazardan barcha g'oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralarning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.

2. Sizga katta qog'oz varag'i zarur bo'ladi. Doimo o'zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog'ozda ko'rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

Masalan, “Nilufar” guli chizmasini “Urug' ekish, ko'chat hamda kartoshka o'tqazish mashinalari” mavzusi bo'yicha quyidagicha tartibda to'ldirish mumkin:

“Nilufar” guli chizmasi

| | | | | |
|---|---|---------------|---|---|
| Urug' ekish apparatlari | Seyalkaning uzatish mexanizmlari | Markyorlar | | |
| Urug' ekish | Seyalkalar nima uchun kerak | O'g'it solish | | |
| | | | | |
| Ko'chat o'tqazish apparatlarida qanday vazifalar bajariladi | Ko'chat nima uchun mashinalarda o'tqaziladi | | Seyalkalar nima uchun kerak | Agrotexnik talablar nimalardan iborat |
| Agrotexnika talablar nimalardan iborat | Ko'chat o'tqazish mashinalarida qanday vazifalar bajariladi | | Ko'chat o'tqazish mashinalarida qanday vazifalar bajariladi | Urug' ekish, ko'chat hamda kartoshka o'tqazish mashinalaridan qanday tartibda foydalaniladi |
| | | | Kartoshka o'tqazish mashinalarining qanday turlari bor | |

V. Uyga vazifa berish va darsni yakunlash (6 daqiqa): a) o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish; b) uyga vazifa – mavzuga oid yangi ma'lumotlarni to'plash va mustaqil ravishda "Nilufar" guli jadvalini to'ldirib kelish; v) Ish joyini yig'ishtirish.

19-20 Mavzu: Yopiq joylarda hosil yetishtirish texnologiyasi va unda foydalaniladigan mashinalar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga yopiq joylarda hosil yetishtirish texnologiyasi va unda foydalaniladigan mashinalari to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish;

Tarbiyaviy – o'quvchilariga yopiq joylarda hosil yetishtirish texnologiyasi va unda foydalaniladigan mashinalaridan foydalanish tartibi bo'yicha tarbiya berish;

Rivojlantiruvchi – yopiq joylarda hosil yetishtirish texnologiyasi va unda foydalaniladigan mashinalari bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlar, vidioroliklar, proeksion materiallar, rasmlar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

Xalqimizning yil bo'yi yangi yetishtirilgan mahsulotlarga ehtiyojini qondirish maqsadida qishda issiqxonalarda, parniklarda ham o'simliklar o'stirilib, parvarish qilinadi. Issiqxonalarda va parniklarda sabzavotlar ikki usulda: bevosita issiqxona ichida va usti polietilen plyonka bilan yopilgan joyda yetishtiriladi.

Keyingi yillarda respublikamizning sabzavot yetishtiradigan xo'jaliklarida plyonka ostida sabzavot (bodiring, karam, pomidor), har xil ko'katlar va hatto kartoshka yetishtirish avj olib ketdi. Bu aholini yangi qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan barvaqt ta'minlashga yordam beradi. Plyonka ostida sabzavot yetishtirish. Plyonka ostiga ekin ekiladigan yerlar janub tomonga qiyaroq bo'lsa, u bahorda tez qiziydi va urug' yoki ko'chatlarni barvaqt, qisqa muddat ichida ekib olish imkonini beradi. Buning uchun yerlar kuzda haydalib, borona bosiladi va ekin turiga qarab egat olinadi. Yerdan qor ketishi bilan (fevral-mart) egatlar usti polietilen plyonka bilan berkitiladi, bu tuproqning qizishiga yordam beradi. Buning uchun diametri 4-6 mm, uzunligi 90-100 sm keladigan simlar yarim oysimon shaklda egiladi va ekiladigan egatlar o'rtada qoldirilib, simning ikki uchi yerga qadaladi. Har bir egilgan simning oralig'i 100 sm dan bo'lib, ularni bir-biriga kanop iplar yordamida birlashtiriladi. Egatlar bosh va etak tomoniga qoqilgan qoziqlarga ikki uchi tarang

tortib bog`lanadi. Plyonka yopilgan egatlar tuprog`i 8-10 kunda qiziy boshlaydi va ularga dalaga nisbatan 1-2 oy ilgari ekinlar urug`ini ekish yoki ko`chatini o`tqazish mumkin.


Issiqxonalar – maxsus oynavand binolar bo`lib, isitish manbalaridan foydalangan holda ekinlar yetishtiriladi. U yerning tuprog`i himoyalangan bo`lib, unda yilning har qanday davrida ham o`simliklarni o`stirish mumkin. Qishkisidan tashqari bahorgi, yozgi issiqxonalar ham bo`ladi. Unda o`simliklarni yetishtirish uchun qulay sharoit yaratish imkoniyati mavjud. Masalan, har bir ekin uchun maxsus tuproq aralashmasi tayyorlanadi. Tabiiy yorug`likka sun`iy yorug`lik qo`shimcha qilinadi. Havo va tuproq harorati boshqarib turiladi. O`simliklarni o`z vaqtida sug`oriladi va oziqlantiriladi. Bu ishlarning hammasi yuqori hosil olishga yordam beradi.

Yil davomida sabzavotlar yoki gullar o`stirish uchun katta issiqxona kombinatlari yaratiladi. Parniklar asosan karam, pomidor, boshqa sabzavotlar va manzarali gullarni yetishtirish uchun mo`ljallangan.


Issiqxonadan farqli ravishda, parnikda oynavand plyonkali maydoni uncha katta bo`lmaydi hamda o`simliklar lozim bo`lganda, plyonkasi ko`tarilib parvarish qilinadi. Ularni quyosh nuri bilan, biologik usulda (go`ng, xashak, torf va b.), texnikaviy usulda (suv, bug`, elektr energiyasi), pech bilan isitish vositalaridan foydalangan holda o`stiriladi. Ularning tuzilishi oddiy chuqurlikdan iborat bo`lib, oyna yoki plyonka bilan yopilgan qurilmadan iborat. Agarda, kun issiq bo`lsa, uning usti faqat kechasigina yopiladi. Ko`pincha ular, sintetik plyonkalar bilan yopiladi. Ular uchun tuproq oldindan tayyorlanadi. Buning uchun chirindili tuproqdan foydalaniladi. Chirindili tuproq quruq yaylovdan olingan, chirib ketgan o`simlik qoldiqlari, poyalari va eng yaxshisi, (chim hisoblanadi). Yozda go`ng, kul yoki ohak qo`shish orqali tayyorlanadi. Bu vaqt davomida ikki-uch marta ag`darib chiqiladi. Yumshoq suv o`tkazadigan tuproq aralashmasini tayyorlash uchun qum kerak bo`ladi. Qimmatli ozuqa moddalarini yuvilib ketmasligi uchun tuproqni yopiq joyda saqlash kerak. Ko`chatlar ikki xil idishlarda ekiladi: yashiklar va tuvaklarda. Ko`chat o`stirish joylari issiq biologik asosda bo`lishi lozim.

Amaliy ish. Parniklarni urug` ekish uchun tayyorlash.

Urug` ekish uchun parnik



Urug' ekish va ko'chat tayyorlash moslamasi



Ishni bajarish tartibi:

1. Tayyorlangan chuqurlikka 30-35 sm qalinlikda tekis qilib, go'ng soling. Uni yaxshilab bostirib qo'ying.

2. Termometr bilan go'ng qizishini tekshiring. Agarda harorat 45° S daraja atrofida bo'lsa, unga tuproq solish mumkin.

3. Agarda parnik suv bilan isitiladigan bo'lsa, unda avval trubalarni tekshirib chiqing.

4. Tayyorlangan tuproqni elab oling.

5. Tayyorlangan parnikka 15-20 sm qalinlikda tuproq to'king. Tuproqni xaskash bilan tekislang.

6. Parnik ramasi va tuproq yuzasi o'rtasidagi balandligini chizg'ich yordamida aniqlang. O'simlik turiga qarab bu balandlik 10-15 sm bo'lishi mumkin.

7. Parnik tuprog'i yaxshi qizishi uchun uni rama va qalin mato bilan yopish kerak.

8. Ishni tamomlagandan so'ng ish qurollarini tozalab tartibga keltiring. Qo'llaringizni sovun bilan yuving.

Yangi mavzuni mustahkamlash

Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.

2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o'rganib kelish.

21-22 Mavzu: Traktor va mashinalar ish agregatlari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga traktor va mashinalar ish agregatlari to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish.

Tarbiyaviy – o'quvchilariga traktor va mashinalar ish agregatlaridan havfsizlik texnika qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

lash bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali quollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlar, proeksion materiallar, rasmlar, qo'llanmalar, ma'ruza' matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "B\B\B", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta'limi darslarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga yangi mavzu zarur bo'lgan asbob-uskuna va ko'rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borishga e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo'riqnama: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi. O'qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojyat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so'raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha o'quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo'riqnama: Yakuniy yo'riqnama berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; o'quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Traktorning boshqaruv qismlari deganda nimalar tushuniladi?
2. Yurish qismiga texnik xizmat ko'rsatish nimalardan iborat?
3. Akkumlyator batareyasi nima vazifalarga xizmat qiladi?
4. Traktor boshqaruv qismlarini aytib bering?
4. Traktorni boshqarishda rul rolini aytning?

5. Traktor boshqarish qismlariga texnik xizmat ko'rsatish nimadan iborat.

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalari o'rganib kelish.
3. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzu bo'yicha 10 ta test tuzib kelish.

23-mavzu: Traktor va mashinalarning boshqaruv qismlari, dvigateli, elektr ta'minoti va yoritish tizimi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga traktor va mashinalarning boshqaruv qismlari, dvigateli, elektr ta'minoti va yoritish tizimi to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish.

Tarbiyaviy – o'quvchilariga traktor va mashinalarning boshqaruv qismlari, dvigateli, elektr ta'minoti va yoritish tizimi xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi – o'quvchilarda traktor va mashinalarning boshqaruv qismlari, dvigateli, elektr ta'minoti va yoritish tizimi bilan ishlash bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlari, proeksion materiallar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: toifalash, mantiqiy zanjirlar, og'zaki, ko'rgazmali.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism.** O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, libatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazoratlash.

2. **O'tilgan mavzuni takrorlash.** Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat miqdorlarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. **Yangi mavzuning bayoni.**

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo'lgan asboblarni va ko'rgazmali jihozlarni vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borishga e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo`riqnoma: O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi. O`qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojyat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko`rsatadi, har bir o`quv birligi bo`yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so`raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o`quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo`yicha o`quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo`riqnoma: Yakuniy yo`riqnoma berish paytida o`quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo`llay olishi, ish usullarini to`g`ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o`rnida belgilangan tartibni qo`llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to`g`ri foydalana olishi; o`quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to`g`ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Traktor so`zining ma`nosini aytib bering?
2. Traktorlar qanday vazifalarni bajaraoladi?
3. Traktorlarning elektr sistemasini aytib bering?
4. Akkumulyator nima uchun kerak?
5. Elektr tarmog`idagi klemmlar to`g`risida ma`lumot bering?
6. Traktorlarning texnika xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
7. Traktor va texnika vositalar uchun yo`l harakat xavfsizligini aytib bering?

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo`yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo`yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o`rganib kelish.
3. O`tilgan mavzu yuzasidan qo`shimcha adabiyotlardan foydalangan holda 10 ta test tuzib kelish.

24-mavzu: Traktor va mashinalar bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalari

Darsning maqsadi:

Ta`limiy – o`quvchilariga traktor va mashinalar bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalari to`g`risidagi bilimlarni o`rgatish.

Tarbiyaviy – o`quvchilariga traktor va mashinalar bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalariga rioya qilgan holda to`g`ri foydalanishni o`rgatish.

Rivojlantiruvchi – o`quvchilarda traktor va mashinalar bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalari bo`yicha ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo`yicha plakatlar, proektsion materiallar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, qo`llanmalar, ma`ruza matni, lug`atlar, ma`lumotnomalar, test

materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og`zaki, ko`rgazmali, "Ro`lli o`yin", "Muammoli vaziyat" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O`tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg`ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O`quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O`quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O`tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta`limi darslarida mavzuga oid o`tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo`riqnomasi: O`quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo`lgan asbob-uskuna va ko`rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o`quvchilarni faollashtirib borishga e`tibor beriladi, amaliy mashg`ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo`riqnomasi: O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi. O`qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojyat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko`rsatadi, har bir o`quv birligi bo`yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so`raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o`quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo`yicha o`quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo`riqnomasi: Yakuniy yo`riqnomasi berish paytida o`quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo`llay olishi, ish usullarini to`g`ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o`mida belgilangan tartibni qo`llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to`g`ri foydalana olishi; o`quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to`g`ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Traktordlarda ishlashga kimlarga ruxsat beriladi?
2. Yonilg`i va moy olinadigan punktga traktorni qaysi tomondan olib boriladi?
3. Traktorning quvvat olish vali ishlatilayotgandagi xavfsizlik qoidalarini ayting.

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo`yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo`yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o`rganib kelish.
3. O`tilgan mavzu yuzasidan qo`shimcha adabiyotlardan foydalangan holda 10 ta test tuzib kelish.

25-28 Mavzu: Sut sog`ish apparatlari va sutga dastlabki ishlov berish qurilmalari

Darsning maqsadi:

Ta`limiy – o`quvchilariga sut sog`ish apparatlari va sutga dastlabki ishlov berish qurilmalari to`g`risidagi bilimlarni o`rgatish.

Tarbiyaviy – o`quvchilariga sut sog`ish apparatlari va sutga dastlabki ishlov berish qurilmalari bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalari rioya qilgan holda to`g`ri foydalanishni o`rgatish.

Rivojlantiruvchi – o`quvchilarda sut sog`ish apparatlari va sutga dastlabki ishlov berish qurilmalari bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalari bo`yicha ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo`yicha plakatlar, proeksion materiallar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, qo`llanmalar, ma`ruza matni, lug`atlar, ma`lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og`zaki, ko`rgazmali, "Ro`lli o`yin", "Muammoli vaziyat" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O`tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg`ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O`quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O`quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O`tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta`limi darslarida mavzuga oid o`tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Mobil sog`uv apparati – "MobiMelk D190" tipidagi sog`in apparati

Barchamizga ma`lumki, sut mahsulotlari yo`nalishiga ixtisoslashgan chorvachilik fermer xo`jaliklarida sog`in sigirlar asosiy vazifani bajaradi. Ushbu xo`jaliklarda asosiy daromad sut yetkazib berish evaziga ekanligini inobatga oladigan bo`lsak, sog`in sigirlarni sifatli sog`ib olish juda ham muhim sanaladi. Sog`in jarayoni va gigiyena tadbirlari to`g`ri yo`lga qo`yilgan xo`jaliklarda turli yelin kasalliklari kam uchrashi mutaxassislar tomonidan e`tirof etilgan.

Bu esa ushbu xo`jaliklarda iqtisodiy o`sinh va barqarorlik doimiy saqlanib qolishini ta`minlaydi. Ushbu holatlarni o`rganib chiqqan "TECHNO MILK" kompaniyasi kichik va o`rta sonli chorvachilik fermalari uchun "MobiMelk D190" sog`in



apparatini taklif etadi. Ushbu sog`uv uskunasi Germaniyada ishlab chiqarilgan bo`lib, bir vaqtning o`zida ikki sigirni sog`ish imkonini beradi.

Texnik xususiyatlari:

Moysiz, vositasiz uzatmali vakuum nasos, unumdorligi 190 l/min MobiMelk Quvvati 1 o.k, 0,75 kVt, 230 v

Maksimal ishlash vakuumi 50 kPa

Mumkin bo`lgan ishlash temperaturasi 0 °C dan 50 °C gacha

Sut flyagasiga sog`ish

MobiMelk o`zining konstruktiv qismlariga ega va quyidagilardan iborat:

Shassi, alyuminli sut flyagasi

Resciver vakuumniy vstroyenniy v shassi

To`lib toshib ketishidan ximoya vositasi

Vakuummetr

Avtomat dvigatel ximoya

Ikkita sog`in uskunasi, Double Cows Liner D 23 - bir vaqtning o`zida ikki sigirni sog`ish mumkin

Pulsator

Vazni (sog`in uskunalari va pulsatorsiz) 48 kg

Hajmi 1100x600x1080mm

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

5. Uyga vazifa berish:



29-34. Mavzular: Suv bilan ta`minlash tizimida mashinalarning ahamiyati

Darsning maqsadi:

Ta`limiy – o`quvchilariga suv bilan ta`minlash tizimida mashinalarning ahamiyati to`g`risidagi bilimlarni o`rgatish.

Tarbiyaviy – o`quvchilariga suv bilan ta`minlash tizimida mashinalarning ahamiyati bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalari rioya qilgan holda to`g`ri foydalanishni o`rgatish.

Rivojlantiruvchi – o`quvchilarda suv bilan ta`minlash tizimida mashinalarning ahamiyati bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari va y`ollarda harakatlanish qoidalari bo`yicha ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko`rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo`yicha plakatlar, proeksion materiallar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, qo`llanmalar, ma`ruza matni, lug`atlar, ma`lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og`zaki, ko`rgazmali, "Muammoli vaziyat" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5

2. O`tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg`ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O`quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O`quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. O`tilgan mavzuni takrorlash. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta`limi darslarida mavzuga oid o`tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Qishloq xo`jaligi ekinlarini **sug`orish usullari** sug`orish suvini sug`oriladigan uchastkalarga taqsimlash va suvning oqim shaklini tuproq va atmosfera namligiga aylantirishda qo`llaniladigan usul va tadbirlar majmuasi bo`lib, hozirgi vaqtda yer **yuzasidan** (tuproq ustidan), **yomg`irlatib**, **tuproq orasidan**, **tomchilatib** va **aerozol** (mayda dispers yomg`irlatib) **sug`orishlar** farqlanadi

Sug`orish texnikasi sug`orishni o`tkazish texnologiyasi va bunda qo`llaniladigan texnik vositalarni uichiga oladi

Egatlab sug`orish yer yuzasidan sug`orishning eng takomillashgan usuli bo`lib, nishobligi 0,001 dan 0,05 gacha bo`lgan yerlarda yetishtirilayotgan qator oralari chopiq qilinadigan ekinlarni asosiy sug`orish usuli hisoblanadi.



Yo`laklab bostirib sug`orishda suv dalaga yo`lak (taxta, pol)lar orqali yoppasiga bostirib beriladi. Yo`lak bo`ylab suv qatlami tuproq sathidan 2–3 sm qalinlikda harakat qilishi jarayonida tuproqqa singib, uni namiqtiradi.

Yomg`irlatib sug`orish deyilganda maxsus mashina, qurilma va agregatlar yordamida suvni tuproq sathi va o`simlikka sun`iy yomg`ir shaklida yetkazib berish tushuniladi.

Impulgsli yomg`irlatib sug`orish tizimi yomg`irlatib sug`orishning istiqbolli yo`nalishi bo`lib, bunda suv turli konstruksiyadagi maxsus yomg`irlatgichlar yordamida bo`lib-bo`lib, kichik miqdorlarda taqsimlanadi

Tomchilatib sug`orish qishloq xo`jaligi amaliyotida qo`llanilayotgan nisbatan yangi sug`orish usuli bo`lib, bunda maxsus filgtrlar yordamida tozalangan suv tomchilatgichlar orqali tomchi shaklida tuproqqa berilib, o`simlikning ildiz tizimi eng ko`p tarqalgan tuproq qatlamini lokal namiqtirishga erishiladi.

Tomchilatib sug`orish yer yuzasidan va yomg`irlatib sug`orishlarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: suvdan tejimli foydalanish (odatdagi sug`orishga nisbatan 1,5–2 marta kam); suvni filgtratsiya va bug`lanishga eng kam miqdorda bo`lishi; oqova chiqarilmasligi; irrigatsiya eroziyasini yuzaga kelmasligi; qator oralarini zichlanmasdan, doim yumshoq holda bo`lishi; tuproqning qulay namligini ta`minlanishi; o`g`itlarni tuproqqa lokal kiritish imkoniyatining mavjudligi;

murakkab relgefli joylarda qo'llash mumkinchiligi; hosildorlikni 20–50%ga ortishi va boshqalar.


Tizimning tarkibiy elementlari: suv olish va tozalash inshootlari; nasos stansiyasi, o'g'itlarni aralashtirish qurilmasi, sug'orish tarmog'i, aloqa liniyalari, avtomatlashtirish tizimi, ihota daraxtlari, dala yo'llari va boshqalar. Sug'orish tarmog'i polietilen yoki asbestsementdan tayyorlangan suv uzatish magistral quvuri, taqsimlash quvurlari, polietilendan tayyorlangan egiluvchan sug'orish quvuri va tomchilatgichlardan iborat bo'ladi.

Aerozol sug'orish (ayrim adabiyotlarda mayda dispers yomg'irlatish yoki tuman holda sug'orish deb yuritiladi) sug'orishning eng yangi usuli bo'lib, qishloq xo'jaligi ekinlari uchun qulay mikroiklimni vujudga keltiradi. Aerozol sug'orishda havoni yerga yaqin qatlamining nisbiy namligi oshiriladi, o'simlik yer ustki organlarining harorati 6–12 gradusga pasaytiriladi. Bunday sug'orish kunning eng issiq vaqtida har bir-ikki soatda qayta-qayta o'tkazilib turiladi. Bir marta sug'orishda gektar hisobiga 0,8–1 m³ suv beriladi. Aerozol sug'orishda maxsus qurilmalar yordamida suv diametri 400–600 mm bo'lgan juda mayda tomchilarga aylantiriladi. Quruq havo va issiq shamollar bo'lib turadigan rayonlar, tuproq namligi ortiqcha bo'lgan sharoitlarda bog', rezavor mevalar va sabzavot, yem-xashak, texnik ekinlarni sug'orishda bu usuldan tez-tez yoki uzluksiz foydalanish yuqori samara beradi.

Yomg'irlatib sug'orish mashinalari va agregatlari. Yaqinga otar yomg'irlatib sug'orish apparatlari sirasiga DT-75M, T-4, T-150 traktorlariga o'rnatilib ishlatiladigan ikki konsolli yomg'irlatish agregatlari DDA-100M va DDA-100MA kiradi. Ular joyning nishobligi 0,003 dan katta bo'lmagan yerlarda texnik, sabzavot, poliz, yem-xashak va donli ekinlarni sug'orishda keng qo'llaniladi. DDA-100M agregatining suv sarfi 100 l/sek. DDA-100MA agregatini esa 130 l/sek. ga teng Sug'orish meyori agregatning dalada bir necha marotaba oldinga va orqaga yurishi orqali ta'minlanadi.


O'rtacha otar yomg'irlatib sug'orish mashina va qurilmalari. DKSH-64 «Voljanka» g'ildirakli yomg'irlatish quvurlarining uzunligi 395,6 m va diametri 130 mm. ga teng bo'lib, mustaqil ishlovchi ikki qanotdan iborat. Har bir qanotida 34 tadan metall g'ildiraklar, suv sarfi 0,9–1 l/sek. dan bo'lgan 32 tadan o'rtacha otar yomg'irlatgich apparatlar o'rnatilgan. Mashina yopiq tarmoqdan gidrantlar yordamida suv oladi. Dalada ko'ndalang harakat qiladi.

DMU «Fregat» mashinasi «A» shaklidagi ko'p tayanchga ega bo'lib, yopiq tarmoqqa ulangan qo'zg'almas gidrant atrofida aylanma harakat qilib, asosan, yoppasiga ekilgan yem-xashak ekinlarini sug'orishda qo'llaniladi. Suv uzatish quvuriga 38–50 ta o'rtacha otar yomg'irlatish apparatlari o'rnatilgan. Yomg'irlatish jadalligi 0,2–0,32 mm/min. Mashinaning ish unumdorligi quvurning uzunligi va sug'orish meyori miqdoriga bog'liq bo'lib, belgilangan sug'orish meyori mashinaning harakat tezligini o'zgartirish orqali ta'minlanadi. Mashina mineral o'g'itlarni aralashtirish va uzatish qurilmasi bilan jihozlangan.



DDA-100MA yomg'irlatib sug'orish agregati

Nishobligi 0,015–0,020 dan katta joylarda rostlanmaydigan suv chiqargichli, diametri 150–200 mm bo'lgan polietelen shlanglardan, 0,015–0,005 bo'lgan yerlarda diametri 250–300 mm bo'lgan kapron va 0,005 dan kichik yerlarda esa 350–420 mm diametrga ega rostlanuvchi suv chiqargichli kapron shlanglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.




Sarfi rostlab turiladigan suv chiqargichli egiluvchan shlanglar bilan g'o'zani egatlab sug'orish

Bunday tizimlarda suv gidrantlardan ochiq muvaqqat sug'orish tarmog'iga uzatilishi va undan nay hamda sifonlar yordamida egatlarga taqsimlanishi mumkin.

Egatlarga suvni bo'g'otchalar, nay va sifonlar yordamida taqsimlash. Bo'g'otchalar tunuka yoki plastmassadan tayyorlangan bo'lib, ular o'qariqdan yoki beshamakdan suvni egatga taqsimlashda qo'llaniladi. Nay va sifonlar tunuka va polietilendan, shuningdek, rezina shlangdan tayyorlanadi. Ularni ishlash tamoyili o'qariq va egatdagi suv sathlari farqiga asoslangan. Polietilendan tayyorlangan nay va sifonlar eng ko'p qo'llanilib kelinmoqda, ular 20–60 mm diametrdagi 1,3 m uzunlikda bo'lib, suv sarfi 0,2–2 l/sek. ni tashkil etadi. Bunday jihozlar qo'llanilganda egatlarga suv bir xilda taqsimlanadi, suv egatlar oxiriga baravar yetib boradi va tuproq bir tekisda namlanadi. Suvchining ish unumdorligi oshadi (smanada 2–3 ga. gacha) va mehnat gigiyenasi yaxshilanadi, bitta suvchi 90–100 l/sek. miqdordagi suvni boshqarishi uchun imkoniyat yaratiladi. Nay va sifonlar yordamida nishobligi 0,003 dan katta joylarda uzun egatlar (200–400 m) orqali

sug'orish yuqori samara beradi).



Egatlarga suv taqsimlash jihozlari: a – bo'g'otchalar; b – nay

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

5. Uyga vazifa berish.

35-36 Mavzu: Chorva mollarini boqish va ularni parvarishlash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga chorva mollarini boqish va ularni parvarishlash to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish.

Tarbiyaviy – o'quvchilariga chorva mollarini boqish va ularni parvarishlash qilish qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri ish olib borishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi – o'quvchilarda chorva mollarini boqish va ularni parvarishlash qoidalari bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlar, chorva mollarini boqish va ularni parvarishlash to'g'risidagi vidioro'liklar, proektsion materiallar, rasmlar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Bumerang", "Mozyka" kabi interaktiv metodlar.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Kontseptual jadval", "SWOD" tahlil kabi interaktiv metodlar.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism.** O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. **O'tilgan mavzuni takrorlash.** Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta'limi darslarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. **Yangi mavzuning bayoni.**

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo'lgan asbob-

uskuna va ko'rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borishga e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

Joriy yo'riqnoma: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi. O'qituvchi jalb qiluvchi savollar bilan murojlat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi, kelib chiqqan muammolarni yozish so'raladi. Savol-javob orqali foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha o'quvchilar baholanadi.

Yakuniy yo'riqnoma: Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'quvchilar egallagan nazariy va amaliy bilimlari baholanadi. (nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi; sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilishi, ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llay olishi; oshxona jihozlari, asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalana olishi; o'quv topshiriqlarini bajara olish texnologiyasini to'g'ri bajara olishi).

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Chorva mollarini boqish va parvarish qilish nima qanday amalga oshadi?
2. Uy hayvonlari asosiy emishi nimalardan iborat?
3. Uy hayvonlarining tirik vaznlari qanchagacha bo'ladi?
4. Bitta sigir va qo'ning beradigan mahsulotlarni aytib bering?

5. Uyga vazifa berish:

1. Mavzu bo'yicha darslikda berilgan amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalarini o'rganib kelish.
3. O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda 10 ta test tuzib kelish.

37-44 Mavzu: Quyonlar, qo'ylar, qoramollar, asalari, parranda, baliq, ipak qurtini parvarish qilish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilariga quyonlar, qo'ylar, qoramollar, asalari, parranda, baliq, ipak qurtini parvarish qilish to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish.

Tarbiyaviy – o'quvchilariga quyonlar, qo'ylar, qoramollar, asalari, parranda, baliq, ipak qurtini parvarish qilish qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri ish olib borishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi – o'quvchilarda quyonlar, qo'ylar, qoramollar, asalari, parranda, baliq, ipak qurtini parvarish qilish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha plakatlari, quyonlar, qo'ylar, qoramollar, asalari, parranda, baliq, ipak qurtini parvarish qilish bo'yicha vidioro'liklar, proektsion

materiallar, rasmlar, qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Muammoli ta'lim".

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism.** O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchilarni tayinlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2. **O'tilgan mavzuni takrorlash.** Uyga berilgan vazifalarni tekshirish, mehnat ta'limi darslarida mavzuga oid o'tilgan materiallarni takrorlaydi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: O'quvchilarga yangi mavzu uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va ko'rgazmali jihozlar vositasidan foydalanib bayon qilinadi, bunda turli xil muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilarni faollashtirib borishga e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulot yuzasidan topshiriqlar tushuntiriladi.

